

N.ERKABOYEVA, D.ISMOILOVA, O.YO'LDOShev

AMALIY PEDAGOGIKA

(O‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT - “FAN VA TEXNOLOGIYA” - 2005


74.00 973 Умумий педагогикә

Ushbu o'quv qo'llanmada amaliy pedagogika fanining maqsadi, vazifalari va mazmuni yoritilgan. O'quv qo'llanma pedagogika instituti hamda pedagogika kolleji talabalari va umurta'lim maktabi o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: *pedagogika fanlari doktori,
professor N. Sayidahmedov.*

Taqribchilar: *O'zMU dotsenti, p.f.n. Z. Ahrorova,
GulDU dotsenti, p.f.n. R. Ergashev,
Qo'qon DPI dotsenti, p.f.n. M. Tolipov.*

O'quv qo'llanma Qo'qon DPI uslubiy kengashining 2005 yil aprel oyidagi yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.



*Ustozimiz Olimjon Muhammadjonovning
porloq xotirasiga bag'ishlanadi.*

Kirish

Jamiyatning ma'naviy yangilanishini ta'minlash, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, xalqning boy intellectual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida O'zbekiston taraqqiyoti yuqori bosqichga ko'tarilmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi davlat va jamiyat oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutishi tom ma'noda jamiyatni global pedagoglashtirish muammosini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda pedagogika fanining nufuzi, jamiyatda tutgan o'rni oshib bormoqda. Shu boyisdan pedagogika fanlaridagi tarmoq fanlarni bo'lajak pedagog mutaxassislarga o'qitish dolzarb vazifalardandir. Amaliy padagogika shunday fanlardan biri bo'lib, u pedagogik fanlar tizimida asosiy o'rinni egallaydi.

Amaliy pedagogika pedagogika fanining mustaqil yo'nalishi sifatida XIX asrda Germaniyada paydo bo'lgan. Amaliy pedagogikanı fan sifatida shakllanishiga va rivojlanishiga nemis olimlari A.Mattias, Nagelbax, Shrader, Shiller, Smidt, Vaitz, O.Villmannlar hissa qo'shganlar. Amaliy pedagogika fani XX asr boshlarida Rossiya ta'lim muassasalarida o'rgatib kelingan. Sobiq sho're hokimiyati davrida amaliy pedagogika burjuaziya pedagogikasi yo'nalishi sifatida baholanib, pedagogika fanlari tizimidan tushurib qoldirildi.

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan keyin, pedagogik fanlar tizimidagi barcha fanlarni, jumladan, amaliy pedagogikanı o'rganish uchun imkoniyatlar paydo bo'ldi.

1-bob. Amaliy pedagogika fani predmeti va o‘qituvchining shaxsi

1-§. Amaliy pedagogika fani predmeti

Barcha fanlar singari amaliy pedagogika fani ham o‘z tadqiqot ob‘yekti va predmetiga egadir. Amaliy pedagogika fanining ob‘yekti har qanday jamiyatda mavjud bo‘lgan pedagogik borliqdir. Amaliy pedagogika fanining predmeti esa, pedagogika nazariyasi va pedagogik amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikdir. Amaliy pedagogika pedagogik fanlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan pedagogika fanining mustaqil yo‘nalishi sifatida pedagogika nazariyasi va pedagogik amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir.

Bugungi kundagi jamiyat talablari asosida fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash - amaliy pedagogikani nazariy pedagogikaga nisbatan aniq o‘rinni egallashi lozimligini ko‘rsatmoqda.

Nazariy pedagogika toifa va tushunchalarni sistematik to‘liq, eng sara, yetuk va ibratlì bo‘lishiga javobgardir; amaliy pedagogika esa, chindan ham harakat qilib yetishsa bo‘ladigan narsalarni ko‘rsatib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi lozim. Amaliy pedagogikani boshlang‘ich nuqtalari deb biz ko‘rib, bilib o‘tilgan, erishilgan hodisalarни tushunamiz. Shuning uchun iloji boricha bu pedagogika o‘zgaruvchi hayotga mos va zarur paytda qo‘llanshiga qulay bo‘lmog‘i lozim. Amaliy pedagogika o‘z mulohaza va talablariga ko‘ra o‘zining bo‘shtlang‘ich shakliga nisbatan kengroq o‘rin egallab, erkin va jozibali holatdan me’yorlastirilgan maktab hayoti va mas’uliytli amaliy faoliytga kirishishni nazarda tutadi. Amaliy pedagogika talabaning amaliyotini, fakultetdagi ahvol va tekshiruvlarni,

sinash yilini o'z doirasiga kiritmasdan, pedagogik vaziyatlarni mavjudligicha qabul qilib oladi.

Amaliy pedagogikani nazariy pedagogikaga nisbatan tutgan pastroq o'mi ham, asosan nazariy pedagogikaga nisbatan keng ko'lamli psixologik fikrlash xosligidir, amaliy pedagogikaga esa, keng tarmoqli fikrlashdan ko'ra ko'proq amaliy yo'naltirilgan harakat hosdir. Amaliy pedagogikani o'mini kamsitmoqchi emasmiz, bu pedagogika uchragan yaxshi usulni o'z ichiga qamrab olishi kerak. Shuning uchun amaliy pedagogikani boshlang'ich turki nuqtalari deb sistematik bilimlarni emas, balki yo'il qo'yilgan xatolarni kuzatishdir va tuzatmoqlig deb bilsak bo'ladi.

2-§. O'qituvchining shaxsi

Mustaqillikka erishilgan hozirgi davrda asosiy e'tibor ko'proq yangi pedagogik texnologiyalarga va uslubiyotga qaratilgan bo'lib, shaxsga qaratilgan e'tibor ham ortib bormoqda. Hozirgi davrda bizga bog'liq bo'limgan narsalar: qonunlar, tamoyillar, buyruq va ko'rsatmalar ham shaxsni tanlash huquqi va erkinligini rivojlantirmoqda. Bir narsani unutmaslik lozim, chunonchi, insonga qog'oz va buyuruqlardan o'laroq, ko'proq ta'sir ko'satuvchi omil insondir, ya'ni mustaqil, hur fikrlaydigan shaxs. Albatta, qonun-qoidalalar, buyruq va o'quv rejalar, uslublar ham tarbiya va intizomda alohida, katta o'rinn tutadi. Ammo bu omillarni haddan tashqari yuqori qo'ymaslik ham lozim, chunki ularning muvaffaqiyati asosan, inson tomonidan to'g'ri qo'llanishiga bog'liq. To'g'ri qo'llanish deganda, biz vaqtidan unumli foydalanim, bu omillarni to'g'ri qo'llashni nazarda tutamiz. Bunda o'qituvchi o'zinинг yuqori bilimi, xarakterining mustahkamligi va ta'lim-tarbiya berish borasida

mohirligi bilan ajralib turishi kerak. Aynan o'qituvchi o'z mutaxassisligining quliga aylanib qolishi mumkin, chunki ko'p yillar bir hilda ta'lif berish bu bilimlarni berishda mexanik tarzda dars o'tishga, bu esa, o'z navbatida shaxs erkinligini va mustaqilligini kamsitishga olib keladi.

To'gri tanlangan uslubga ko'p narsa bog'liq, bunda shaxs chinakam shaxsiy sifatlarga ega bo'ladi. Ammo shaxsni ma'naviy uyg'onishi kerak bo'lgan joyda faqat uslub yordam berolmaydi. Qalbni faqat qalbgina tarbiyalashi mumkin. O'quv rejasи va uslubiyotdagi kamchiliklarni ma'naviy yuksaklikka erishgan o'qituvchigina tuzatishi mumkin. Ammo yomon o'qituvchini eng ajoyib o'quv rejasи hamda uslubiyot bilan almashtirish mushkul va mumkin emasdir. Sinflarda birlik va bir xillikka harakat qilinish shaxsni o'ziga xosligi, erkinligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'rta ma'lumotni olish insonga hayotda kerak bo'lgan haq-huquqlardan biri bo'lib, keyinchalik mustaqil hayotga qadam qo'yish va ishlash uchun qo'llaniladi, ammo bunda o'qitishning ajoyib va asosiy maqsadini yodimizdan ko'tarmasligimiz kerak, ya'ni biz keyinchalik hayotimizda mansab va lavozimga ko'tarilish uchun bilim olmasdan yashash uchun, hayotga keng nazar tashlab, bilim olmog'imiz lozim. Maktab faqatgina bilim bermasdan tarbiyalashi ham lozim. Faqat chinakam shaxs sifatida shakllangan o'qituvchigina o'z o'quvchisiga kerakli bilimlarni bera oladi va bu bilimlar shaxsiy foyda ko'rish uchun emas, chinakam va har tomonlama keng bilimlarga yo'naltirish uchun xizmat qiladi. O'qituvchi o'quvchining ixtiyori va intilishini bilimni qadrlash va egallashga yo'llantirmog'i lozim, o'shandagina o'quvchi o'qishga, bilim olishga mehn qo'yadi.

Davlat tarafidan o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalash birinchi galda bir qator imtiyozlar berilishida namoyon bo'lmoqda. Buyuk allomalar aytganidek - O'qituvchi xayotni harakatini lavozim, mukofotlarga qaratmasligi lozim, chunki bu ta'llim – tarbiya berish borasida asosiy maqsaddan, ya'ni o'qitishdan chetga olib chiqib, o'qituvchini yuzaki ishlashiga, shon – shuhrat va yolg'on obro' – e'tiborga talpinishiga olib keladi. Aslida o'zini qadriga etgan inson o'z ishini chin dildan ado etib, o'zini o'sha ishga bo'lgan oqibati orqali, sidqidildan ado etishi bilan eng avvalo o'z ko'nglida, o'z fikrida ulug'likka erishadi. Menda nima bor, nimaga ega bo'lishim mumkin edi, odamlar menga qanday qarashadi degan fikrda yuradigan inson o'zi chindan ham nimaga loyiqligini, qanday bo'lganligini va qanday bo'lishi lozimligini, shaxsnинг chinakam bahosini unutib qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchini juda yaxshi tushunadilar, o'qituvchi nimaga loyiqligiga qarab unga oqibat qiladilar va agar uni hurmat, o'rnatko'pincha, biz buni bilmasak ham, o'qituvchining asl mohiyatini tez anglab etadilar, uni ikkilanishini, qattiq qo'lliliginini, so'zini qadr-qiyamatini tez va to'gri baholaydilar. O'quvchilar o'qituvchilarning o'z ishiga bo'lgan mehrini, sodda yondoshib to'g'ri va qattiqko'llik bilan yo'naltirish va majburiy, o'lganining kunidan qabilida ishlashning farqini tez ilg'ab oladilar. Har qanday inson kabi o'qiyuvchilar o'z ijobiylar xislatlarini takomillashtirmog'i lozim. Salbiy xislatlarga mакtabda o'rin yo'q, chunki bu xislatlar insonni shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham amaliy pedagogika iloji boricha individni kamchiliklariga qarshi ayovsiz kurash olib borishlari lozim, o'qituvchini barcha kamchiliklariga jang e'lon qilib, ularni bartaraf etmog'i kerak. Boshqa

tarafdan amaliy pedagogikada bir narsaga e'tibor berishimiz mumkin, shaxsiy xususiyatlar o'z kasbini uslubi va texnikani o'rganishda yutib chiqadi. Texnika va uslubiyat o'qituvchi tarafidan yodlab olingan, yuzaki bo'imasdan o'qituvchini qon-qoniga singib ketgan abadiy xususiyat, sifat va qonunlarga aylanib ketmog'i kerak. Tamoyillarning paydo bo'lishi barcha ishlarga ta'sir o'tkazuvchi va yo'nalishni o'zgartiruvchi nuqtai nazarni hisobga olish bilan bog'liq. Bular: o'quvchilarning xarakteri, ta'lim fani va o'quv maqsadlari. Eng sara individual xislatlarni, mustahkamlash, kamchiliklar bilan kurash, uslub bizni tasarrufimizga bergen omillardan foydalana bilish asta-sekin o'qituvchi shaxsini o'ziga xos xislat va xususiyatlarini rivojlantirib o'quvchiga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarni takomillashishiga olib keladi. Bu kuch o'quvchiga katta ta'sir o'tkazadi va o'quvchini ko'p narsalarga erishishiga olib keladi. Bu kuch barcha tashqi yuza ta'sirlardan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Bu kuch ta'limni qalbidir, u "rivojlantiruvchi unsur" hisoblanib suv kabi u o'z paydo bo'lish va rivojlanish ta'rixiga ega va barcha oliy kuchlar (ta'sirlar) paydo bo'lgan joydan kelib chiqadi.

1876 yili chiqqan Vize (WIESES): "Die Macht des Persölichen im Leben" kitobida quyidagiha yozilgan: "Qaysi bir inson o'z yoshligi timsolida o'qituvchiga taassuf (o'xshashni) qilmagan? Balki aynan ana shu o'mak timsolida bizda mehnatsevarlik va barcha bizning yaxshi xususiyatimiz ungandir? Albatta, ta'limning yutug'i qo'llaniladigan uslubga ham bog'liq. O'qituvchini ma'naviy va ruhiy o'tkazayotgan ta'siri o'quvchini yodida bir umrga qoladi. Misol uchun, biz har qanday tarixiy shaxs, voqeani, o'tmish va hozirgi hayot tafsilotlarini o'qituvchini dunyo-qarashiga qarab baholaymiz, undan o'mak olib fikrlaymiz. Yoshlar aslida

har safar narsalardan ko'ra ko'proq insonlarga qiziqadilar. Vaqt o'tgan sayin kattalarga bo'lган taassuf kamayib boradi, ammo inson ongida o'qituvchini ta'siri yana ko'p yillar mobaynida saqlanib qoladi. Bizning davrimizda biz ko'п hollarda yoshlarni kattalarga nisbatan behurmatlik ko'rsatishayotganliklarini eshitib qolamiz. Afsuski ahvol chindan ham shunday, ammo aslida ko'pchilikda umumiy ko'rsatmalarga qulq solish (bo'yin egish) saqlanib qolgan.

Haqiqiy chin holat bu idealni bir-biriga mosligi o'qituvchini esida bo'lishi lozim. Har doim ham vogelik va ideal bir-biriga to'gri tushavermasligini yodda tutmoqlik kerak.

Aynan shu narsa o'qituvchida yuksak orzuga, idealga yetishishda asqotadi. O'qituvchining mehnati mashaqqatlidir, chunki o'qituvchi nafaqat o'ziga, balki bir necha o'nlab o'quvchilarga va yana har bir o'quvchiga alohida e'tibor bermag'i lozim. Yana bir qiyinchilik borki, bu har qanday davr, jamiyat, o'qituvchiga har xil kasbiy shartlar qo'yadi va bu shartlar bir-biridan anche yiroqda bo'lib, haltoki qarama-qarshiliklarga ham ega bo'ladilar. O'qituvchi har vaqt ham xotirjamlikni va sabr-toqatini saqlab qolmog'i lozim. O'qituvchi har qanday ustunlikka ega bo'lib, kerakli onlarda chekinishi ham, sabr-qanoatni ham bilmog'i shu bilan birga o'z talabchanligini va qattiqko'lliligin yo'qotmasligi shart. U o'zi o'tayotgan fanni, qanchalik mashaqqatli va o'zlashtirilishi qiyin bo'lmasin egallashi, tushuntirganida eng ongi past o'quvchini saviyasiga ham tusha olishni egallamog'i lozim. O'shanda ham o'qituvchi har doim bir xil bo'lishi lozim. Insonlar hozirgi davrda talab qo'yishni bilishadiku, ammo bu isataklarini qanday qilib ro'yobga chiqarishni bilishmaydilar, shunda ham o'qituvchi bu nomutanosiblikdan achchiqlanmasligi lozim. U davrni

baqir-chaqirlariga qulq solmasdan o'z ishidan qolmasligi, bilib ishini bajarishi lozim. Amaliy pedagogika o'qituvchiga shunga o'xshash maslahatlarni berishi lozim. Xaddan tashqari balandparvoz ideallar xaddan tashqari nozik tuzilishga ega bo'lib haqiqat bilan uchrashganda unga dosh bera olmaydi. Kattakon orzu-istik va havaslar bilan ishga kelgan o'qituvchi tez vaqtida umidsizlanishi mumkin, mayda narsalarda urilib-surilib o'z orzusini yo'qotgan o'qituvchi o'zini yo'qotib qo'yishi mumkin, oxir-oqibat o'qituvchi eng dahshatli ahvolga tushib qoladi, yani u to's-to' polonli xizmatga odatlanib kechagi qilgan narsalarini yana qaytaradi. Bunda orzu idealga bo'lgan talpinish so'nadi. Ta'lim va tarbiya mehnati hozir ham san'at bo'lib qolgan, bu san'at har qanday mayda narsalarni ham o'rni-o'rniga qo'ysagina lazzatli bo'ladi. Hozir ham o'zgalarni tarbiyalovchi inson o'zi ham tarbiyalanmoqda, ta'lim beruvchi o'zi ham o'qimoqda. Hozir ham insonni ma'naviy - ruhiy tabiyasini ustidan olib borilayotgan ish eng qiziqarli ishdir, o'qituvchi o'zini bu kasbga bag'ishlampog'i lozim. O'qituvchilik kasb-koridagi mavjud man'aviy tarbiya qiziqtirsa u o'qituvchilikda ham o'z talab-ehtiyojlarini qondira olishi mumkin. Agarda inson o'zini moddiy boyligi haqida, o'z turmushini shuhrat va lavozimlarda o'tkazishni istasa u o'qituvchilikdan yiroqda yursin. Ideallar har holda ro'yoviy emasligini, ularni o'zgaruvchanligini inobatga olsak o'qituvchi o'z yuksak intilishi deb yuqori ko'rsatkichlarga ega mohir kasbdoshiga tenglashmog'i maqsadga muvofiq. Bunday tenglashmoqlik niyati kasbda ideallar ko'pligida, ta'lim - tarbiyatagi natijalar yaqqol ko'rinnmaganda qo'l keladi. Yuksak yutuqlar va mahorat egalari oddiy o'qituvchiga maktab o'rmini o'taydi, ulug' natijalar (misollar) kasbdoshlar orasida musobaqa ruhini va o'qituvchida irodani

mustahkamlanishiga olib keladi. Agar bunday o'rnak bo'ladigan insonlarni yon – atrofimizdan topa olmasak, biz o'tmishga, adabiyotga murojaat qilishimiz kerak. Al-Xorazmiy, Beruniy, Navoiydan boshlab A.Avloniy, Bexbudiy adabiyotini ko'rib chiqishimiz kerak, ammo eng katta ta'sirni bizga o'z zamondoshlarimiz o'tkazadi, chunki ular aynan biz ishlayotgan muhitda, sharoitda o'z yutuqlariga erishmoqdalar.

O'qituvchining ilmiy bilimlari. Jon kuydirib istak va xohish bilan ishlash uchun o'qituvchi ulkan bilimga ega bo'lishi, bundan tashqari bu yo'lida yana izlanishlar olib borishi kerak.

“O'qituvchi” – deydi Negelebax – “olim bo'lishi kerak” har holda o'qituvchi o'z intilish va izlanishlarida olimlikka da'vogarlik qilmog'i lozim. O'qituvchi doimo ilm masalasida izlanishi, oldinga intilishi va xattoki xayotini so'nggi daqiqalarigacha o'z ustida ishlashi kerak. Mehnati og'ir bo'lgan bu kasbda hech bo'lmaganda bir-ikki soatni ilmgaga qaratilsa hordiq sifatida qo'l keladi.

O'zgarib borayotgan davrda, bilimlar miqiyosi kengaygani sari o'qituvchi ham ko'proq bilimga ega bo'lishi, izlanishi shart, ana shunda o'qituvchi eng yuksak ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Agar o'qituvchi o'z ishiga ilmiy yondashmasa va faqat past, mayda ehtiyojlarga javob bersa u dars qo'llianmasi bilan chegaralanib qoladi. Agar u yangidan-yangi talablarni qondirolmasa o'z zamonasidan ortda qolib ketgan bo'ladi. O'qituvchi doimiy ilmiy izlanishlar olib bormagan taqdirda ham hech bo'lmaganda o'z faniga oid biron-bir kitob o'qishi kerak. Shunda u o'z xatolarini tushunishi, o'zini baholashi mumkin. Vaqt-vaqt bilan o'qituvchiga falsafiy kitob o'qish ham kerak, chunki bu kitoblar ilmiy dunyoqarashni, ilmiy farazni va ilmiy yondashishni o'rgatadi. O'qituvchi

psixologiyani o'rganishi lozim. Shu san yordamida u o'z fanini o'rgatayotganini sezib, bilib tushunadi, nafaqat bularni, balki ta'linni o'quvchi qalbiga o'tkazgan ta'sirini ham biladi. Amino kitobdan yodaki olingan bilimlar o'lik bilimlar sirasiga kiradi, shuning uchun o'qituvchi alohida, katta e'tiborni hayotiy masalalarga, kamtarona ilmiy izlanishlarga qaratmog'i lozim. Bunda u qanchalik faol bo'lishini o'z ehtiyoj, kuchiga qarab belgilashi lozim.

Shunday qilib o'zini ustida ishlayotgan, ilmiy yondashishga intilayotgan o'qituvchi o'zini bir taraflama dunyoqarashdan va yondashishdan asrab qolib o'qituvchi kasbiga xos kamchiliklardan qutulib qoladi. Bu kamchilik aslida o'ziga xos kasallikdir. Bu o'qituvchining "o'ziga haddan tashqari bino qo'yib, ishonishidir". Bu kasallik o'qituvchi o'zini ilmi kam sinfga kirib kelgandagi hayratni ilg'aganida paydo bo'ladi. Nuareni: "...keskinlik va ortga chekinmaslik, aniq va noaniq masalalar bo'yicha rad javobini tan olmaslik, u ya'ni o'qituvchi boshqalardan ko'ra hamma narsani yaxshiroq bilaman degan ishonch o'zga insonlarning fikrini "mensimaslik" "o'zlarining chegaralangan" hayotlarida", – deydi. O'z o'quvchilar yonida o'z bilimlari bilan maqtangan o'qituvchi albatta, lim bo'lishi mumkin. Ammo uni ziyoliy o'qituvchi deb bo'lmaydi. Har holda u yomon pedagog. Takabburlik o'qituvchida fikrlarshda qat'iylik bilan chambarchas bog'lanib ketgandir. Bu salbiy hislatni yengishda faqat o'zini mutaxassisligi bilan chegaralnib qolmagan. Doimiy ilmiy izlanish o'qituvchiga yordam beradi. Bunday izlanishlar qat'iylik va fikrlashga yengillik berishi mumkin. U bir taraflama fikrlashdan saqlaydi. Kimki faqat maktab maqsadi o'quvchiga beradigan bilimi uchungina ishlasa u tez orada o'ziga nima kerakligini anglab yetadi. Ayniqsa, bu bilimlar yildan-

ylga qaytarilsa. Oxir oqibat o'qituvchi bu narsalarni ko'p marotaba o'tkanligini hayoliga keltirmaydi. Ammo o'quvchidan o'z saviyasiga mos aniq javobni talab qilib oladi. Bunday talab qo'yish va bilim talab qilishda bunday yondashish baholashda xatoga olib keladi. Aksincha agar o'qituvchi o'z ustida ishlasa, bilim olishga intilsa, o'z mutaxassisligiga qo'ygan chegaralardan chiqsa, u o'zini mukammallikdan (yetuklikdan) ancha orqadaligidan va har safar yangidan-yangi biror yangilikni mustahkam va tez olib qolish mashaqqatini tushunadi. Har taraflama ta'lif topgan o'qituvchi o'quvchining alohida urg'u bermaydi. O'qituvchi fanga bir taraflama bo'lsa u o'quvchiga shuncha qat'iyatlik ko'rsatadi. Chegaralaniň qolgan o'qituvchi mutaxassislar o'quvchilarни yutug'ini baholashda juda qaysar bo'lishlarini ko'rishimiz mumkin. Doimiy to'g'ri ilmiy izlanishi o'qituvchilarning saviyasi pasayishidan qo'polloshuvidan va o'zini hurmati yuksak joyda bachkanalashuvidan, haddan tashqari yolg'on obro'ni saqlaydi.

Hayotni mashaqqatlarida hech bo'lmasa har kuni bir soat o'z nigohini ilm izlashga qaratgan inson hech qachon qarimaydi va hattoki ular yuziga ajin tushganda ham sochi oqarganda ham, qalbi va harakteri takomillashadi, rivojlanadi. O'qituvchi nafaqat ilmiy ta'limga ega bo'lmog'i, balki ma'naviy rivojlanish bilan ajralib turishi kerak. Har bir ma'naviyati yuksak insonga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga ham taalluqli, eng avvalo, o'qituvchidan yoshlarga nisbatan mehr-muhabbat va ishonch bo'lishi kerak, kimda bu tuyg'ular bo'lmasa, o'qituvchilik kasbidan yiroqroq bo'lishi kerak. Chinakkam ishonch va mehr-muhabbat yo'q joyda tez orada ishonchsizlik va insonlarga salbiy oqibat paydo bo'ladi. Ishonqiramaslik o'qituvchining eng katta salbiy xususiyati bo'lib

qolishi mumkin. Kimki o‘z o‘quvchilarini yomon deb hisoblasa, tez orada ularni chindan ham yomon bo‘lishiga olib keladi. Undan ko‘ra ular o‘zlarini yomon k‘rsatmaguncha, ularni ma’naviyatli va yaxshi hisoblagan ma‘qul; ana o‘shanda o‘quvchilar yaxshi bo‘lib boradilar. Hayotga ochiq-oydin qarash va sog‘lom tafakkur esli-hushli o‘qituvchilarni haddan tashqari ishonchszilikdan saqlaydi. Asosan o‘qituvchi masxara qilishdan, kulish va eroniya va achchiq kinoyadan saqlanishi lozim. Bularni natijasida ochiq yoki yashirin qarshilik va qaysarlik xususiyatlari paydo bo‘lishi mumkin. Qattiqqo‘llikdan ham saqlanish kerak. Chunki uning natijasi qo‘rquvdir.

Mehr-muhabbat, ishonchga yetishishi uchun inson hech qachon sohta usullarni qo‘llamasligi kerak. Oddiy qat’iyatli kerak bo‘lganda, ojizlik va yonbosishga o‘rin bo‘lmasligi kerak. O‘quvchilar orasida sohta obro‘ga ega bo‘lishga intiluvchi o‘qituvchi, oqituvchi nomiga noloyiq. Ayniqsa u bu mashhurlikka boshqa o‘qituvchilar man etgan narsalarga ruxsat berib erishmoqchi bo‘lsa. Demakki, o‘quvchilar orasida qiymati past maqtovga sazovor bo‘lish niyati o‘qituvchini umumiy instizom va mактабдаги ijtimoiy o‘zgarishlarga ijobiy ruhga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Ammo eng yomoni, o‘quvchilarni ularga bo‘lgan munosabat va mehrimizni samimiyligiga haddan tashqari doimiy ishontirishdir. O‘quvchilar, ayniqsa ular yuqori sinfda o‘qishsa, bunday hissiyotlarga kam ishonishadi; biz o‘z tuyg‘ularimizni chiroyli so‘zlar bilan emas, amaldagi ishlar bilan isbotlashimiz kerak. Aniq, mehr-muhabbatga to‘la so‘zlar o‘qituvchiga nisbatan ishonch tug‘diradi. Qattiqqo‘llikdan jonsarak bo‘lib qolgan bolani harakatga undashda mehr-muhabbatga to‘la so‘zlar ishlatish joizdir. Ammo bunday so‘zlarni yakkama-yakka o‘quvchiga gapirish

ma'qul, bu so'zlarni sinf ichida gapirish noqulay, yakka holda gapirilgan so'z ko'proq e'tiborga va kuchga ega bo'ladi.


Ishonch va mehrga to'g'ri keladigan boshqa hislat bu — chidamlilik (matonat, sabr toqat). O'z yantuqlarini ko'raman deb shoshqaloqlik qilgan o'qituvchi asta-sekinlik bilan kelayotgan natijalarga nisbatan sabrsiz vaqt-bevaqt achchiqlanadigan, o'zini sovuqqon tutishi kerak bo'lgan joyda shoshqaloqligi bilan ishni natijalarini ijobjiy tarafdan salbiylikka burib yuboradi. Sinfda har xil iqtidorga ega o'quvchilar o'qigani uchun ularga o'qituvchi turli xil uslub qo'llashi, yondashishi kerak, buning uchun esa o'qituvchi matonatli bo'lishi shart. Matonat kerakli yondashuv orqali qoloq o'quvchilarga ta'lif berishda kerakli yo'l topishda va maqsadga aniq, charchamasdan yetishishda katta yordam bo'ladi. Nafaqat san'at va fanga tayangan holda, balki matonat yordamida harakat qilishi kerak. Asta-sekinlik bilan erishilayotgan yantuqlar o'qituvchida norozilik, qaysarlik, so'kish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi, aslida aynan ma'nisiz, salbiy holatga ortiqcha gap-so'z ketadigan vaqtini sabr-toqat bilan ish foydasiga ishlatsa kutilgan natijalardan ziyodaroq ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Zudlik bilan yetishib bo'lmaydigan narsalarga asta-sekin erishish mumkin. Vaqt kelib o'quvchi harakat qilaboshlaydi, shu bilan birga tushunchalar ham paydo bo'ladi. O'quvchiga bugun tushuntirib bo'lmanган narsani ertaga tushuntirish mumkin, faqat buning uchun qulay fursat tanlanmog'i lozim. Huddi aql kabi matonat keyinchalik paydo bo'ladi. Faqat tabiatan bunday hislatlarga ega bo'lgan insongina o'z qalbida yoshlarga bo'lgan muhabbatni asrab, ularga nisbatan sabr-toqatli bo'ladir.

Ong va muhabbat iroda bilan chambarchas bog'liqligida o'qituvchida adolatparvarlik, holisonalik harakatlarda bosqichma-bosqichlikda paydo bo'lishiga olib keladi. Iqtidoriga va javoblariga yarasha baholash o'quvchini xulqi, turish-turmushi, ijtimoiy (moddiy) pog'onasiga (kelib chiqishiga) e'tibor bermaslik, yoqtirish va yoqtirmaslik, adolatni o'z qo'lida tutish, bugun o'tgan safar indamagan hodisalar uchun jazolash, kichik va katta ishlarda bir xil bo'lish katta ahamiyatga egadir. Adolatsizlik, holisona bo'lmaslik ko'p yomonliklarga olib keladi. O'qituvchida, u yosh yoki qarimi, mug'ombirlik bo'lmasligi kerak. Ammo oddiy hayotda yengil mug'ombirlik hisoblangan va jamiyat tarafidan kechiriladigan hodisa hamda harakattlar maktab hayotida "ilmiy yolg'onchilik" (mug'ombirlik) deb ataladi va hech qanday pedagogika uni kechirmaydi. O'qituvchi biron narsani bilmagan holda biladiganday turmasligi kerak. Chunki barcha narsani o'zi bo'lmaydi. O'qituvchi bilmagan, esidan chiqarib qo'ygan holda ro'y-rost tan olishi, "men tirik ma'lumotlar kitobi emasman", deyishi kerak. Hattoki o'qituvchi o'zini eng dono va o'ta aqlli qilib ko'rsatmasligi lozim. Shunda haqgo'y bo'lib u ko'proq natijalarga erishadi. Bilimi yuksak inson ham Sugrot so'zлari bilan aytganda: "bilmaslik g'ururini" his qilganida ham bu g'urur uni yolg'on takabburlikdan asraydi va unga kamtarlik bahshida etadi.

Va yana o'qituvchini ijobiy hislatlaridan biri o'zini tuta bilsizlikdir. O'zini tuta bilmaslik ko'p salbiy hislatlarni paydo bo'lishiga olib keladi. Bular: jahl, umidsizlik, xafagarchilik, urishqoqlik va boshqa hissiyotlar. Umuman, ranjimaslikni iloji yo'q, ammo bu tuyg'u odatiy bo'lib qolib, doimiy kayfiyatga aylanib qolmasligiga intilish lozim. Har qanday mayda-chuydadan jahl qilmaslik kerak, ammo bunda ham jahl o'z o'mida paydo

bo'lishi lozim (ya'ni jahl ham o'z o'tniga va vaqtiga ega). Iloji boricha jahl ongli ravishda tez kuchlanish bilan paydo bo'lmog'i kerak, jahl uzu-kun, doimiy va uzuliksiz bo'lib qolmasin, shu bilan birga jahl ustida biron bir chora tadbir, o'quvchiga nisbatan ishlatilmasligi lozim, chunki jahl kelganda aql ketadi degan naql to'gri. Maktabda tushkunlikka berilmaslikning ham iloji yo'q, ammo bu tuyg'uni iloji boricha yengmoq kerak. Buning uchun eng ajoyib usul bu o'z vaqtida xushvaqtlik va kulgudir. O'z kasbi-koriga nisbatan a'lo munosabatni ko'pchilikda uchratish mumkin, ammo kulgu kam uchraydigan fazilat. Ammo aynan kulgi ajoyib, qo'zg'atuvchi kuchga ega va bu fazilat insonda chinakkam insoniy fazilatlarni, o'qituvchi va o'quvchi orasida yaxshi munosabatlarni saqlab qolishda muhim omildir.

Kulgu va xushkayfiyat ko'pchilik maktabda unchalik e'tibor berilmaydigan omillardir. Aslida bu fazilatlarni mustahkamlab, biz biron bir narsani yo'qotmaymiz, ishlarimizni tezlashishi aynan shu fazilatlarga bog'liqdir. Agarda kulgu va odob bo'lsa, biz barcha narsalarga qodir insonlarga aylanamiz. O'quvchilar xushkayfiyat o'qituvchini gapiga ko'proq qulqoq solib unga bog'lanib qolishadi. Chunki xushkayfiyat aynan yoshlarga xos fazilatdir. Bunday kayfiyat ustun bo'lgan onda biron-bir jiddiy gap va ohang alohida kuchga ega bo'ladi. Yana bir xususiyatni esdan chiqarmaslik lozim. O'qituvchi va o'quvchi har xil rivojlanish pog'onalarida turadilar va o'quvchi harchan urinmasin u o'z qo'polligi bilan o'qituvchini xafa qilolmaydi, chunki o'qituvchini u (bu so'zni yaxshi ma'nosida) sho'h bolalar bilan ishlayotgani yodida turadi. Bolalar endi rivojlanishyapti va ularni tarbiyasi o'qituvchining qo'lida. Agar o'qituvchi o'zini doimo xafa va kansitiladiganday sezadigan bo'lsa, bu o'ziga



bo'lgan bahoni pastligini bildiradi. Va hattoki, o'quvchi o'qituvchini ustidan kulganda ham, bu axir dahshatli jinoyat emas. O'qituvchiga laqab ham qo'yishlari mumkin. Biz ham laqab qo'yar edik-ku? Unda nima qilishimiz lozim? Xotirjamgina sinf doskasiga yozilgan yoki chizilgan so'zni o'chirishni buyurishimiz mumkin. Faqat bundan fojia, voqeа, jinoiy ish qidirmasligimiz lozim. Kimki tez xafagarchilikka berilsa u tez jahllanadi, kimki tez jahlga berilsa uni o'quvchilar shuncha ko'p mazah qiladilar. Jahl va qiziqonlik ko'pincha o'quvchilarni harakatlarini noto'g'ri tushunganimizdan kelib chiqadi. Agarda o'qituvchi bu salbiy hissiyotlardan qutulmoqchi bo'lsa u o'quvchilarini xatolarida, noto'g'ri harakat va mazahlarida hamda sho'xliklarida faqat ongsilikni, tajribasizlikni bolalikka xos yengiltaklikni va yosh aqlni nomukammallikligini ko'rishi kerak. Ayniqsa bolaga uni uyida berilgan tarbiyasini, temperamentini, barcha tuyg'ulariga va istaklariga ko'rsatadigan tarbiyasini inobatga olmog'imiz kerak. Qachonlardir biz ham yosh bo'lganmiz. Hozirda yomon tarbiya, dangasalik, axloqsizlik, intizomsizlik deb bilgan narsalarimizni biz ham yoshlikda qilganmiz. Shuning uchun bu hatti harakatlarga jahl bilan emas, sabr-matonat bilan javob berish kerak, asta-sekin yoshlar aqlam xotirjam bo'ladi. Bundan tashqari jahl o'zi bilan yuz-ko'zni beo'xshov harakatlarini olib yuradi, bu esa, insonni hunuk va qo'pol qilib ko'rsatadi, shuning ham jahlni farqlash lozim. Ammo o'z vaqtida keltirilgan oliyjanob jahl o'qituvchiga nisbatan o'quvchida hurmat tuyg'usini vujudga keltiradi, agarda bu g'azab ma'naviy yuksak tuyg'ulardan kelib chiqib yomon xulq va ma'naviyatsizlik, ahloqsizlikga qarshi qaratilgan bo'lsa. O'qituvchi o'z g'azabini me'yorini bilmog'i shart, agarda bu me'yordan chiqib ketsa u o'zini ayblamog'i, keyinchalik bu xatolarni qaytarilmaslikka harakat

qilmog'i lozim. Biz bunday harakatni qanchalik ko'p bajarsak, shunchalik kam xato qilamiz va xotirjamlikdan qoniqamiz. Bu hislatlarni mustahkamlab, suyab turadigan yana bir hislat haqida aytib o'tmoqchimiz.

Yuqorida biz o'qituvchini aqliy va ma'naviy hislatlari haqida so'z yuridik, ammo bu bilan amaliy pedagogikani o'qituvchiga qo'yadigan talablari nihoyasiga yetmaydi. Ijtimoiy hayot va estetika talab qilgan hislatlar ham mavjud. Bu hislatlar qanchalik kerak bo'lsa, shunchalik ham kamyobdir. Biz qisqacha qilib bularni pedagogik takt deya ataymiz, takt nafaqat ma'naviy va aqliy rivojlanish asosida, balki nozik tuyg'u, nazorat asosida vujudga kelmog'i lozim. Birortasini, uni takti yo'qligida ayblash ancha mushkul, chunki bunga doim isbotlar yetishmasligi aniq va unda gap ham o'z ta'sir kuchini yo'qotishi mumkin. To'g'ri rivojlangan hissiyotlar, yaxshi tarbiyada va o'zini tarbiyalashga asoslangandagina o'z ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Birontasini me'yor, takt yo'qligida ayblash, unga bu haqida hech bo'lmagan piching qilish behuda, chunki takt, me'yor va nozikligi bo'lмагan inson bu pichinglarni tushunmaydi. Aslida aynan o'rta maktabda odob va taktni asrash lozim, bu yoshlarga buyuk donolik va ma'naviy yetuklikdan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Takt bu aslini olganda psixologik tushunishdir. Takt tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin hamda yaxshi odob-axloq yordamida takt rivojlanishini mumkin. Taktda asosiy narsa bu – barcha ro'yo bilan bog'liq holat va munosabatlarni tushuna oliblik. O'qituvchi barcha narsalarni taroziga solishi, nozik sezgirlikka ega bo'lishi, o'quvchini undovchi sabab va tuyg'ularida ichki turkilarida ehtiyyotkorlikka ega bo'lmog'i kerak. Mana shu pedagogik fazilatlar takt tushunchasiga kiradi.

Takt so‘zini fahm-farosat deb tarjima qilishimiz mumkin.

Ko‘pincha ayrim o‘qituvchilar sinfni intizomda ushlab turolmaydilar. Bu o‘qituvchilarga eng asosiy fazilat yetishmaydi, ular sinfni boshqarishni va sinf e’tiborlarini darsga qaratishni bilishmaydilar. Fahm-farosat, o‘qituvchida nozik kuzatuvchanlik va o‘quvchini baholashi, darsdan rohatlanish va quvonch tuy’gulari bilan birlashib ketganda paydo bo‘ladi.

Yoqimsiz tuyg‘ular dangasalik, qo‘pollik, buzuqchilik va insonni qadr-qiymatini yerga uradigan boshqa hoatlarda qo‘llanmog‘i kerak. Maktabda farosat sinfni boshqarishda harbiy, qo‘pol ohangni emas muloyim, hayrixoh sertakalluflik ohanglarini ishlatilishini taqozo etadi. Fahm-farosat maqtanchoqlik va qaysarlikda o‘z ifodasini topolmaydi, ammo u yolg‘on kamtarlik va ikkiyuzlamachilikdan ham uzoq bo‘lishi kerak. Farosatli inson ko‘proq o‘zi haqida ko‘pdan ko‘ra kam gapiradi, g‘urur va xushmuomalalikda o‘rtani topib, o‘ziga va o‘z tashabbusiga na kam, na haddan tashqari yuqori baho beradi.

Farosatli o‘qituvchi hazil va kulguni o‘z vaqtida, qulay fursatda ishlatmog‘i kerak. Didi rivojlangan, yaxshi harakterga ega o‘qituvchi qosh-qovog‘idan qor yog‘iladigan, tund har onda o‘zini yomon xususiyatlarini – qo‘polliligini ko‘rsatadigan o‘qituvchiga nisbatan ko‘proq ijobiy yutuqlarga erishadi.

Faqat ma’naviy yo‘nalishga va katta bilimlarga ega inson, hattoki ular bir xil va barobar mutanosiblikda bo‘lganda ham, har xil tur hamda ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. Eng ajoyib, go‘zal natijalarga erishilgan joylarda, biz farosatli o‘qituvchini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda ko‘p narsalar jipslashib ketganini ko‘ramiz. Bilim, ma’naviyat estetika va odob jipslashgan, shu bilan birga irodali o‘qituvchi qat’ly

pedagogik fahm-farosatga (taktga) ega bo'lgan deyishimiz mumkin. Bu o'qituvchi sharoit, o'zgaruvchan ehtiyojlarga va hattoki bilimlarga ko'ngil qo'ymasdan ularni jilovlab boshqaradi. Bu munosabat unga tayanch rolini o'ynaydi, ammo uning tashabbusiga asos bo'lolmaydi. Bu tayanch va tushuncha bilan pedagog hech qanday biror-bir ahamiyatga ega, jiddiy, bahosi yuqori, rivojlanishiga loyiq narsani buzmaydi.

Shunga o'xshash qoida va talabalarni Lazarus das Leben der Seele o'z kitobida yaxshi tasvirlangan: 1) o'quvchi o'qituvchiga salom bersa, salomlashishi lozim; 2) o'qituvchi oyog'ini oyoq ustiga tashlab o'tirmasligi kerak; 3) u kafedraga suyanmasligi kerak; 4) o'quvchilar o'qituvchi bilan qo'llarini cho'ntakka solmasdan, o'qituvchi ham huddi shunday suhbatlashishlari lozim; 5) o'qituvchi zinhor-bazinhor kechga qolmasligi, sinfdan oxiri bo'lib chiqishi lozim; 6) o'qituvchi bosh kiyimda o'tirmasligi lozim, buni bolalarga ham ruxsat bermaslik kerak. Bu qoidalar o'z-o'zidan kelib chiqadigan va tabiiydir, ammo ko'pincha aynan shu mayda tafsilotlarga o'qituvchi kerakligicha (yetarli) e'tibor bermaydi. Bu esa intizomni buzilishiga olib keladi. O'qituvchi IX-X-XI sinf o'quvchilari bilan katta odamlar bilan suhbatlashganday subbatlashishi, IV-V sinflar bilan esa ular hali ham bolaligini, sho'xliklarini esdan chiqarmasdan suhbatlashishmog'i kerakligini esdan chiqarmasligi lozim.

O'qituvchi lavozimining xususiyatlari. Hamjihatlikda ish tutsih. O'qituvchini jamiyatda tutgan o'rni.

Har bir lavozim kabi, o'qituvchi lavozimi shaxsga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lavozimni o'ziga xos xususiyatlari rasmiy qonun-qoida va ko'rsatmalarni natijalariga bog'liq emas. Ayrim o'qituvchilar o'z ishi, bajarayotgan vazifasiga butun o'zini bag'ishlaydi,

ayrimlari esa o'qituvchi lavozimi beradigan hurmat-ehtiromga va davlat tomonidan beriladigan ayrim imtiyozlarga uchadilar. Albatta ikkinchi toifa o'qituvchilardan ko'ra birinchi toifa o'qituvchilar ko'proq hurmatga ega bo'ladilar.

Amaliy pedagogika bilan o'qituvchilik ishini boshlashdanoq, lavozimga kirib kelish bilanoq shug'ullanish zarur. Pedagogik mas'uliyat va rasmiy qo'llanmalar bilan o'qituvchi bo'lmoqchi bo'lgan nomzod tanishmog'i lozim. Amaliy pedagogikada boshqa majburiyatlar haqida ham gap ketadi: kasbi-kori yuklagan vazifalarni mayda-chuydasigacha to'g'ri bajarish, aynan shu mas'uliyat eng katta ijobiy natijalarni beradi. Agar o'qituvchi ushbu majburiyatlarni bajarishdan qochadigan bo'lsa, o'zidan soqit qiladigan bo'lsa u o'qituvchi emas yollanma ishchiga aylanib qoladi. Kimki o'z ishini rabbarni buyrug'i bilan bajarar ekan u chinakam g'urur va san'atga egalik qilolmaydi; inson uchun lavozim-rohat, mas'uliyat va majburiyatları esa, tabiiy intilishdir; bunday inson o'z ishini mas'uliyatidan nolimasdan, o'zining imon-ihтиyori bilan barchasini boricha qabul qiladi. Kimki shu tarzda o'z ishini bajarar ekan, uning uchun lavozim o'z harakterini rivojlantirish, ichki ehtiyojni qondirish va baxt kaliti bo'lib qoladi.

Lavozim bilan bamaslahat ish ko'rish, kollegiallik(hamjihatlik) chambarchas bog'liq, bu faqat bitta joyda birga o'tirish emas, balki ichki, ruhiy bog'liqlikdir. Bu hislatga binoan biz o'zimizni mакtabda ishlaydigan har bir kasbdoshimizga o'zimizni yaqin his qilamiz. Qisqacha kollegiallik biz o'zimizni boshqalar bilan bir tuyg'u bilan, bog'liqligimizdir. Kollegiallik bu ota-onalar yoki o'quvchilarni boshqa o'qituvchini yomonlashlarini tinglash ham, sinfni kasbdoshidan qabul qilib olib

bilimlardagi va intizomdagi kamchiliklarni o‘z kasbdoshiga ag‘darish ham, kasbdoshning xatolarini nazarda tutib, men yaxshiroqman deyish ham emas. O‘z fanini boshqa fanlardan ustun qo‘yadigan inson ham sherikchilik tuyg‘usiga begonadir. Hattoki bo‘lib beriladigan soatlar, biz o‘quvchilarga qo‘yadigan uy vazifalarini ma’suliyati bo‘yicha fanlar birinchi va ikkinchi darajaliklarga bo‘linadi. Ammo yaxshi o‘tib berilgan dars kerak, bo‘lsa tabir joiz bo‘lsa, boshqa fanlardan berilgan darslardan ustun bo‘lishi mumkin. Bahamjihatlikga to‘sinq bo‘ladigan yana bir narsa yana bir xususiyat bor, bu endigina o‘qishdan chiqqan bilimlari ham yangi bo‘lgan yosh o‘qituvchilarni katta yoshdagagi o‘qituvchilarga nisbatan mensimaslikdir. Ammo katta o‘qituvchilar balki o‘sha fanni kerakligicha va hattoki ortig‘i bilan bilishlari mumkin. Faqat ular bu bilimlarini ko‘z-ko‘z qilishdan o‘zlarini muhofazalaydilar, bu bilan katta o‘qituvchilar kasbdagi barcha yangiliklar yaxshi bo‘lavermaydi degan o‘yni o‘ylashadi. Sinfni jimjitlikda ushlab, qattiq intizom o‘rnatgan, boshlang‘ich bilimlarni o‘zicha yaxshi o‘tib qo‘ygan o‘qituvchilar bu bilan g‘ururlanmasinlik kerak, chunki intizomga kamtarlik bilan ham yetishish mumkin. Agar sinfdagi intizom qo‘riqitish bilan erishilgan bo‘lsa, bu foydadan ko‘ra ko‘proq ziyon keltiradi, chunki qo‘rquv boshqa ruhiy talpinishlarni so‘ndirib, o‘qishni majburiyatga aylantirib qo‘yadi. Ayrim hollarda esa, aksincha katta o‘qituvchilar kichik o‘qituvchilarga nisbatan mensimasliklari kuzatiladi, bi holda o‘sha o‘qituvchilar o‘zlarini ham shunday ahvolda bo‘lishliklarini va ularga nisbatan katta o‘qituvchilarni munosabati qanday ta’sir ko‘rsatganini eslab ko‘rishsinlar. Agar bunday xayol ularni qalbida kechamsa hech bo‘lmasa ongi bilan bu haqiqatga yetib borishsinlar.

Maktab rahbarlari ham o'ziga nisbatan ishlatalgan bunday oqibatga eroniya, hazil-mutoyiba aralash qarab ko'nikib ketmog'i, animo omma oldiga bunday erk berishni chetlab o'tmog'i lozim. Chunki bunday munosabatlar xismat doirasidan chetga chiqib ketadi.

Lavozim, jamiyatdagi o'qituvchining o'rni va bu yerdan kelib ehtiqaqidigan kasbiy g'urur bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Afsuski o'qituvchilar kasbiga mansub insonlar har doim ham o'zga ba'zi kasblarday obro'li bo'lishmaydi. Ko'pchilik olimlar ham hanuz bunday soxta holat haqida munozaralar olib borishmoqda. Aslida bu achinarli hol, o'qituvchilik kasbini tarixiy rivojlanishiga bog'liq. Insonlar ko'pincha tashqi nufuz, obro' timsollariga ruju qo'yishgan. Tarixda hatto buyuk xukumdorlar ham, o'zлari xukumdor bo'lishiga qaramasdan, obro' timsollariga ruju qo'yishgan insonlar fikriga qarshi lavozim haqida fikrlar bildirgan. Masalan, qirol Vilgelm: "Lavozimni nufuzi uni olib yurgan insonlarni fazilatiga, chinakam insonligiga qarab emas, davlat bu lavozimga bergen imtiyozlari, hayrixohligi bilan o'chanadi", – degan edi. Haqiqatan ham lavozimni ziynat, obro' sifatida emas, o'ziga qo'yilgan ma'suliyat deb qarash lozim. Qoidaga muvofiq ota-onalar o'z farzandlariga rahbarlik qiladilar, bu ularni qo'lidan keladimi-kelmaydimi baribir. afsuski o'qituvchilik kasbini ham faqat yuzaki nufuz, obro', moddiy boylik bilan baholaydigan kishilar hozir ham kam emas.

Amaliy pedagogikani vazifasi ayrim yakka shaxs nima qilaolishiga e'tiborini qaratish, aynan o'z ishini a'lo bajargan inson chinakam hurmatga, o'zini qadrlashga o'rganadi. Amaliy pedagogika kasbiy yutuqlarga e'tibor berib, kasbiy kamchiliklarga qarshidir. Bir kamchilik o'qituchilik kasbini sevimli qilib ko'rsatadi, bu ham bo'lsa, o'qituvchini

kamtarligi, manmansi...usligi, xushmuomjaligidi, ularda kasbiy kibr-havo, takabburlik yo'q. Ammo bu so'z haq-huquqlaridan kechib qo'yish degani emas, hattoki haqiqatni har qanday holatda goh qo'pol. gohida odob bilan aytish mumkin. Kasbdoshlari bilan doimiy munosabatlar o'zga kasb egalari bilan kam aloqador bo'lish o'qituvchilarni chegaralab qo'yadi. Yana bir narsani yodimizda saqlashimiz lozim: to'xtovsiz ayrim toifa kishilarni maqtash hech qachon insoniy natijalarga olib kelmagan, hattoki bu toyisaga mansub shaxslar boshqalardan kiyim-kechak va tashqi zeb-ziynati bilan ajralib turgan bo'lsa ham. Hozirda o'zicha uyalib qo'lida kitob olib yurmaydigan o'qituvchilarni ko'ramiz, aslida kitob bu o'qituvchini doimiy ashysosi va timsolidir. O'z ishi bilan kamtarona g'ururlanish bugun va keyinchalik kasbiy g'ururni rivojlantiradigan omilga aylanadi.

O'qituvchini obro'si o'quvchiga beradigan buyruqlari va majburlashlari bilan beligilanmaydi, o'qituvchini nufuzi o'quvchi tomonidan uni tarbiyasini, yuqori bilimlarini, saviyasini so'zsiz, buyruqsiz anglab yetishidadir. Chinakam obro' o'qituvchi shaxsini o'ziga bog'liq. Shaxs bu yaxshi fazilatlar egasidir. O'qituvchini obro'si o'qituvchi o'z oldiga aniq, sof va aqli maqsad qo'yib bu maqsadga erishishda o'zini fido qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchini o'z maqsadlariga yetishmoq niyatida hech nimadan qaytmasliklarini tushunishlari kerak. Biz o'qituvchilar kamtar, taodob, va ularga nisbatan mehr-muhabbatlil bo'lmog'imiz, o'z xotirjamligimiz bilan ajralib turishimiz kerak. Bu hissiyotlarni balandparvoz gaplar bilan ziynatlashni keragi yo'q. Bundan tashqari biz toza aql va harakterga, yaxshi bilimga, aniq dunyoqarashga, qat'iy asosiangan ishonchga (e'tiqodga), barcha ajoyib va yaxshi

narsalarga nisbatan iliqlik va o'ziga xos qarashlar bilan ajralib turishimiz kerak. Obro'li bo'lish uchun ko'p gap-so'z va buyruqlar kerak emas. Biz o'z maqsadimiz yo'lida xotirjam ketaverishimiz mumkin, chunki obro'-e'tibor asta-sekin ta'sir qiluvchi kuchdir, uni borligini, sizda mujassamligini o'quvchilarni o'zları sezadi.

Nazorat uchun savollar

1. Amaliv nedagogika fani qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Amaliy pedagogika fanining predmeti nima?
3. Amaliy pedagogikada shaxs masalasi qanday o'rinni egallaydi?
4. Kasb ideallari deganda nimani tushunasiz?
5. Ilmiy bilimlarni o'qituvchi faoliyatidagi o'rni qanday?
6. O'qituvchining ijobiy sifatlariga nimalar kiradi?
7. O'qituvchini jamiyatda tutgan o'mi.
8. O'qituvchi odobi nima?

2-bob. O‘quv materillarini ishlab chiqish

I-§. O‘qituvchining uslubiyotga nisbatan munosabati

Ushbu faslda o‘qituvchining uslubiyotga nisbatan munosabati, uslubni to‘g‘ri qo‘llash, uslub ta’limda sezilmog‘i lozimligi, uslub va umumiyligi maktab, uslubni ta’lim san’atida qo‘llash kabi masalalar haqida to‘xtalamiz.

Uslub bu – tamoyil va ma’lum qoidalar asosida ishlab chiqilgan, puxta o‘ylangan ta’lim berish usullaridir.

Birinchi navbatda biz uslub atamasini noto‘g‘ri tushunmasligimiz lozim. Uslub bu umumiyligi qoidalar va ko‘rsatmalar majmui emas. Hech qaysi yozma manbalar, qonun-qoyidalar o‘qituvchiga yakkaxon hokim bo‘lib qolmasligi lozim, ta’lim uslublari bizga yo‘ldosh, do‘sst sifatida qo‘l kelmog‘i kerak. Bunda o‘qituvchi do‘sstini ko‘rsatmalariga jon dilidan quloq solib, kerakli vaziyatda o‘z e’tiqod va ishongan qoyidalarini o‘zgartira olishi kerak. Hammabop uslubni o‘zi yo‘q, ammo har bir holat uchun ko‘rsatma bo‘ladigan harakatlar to‘plami mavjud.

O‘qituvchi o‘z-o‘ziga quyidagi savollarni bermog‘i lozim: o‘quvchilarga kerakli bilimlarni berish uchun o‘tgan darslardagi nimadan foydalansam bo‘ladi? Yangi mavzuni qanday qilib yaxshi tushuntirish mumkin? Bularni qaysi holatda gapirib berishim, darsni qaysi qismida qanday iboralarni ishlatishimiz ma‘qul? Yangi mavzuni tushuntirish uchun boshqa fanlardan nimani qo‘llash mumkin? O‘qituvchi o‘ziga ushbu savollarni ilmiy, aniq qo‘yadigan bo‘lsa u shunchalik uslubni bosqichlarini, rivojlanishini chuqurroq anglab yetadi. Bu esa, o‘z-o‘zidan ravshanki, ijobjiy natijalarga olib keladi. Hech qanday nazariya amaliyotni

barcha savollariga tog'ri javob berolmaydi. Agar o'qituvchi hozirgi dars ehtiyoj va talblarini inobatga olib ish ko'radigan bo'lsa, har qanday darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadga qadamba-qadam erishishga intilsa bu foydadan holi bo'lmas edi.

Shu bilan birga me'yorni ham saqlash lozim. Haddan tashqari murakkab ta'lim uslublari bilan bir soatda beriladigan mavzuga 5-6 kun yoki haftalik yangi bilimlarni tiqishtirmaslik kerak. Bu o'quvchilarni toliqtirib, haddan tashqari ko'p zo'riqishdan asrab qoladi. Haddan tashqari sun'iylikdan qochmoq kerak.

Dars bilan bog'liq bo'limgan narsalarni tushuntirmaslik va gapirmaslik kerak. Keyinchalik, asta-sekin o'zi paydo bo'ladigan bilimlarni vaqtidan avval majburiy o'tkazmaslik lozim.

O'quvchilar ko'p holda kuchli uslub qo'llanishiga muhtoj emaslar, chunki bunday uslublarni qo'llash o'quvchini mustaqilligini, ko'p narsalarni yengib o'tishga qodir ishtiyoyqini susaytirib qo'yadi. Kimki ko'p o'ylansa u kam narsa qilib bera oladi, ammo kam o'ylangan inson hech nima qilib bermasligi ham mumkindir. Shuning uchun ham o'quv qo'llanmalarda kerakli ta'limni olishadi deya ishongan insonlar bilan hamfikr bo'lish qiyin. Aslida ta'limni quvvati va ta'sir o'tkazuvchi kuchi hech qachon va hech qayerda qo'pol o'quv materialida mujassamlashmagan. Ko'p hollarda yosh o'qituvchi o'qishdan dars berishga tayyor holda chiqadi deb hato fikrlaymiz. Aslida aynan shu olgan ta'lim o'zini goh umumiy, goh chetga yo'naltirib maktab olamiga mos tushmaydi. O'qishda olim bo'lish, diplomda faqat a'lo baholarga ega bo'lish mumkin, ammo shunda ham yomon alomatga va pedagog nomiga egalik qilish mumkin. Ko'pincha yosh o'qituvchi yutuqlardan ko'ra

hatolarni ko‘proq qiladi. Buning oldini olish uchun yosh muallimga ta’limni mayda tushunchasigacha yaxshi va puxta uqtirish kerak. Shuning uchun ham amaliy pedagogikani uslub tushunchasiga ta’limni barcha mayda unsuru-usullari, barcha pedagogik va didaktik usullar kiradi. Yosh o‘qituvchi dangasalik, soxta ozodlik tuyg‘usiga berilmasdan, tamoyillarni mensimay harakat qilmasligi lozim.

O‘z uslubini tanlayotib o‘qituvchi o‘zini yagona muallimlik jamiyatiga a’zoligini unutmasligi shart. Shuning uchun o‘qituvchi nafaqat o‘z maqsadini ko‘zlab ish ko‘rmay, balki xuddi shunday maqsadlar o‘zgalarda ham borligini unutmasligi kerak. Ayrim o‘qituvchilar bir tomonlama ta’lim-tarbiya ko‘rishgan bo‘lsalar, tez orada faqat o‘z maqsadlari va fanini eng yuqori o‘ringa qo‘ya boshlaydilar. Maktabni umumiy oldiga qo‘yilgan maqsadini yengillashtirishni o‘rniga, o‘qituvchi o‘zini soxta olimligi bilan o‘z o‘quvchilarini qiyab qo‘yadi. U o‘z talablari me’yorini to‘g‘ri o‘lchamydidi. O‘qituvchini maktab bilan uslubiy aloqasini yuqori yoki past darajasi, o‘qituvchini o‘z fanidan g‘ururlanishiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ko‘p sonli bo‘lishi bizga tashqi uslublardan foydalanishni emas, uslubni anglab qo‘llashni taqoza etadi. Ko‘p sonli o‘quvchi ommasiga ta’lim tarbiya berish, chuqur anglab, tushunib qabul qilish usullari o‘rniga, mexanik o‘qitish, ko‘plab tashqi yuzaki ta’lim berish uslublarini kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda zamонавиyy texnika visitalari yordamida nazorat qilsa bo‘ladigan yo‘l va usullar kirib kelmoqda. Bunday usullarni ishlab chiqishda pedagogika fanining qonuniyatlarni anglab yetish, ularni nazorat qilish vositalariga kiritish, imkoniyat darajasida nazoratni tabiiy shaklda o‘tkazishga erishish lozim.

O'qituvchilar uslubni qo'lashlariga qarab uch xilga bo'linadilar. Birlari uslubni ongsiz qabul qiladilar; ular tug'ma o'qituvchi va tarbiyachilardir; ular to'g'ri yo'lni topishib, tanlagan usullarini to'g'ri noto'g'riliqiga asos va dalil izlamaydilar. Ular uchun o'qituvchining shaxsiy fazilatlari birinchi o'rinda turadi.

Ikkinchilari uslubni yuzaki qo'llaydilar. Uslubga nisbatan oqibatlari chala (yarim ongli), tashqi ko'rinish ular uchun bu hamma narsa, uslubni ichki asoslari ular uchun baribir. Ular o'zlariga ko'rsatilgan, o'zgalarda ko'rishgan nusxaga qarab ish tutadilar, ammo bu uslubni ahamiyati, maqsadga muvofiqligi haqida bosh qotirmaydilar. Ular o'zlarini aqlii inson qilib ko'rsatishni yoqtiradilar, ammo bunday atalishga ularni hech qanday haq-huquqlari yo'q. Tashqi (yuzaki) uslubni qo'llash ularni chegaralab, qo'llariga kishan bo'lib barcha harakatlariga halal berib turadi.

Uchinchilar, bular uslubga ongli yondashadigan insonlar toifasi. Ilmiy batafsillikni ular uslubiy yetuklik bilan chambarchas bog'lashga, jipsalashtirishga urunadilar. Bu o'qituvchilar toifasi shaxsning qadr-qimmatini va ahamiyatini yuqori baholaydilar, ammo ular shaxsga yetarlicha yuqori baho berib, ayrim kichik narsalarga ahamiyat berishmaydi, chunki shaxsni chegaralangan bir taraflamaligini anglab turadilar. Ular uslubni ham yuqori baholab, uning ba'zi tomonlariga yetarli darajada baho bermaydilar, chunki utsub o'z ortidan ko'nikma qaramlik, kishan olib yurishini juda yaxshi biladilar va uslub chegarasidan chiqmagan holda erkin harakat qiladilar. Biz bunday o'qituvchilarda eski uslublarni, eski iboralarni, andoza uslublarni uchratmaymiz. Ular o'zlarini shaxsiy fazilat va uslublarini yuqori pedagogik san'at darajasiga yetkazish niyatida bo'ladilar. Ular o'z ustilarida ishlaydilar, uslubga yon bosib,

zamonaviy pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga harakat qiladilar. Ularni ishi, o'z faoliyatlarini nihoyalaganlardan so'ng tugaydi. Yangi ish boshlagan o'qituvchi yuqoridagi uch tur vakillarga o'xshashni odad qilib olishlari kerak.

2-§. Darslarga tayyorgarlik va dars

O'quv materialini yaxshi o'qitish uchun avvalo puxta tayyorgarlik lozim. Dars o'tishdan avval o'qituvchi uni tarkibiy qismlarga bo'lib, so'ngra hayolan dars bayonnomasida ishlab chiqishi; darsni soatga mo'ljallab bo'lib olishi kerak. Bunda biz ma'muriyat ishlab chiqqan dars rejalarini va o'quv qo'llanmalarini ham ishlatmog'imiz shart. Darsni o'tish faqat vaqtini hisoblash bilan tugamaydi, bunda a'lo tayyorgarlik ham kerak. Hattoki dars va mavzuni ko'p marotaba o'tgan bo'lsak ham, biz unga tayyorlanishimiz shart. Bu ortiqcha tashvish emas, bora-bora tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan vaqt qisqarib uni bir eslab chiqish qoladi xolos. Charchoq bu darsslarni bir xil uslubda olib boraverGANIMIZDA paydo bo'ladi. Ammo yaxshi tayyorgarlik ko'rayotganda dars har doim biron-bir yangi unsurga ega bo'ladi, bu o'z tarafidan dars o'tishda yangilik kiritib o'qituvchi va o'quvchiga rohat bag'ishlaydi. Eng yaxshi o'qituvchi, bu o'z ishiga hamisha yangiliklar kiritadigan va qo'llaydigan o'qituvchilardir. Bunday o'qituvchi bo'lish insondan o'quv materiallarini yangidan-yangi ko'rib chiqish, qayta ishlab chiqishni talab qiladi. Biz yangi mavzuni tushuntirsihda tabiiy dunyoqarashga kam ta'sir o'tkazamiz, xodisa va ashylarga kamdan-kam tabiiy, yaqqol, yondashib ko'rsatamiz. Soxta ilmiy g'ururlanish bolalarni oddiy dunyoqarashga e'tibor berib o'rganishda bizni to'xtatib qoladi. Bunda biz hattoki bu dunyoqarashdan

ma'naviy tushunchalarni aniqlashga ham urunmaymiz. Bolani dunyoqarashini tushunish uchun uning xonasidagi, atrofidagi, uyidagi, qishloq-shahardagi ahvolga e'tibor bersak bas. Misollar keltirib o'z davrini eng ommabop sabablarini o'qituvchi atrof-muhitdan, atrofidagi hayotdan olishi mumkin. Bu sabab va misollar insonni ruhiy olamiga ta'sir qilishi uchun yaratilgan. Bu qonun va tushunchalar, prinsiplar bizning zamonamizga o'z hukmini o'tkazadi. Insonni tirik ruhiy boyligi o'qituvchi tarafidan anglanib, xodisalarni ichki holatini tushunish usuli kabi qabul qilinmog'i kerak. Bularning barchasi chirolyi (aniq), tushunarli til bilan tushuntirilishi lozim. Shunday qilib o'quvchilarga o'quv mashg'ulotlari davomida dunyoviy hayotni qonun-qoidalarini beramiz. Ammo o'quvchiga ta'sir ko'rsatish biz o'ylanganday tez suratlarda amalga oshmasligi mumkin. Har qanday tasavvur qilingan narsalar yuz foiz aniq va tushunarli bo'lavermaydi. Shuning uchun eng avvalo, hech bo'limganda bir taraflama tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Bunda anglab yetilmagan bir qismi, o'quvchiga harakat qilish uchun turtki bo'lib qoladi. Bu ayniqsa ta'limni ijodiy va ma'naviy asoslariga bog'liq. Ma'naviy va ijodiy ohang ko'rsatilgan tarkibiy qismlarni birinchi o'ringa qo'ymoq lozim. Shunda o'quvchi tomonidan qabul qilib olingan ma'lumot, yillar o'tib rivojlanib boraveradi.

O'qishda muvaffaqiyat va ijobiyl natijalarga erishish uchun ta'lim mobaynida biz quyidagi usullarni qo'llashimiz mumkin. Bular tasavvur qilinayotgan xodisa, jismlarni iloji boricha ro'yoviy ko'rsatish, ularga qisqa, lo'nda, aniq va chuqur izoh berish. O'quvchilar o'z tajribasiga suyanib, ushlab, hidlab, tatib ko'rgan narsalarni tezroq va chuqurtoq tushunadilar. Chunki abstrakt fanlarni o'rganishdan avval, o'quvchi keng

moddiy tajribaga egadir, yani ularni o'z dunyoqarashlari, hissiyotlari, anglash qobiliyati shakllana boshlagan bo'ladi. Demakki, o'z vaqtida kerakli ma'lumotlarni topgan inson ko'p narsalarga erishadi. Bunda sun'iylikgacha o'tib ketmaslik kerak. Misol uchun, geografiya darslarida bolalarga kichik xaritadagi davlatlar, o'rmon va tog', kichik daryolarni o'zimizdag'i tabiiy boyliklar bilan bog'lab, yetmaganini xayolan tasavvur qilish orqali fanni chuqur anglashlariga erishishimiz mumkin. Tarix darsida esa uzoq moziy, inson va voqealarni davlatimizdagi hozirgi hodisalar bilan bog'lash, tasvirlash, o'quvchilar ongiga singdirish mumkin. Bunda o'qituvchi maqbul chegaradan chiqib ketmasligi shart. Tarixchi o'qituvchilarni eng ko'p qiladigan xatosi bu qurilish inshootlari, binolami tasvirlab, tirik, buyuk insonlarni oddiy hayotini esdan chiqarishdir. Aslida aynan tavsifnomani oldinga chiqarish yo'li bilan o'quvchini ongiga mavzuni barcha ijobiy taraflarini singdirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga iloji boricha ma'nodor, o'z ichiga aniq bir jismni, hodisani, tuyg'uini olgan so'zлarni gapirishi kerak. Hattoki bu yo'lida o'quvchilarga o'xshatish, anglash, chuqurtoq va kengroq bo'lishi uchun iboralarni tanlash uchun yo'l qo'yib berish kerak. Bunda oddiy, ammo kuchli shevalarni ham ishlatishdan cho'chimaslik lozim. Til bilan shug'ullanganda asosiy e'tiborni faqat grammatikaga emas, shu grammatika qonun-qoidalarini kundalik hayotga qo'llash lozim. Ko'rgazmalarni haddan tashqari boyligi, ko'p ma'lumotlarga egaligi natijasida ichki ko'rgazma, ta'sir kuchi zaiflanib qoladi, aslida ichki ta'sir bu mavzuni uqib, tushunib anglashdir. Bunda har qanday mayda-chuydani ham batafsil bayon qilib o'quvchiga har taraflama yoritib berish kerak. Bu o'z yo'lida mavzuni, tushunchalarni ichiga qabul qilishga yordam beradi.

Shuning uchun mavzuni barcha mayda elementlari, unsurlari har taraflama yoritilib, keng ma'noga to'lq, ko'rgazmali qilib ko'rsatilishi lozim. Amaliy pedagogika o'z misollarini va ko'rsatmalarini bilan o'zini o'mini mustahkam egallab olishi kerak. Aynan shu misollar uni amaliy qo'llashga turki bo'lishi shart. Ayniqsa bu ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodlariga nisbatan qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bu yerda ham salbiylikdan, ro'yo bilan bog'liq bo'Imagan qonun-qoida, ma'naviy sarqit, bid'atlardan qochish kerak. Eng maquli ma'naviy ideal timsollarni o'z ichiga olgan ma'qul, yoki shunday holatlarni olish kerakki, ma'naviy xattiharakatlarni ko'rgazmali qilib qo'yish kerak bo'lsin. Buning uchun biz kundalik hayotimizga, va tarixga bir nazar tashlasak etarli. Tarixiy kitoblarni mutoala qilgach biz bayonimizni qay usulda ko'rgazmali qilib olishimiz ko'rindi. Tarixda buyuk mutasakkirlarimiz ham o'z o'quvchilariga amaliy bilim berish uchun, berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ularni ustaxona, bozor va hakozo joylarga olib chiqqan. Bu yo'l bilan jonli ko'rgazmadan fan sultanatiga qadam tashlangan. Ammo biz ko'rgazmali, misol qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan tushunchalar haddan tashqari o'ziga xos bo'lsa, yoki katta ma'no va ma'lumotlarga ega bo'lsa unda o'z talablarini sabr-matonat qilishga o'rgatadi.

Til, marom, ohang va darsdagi kayfiyat. Bularni barchasi bizga kerakli misollar keltirishimizga yordam berib, ta'limni jondantiradi. Eng katta, birinchi talab bu yerda har doim o'qituvchiga qo'yiladi, u o'quvchilar uchun namuna, o'mak bo'lishi kerak. Kimki o'quvchini yaxshi til bilishga o'rgatmoqchi bo'lsa, uni o'zi ham tilni yaxshi bilishi kerak, chunki yaxshi til, uni ma'nodorligi va ohangdorligi har qanday ta'limning

qalbi va o'qishda muvaffaqiyatlar garovidir. Avvallambor, aniq gapirishni barcha sinf o'quvchilaridan talab qilib olish lozim. Kichik sinflarda bunday talab qo'yilishi ayniqsa, maqsadga muvofiq, chunki aniq, sof ishlatalig'an so'z bolani xotirasiga o'rnashib qolib, keyinchalik katta ijobiy natijalarga olib keladi. O'rta yosh sinflarda bunday usullarni til boyligini mustahkamlash, hijolatlik va bezovtalikni yengish uchun ishlataladi. Yuqori sinflarda bu usul soxta takabburlik, dangasalik, katta insonga o'xshamoqchi bo'lishining oldini oladi. Past, noaniq eshitilmas darajadan til va ohangga qarshi muloyimlik, hayrixohlik va qo'llab quvvatlash orqali yengishimiz kerak.

Kichik sinflarda juft bo'lib, baland ovozda aniq-tiniq gapirishni o'rgatish, noaniq ohangsiz qo'shimchalarni va harflarni baland ovozda (suniy eshitilsa ham) qaytarishni yo'lga qo'yish lozim. Yana dialektik (sheva, lahja) o'ziga xoslikni inobatga olish lozim, ya'ni shevada gapiriladigan noto'g'ri ibora va so'zlarning qo'polligini asta-sekin to'xtatib borish lozim. Albatta biz to'pori iboralardan ham, ko'cha-ko'yni iborlaridan ham asranmog'imiz kerak. O'qituvchini tili o'quvchilarni yoshiga nisbatan yo soddalashishi yoki murakkablashmog'i lozim. O'qituvchini tili sun'iy ziynatlangan bo'lmasligi, ammo har qanday iyamanish, tantiqlikdan, noz-firoq va hokazolardan uzoq bo'lmosg'i kerak. Tilimizda chet el so'zlarini iloji boricha ishlatmasligimiz lozim, ayniqsa bu so'zlarni o'z tilimizdag'i so'zlar bilan almashtirish mumkin bo'lsa. Va yana bir maslahat: biz har doim haddan tashqari ko'p gapirmasligimiz kerak. Iloji boricha o'qituvchi o'quvchilarni gapirtirishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi va iloji boricha o'quvchi bir marom va ohangda gapirishlari shart. O'quvchini tez gapirishga o'rgatish lozim. Misol uchun, formula

so‘zlarni, ichida hayolan sanaganda va ko‘paytirish jadvalini so‘raganda, bular ularni topqirlikka va vaqtdan yutib chiqishga o‘rgatadi. Ammo qayerda mulohaza yurgizish kerak bo‘lsa, unda xotirjam va ehtiyojkorona harakat qilish lozim. Har holda sekin fikrlaydigan o‘quvchilarni fikrlash vaqtini ham hisobga olish kerak. Bayramona, jiddiy va olivjanob xususiyatga ega darslarda bayramona marom va ohang ishlatilishi lozim. Biz o‘quvchilarni gap sotishdan va ongsiz, yodaki javob berishdan asrashimiz shart. Ohang bilan ovozni yuqorilashi va pasayishi kerakli tovush o‘zgarsihlari va chiroyli ritm, ya’ni marom o‘zaro chambarchas bog‘liq. Har qanday o‘y fikrda ham ajoyib, go‘zal va ma’nodor so‘zlarda ham ohang bo‘lishi maqsadga muvofiq, chunki bir xil oddiy, o‘zgarmas ovozdan zerikarliroq narsa yo‘q. Ammo insonni ohangi qulay va yoqimli tarafga o‘zgarishi uchun bizda yaxshi kayfiyat bo‘lishi kerak. Til, chang, maromga, o‘qituvchi va o‘quvchi kayfiyatiga nisbatan qo‘yilgan talablar asosida qat’iy va nozik ichki intizomni nazarda tutamiz. Kimki harakat qilib sof, aniq, o‘ylab ko‘rib gapirsa va butun qalbi bilan kerakli kayfiyatda bo‘lish uchun gapning mazmuniga kirib borsa, u o‘zini tarbiyalashga qadam tashlagan bo‘ladi.

O‘z fikrini bayon etish, ta’lim fanlarini o‘zlashtirish, o‘qituvchini bayon qilishi. Bayon qilish deganda biz hikoya qilganimizda, tasvirlaganimizda va biron narsani tushuntirganimizdagи tushuntirishni icki aloqasini tushunamiz. O‘qituvchining har qanday bayoni, o‘quvchida ma’lum bilimlarni hosil qiladi. Bayon qilishda o‘quvchilariga nisbatan uzundan-uzun ma’ruzalarni gapirib berish, chigal va qarama-qarshi fikrlarni bayon qilish, ohang, marom, murakkab so‘z iboralarni qo‘llash mumkin. Kichik sinf

o'quvchilari uzun ma'nuzalarni tinglashga chidamsiz bo'lib, gap orasida qisqa tanaffuslarga muhtoj bo'ladilar. Albatta bolaning yoshini hisobga olib so'z, ibora, ohang, marom oddiy, aniq va tez anglasa bo'ladigan bo'lishi shart. Iloji boricha kam uchraydigan iboralarni kamroq ishlatish lozim. Iloji boricha o'qituvchi yangi mavzuni daftarga qaramasdan gapirib berishi shart. Bu holda o'qituvchi o'z ta'sir kuchini oshiradi. Agarda kitob bo'lsa, o'qib yozdirishdan saqlanish kerak. Ammo kitob bo'lmasa bayon qilib yozdirishdan qochmaslik lozim. Chunki shu yozdirilgan narsalar keyinchalik qo'llanma bo'lib qoladi.

Ammo har qachon ham o'qib yozdirish salbiy xislat sifatida qabul qilingan. Shuning uchun bu salbiy odatdan qochish kerak. Chunki u ko'pincha dangasalik, manmansirashlik, kitobga vaqtida ko'nika olmaslikni o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'quvchiga o'qib berilayotgan mavzuni asosiy fikr va g'oyalarini qayd etishi mumkin. Ammo xuddi ushbu mavzuni yozib olishi mumkin emas.

Hikoya va hikoya qila olish

Yaxshi hikoya qila oladigan insonni gapiga o'quvchilar kiradi. Yaxshi hikoyachi o'tirgan insonlar uchun gapiradi. Ularga moslashadi. U o'z tinglovchilariga kuch o'tkazishni istamaydi. Ularning ichki kechinmalariga moslashgan holda ularni poklik va musaffolikka chorlaydi. Shuning uchun hikoya qilish san'ati pedagogik san'atining tashkiliy-asosiy qismiga kiradi. Gerbertning fikricha, har bir uslubchi evristik uslubdan foydalanishi kerak. Bu uslubni ijobjiy taraflari quyoshdek. Evristik uslubda o'quvchilar o'zlarini berilgan, o'zlarini tanlagan mavzu asosida hikoya tuzishadilar. Ammo bu sun'iy ko'rinsihga ega bo'lib, befoyda va ko'p vaqt egallaydi. Agar o'quvchida evristik uslubga o'z xohish-ixtiyori bo'lsa, yordam berish

kerak. Biz ularni hikoyasini aniq bir qismlarini tasvirlab berishlariga yoki hikoyada u yoki bu o'zgarishlarni qilishga undasligimiz mumkin. O'qituvchi o'quvchilardan ular o'qib chiqgan narsani yoddan so'rashi kerak. Bunda o'quvchini hikoyasiga halaqit bermasdan, uni to'xtatmasdan tinglashi lozim.

O'qituvchi o'zi aytib bergan narsani bir-ikkita aniq va lo'nda savollar bilan qayta so'rab olishi mumkin. Bunda o'quvchi o'zlashtirib olgan mavzuni o'qituvchiga aytib berishishi shart, so'ngra yaxshi o'quvchi namunali qilib kitobni yoki matnni o'qib berishi lozim. Bolalar matnni yaxshiroq tushunishi uchun noaniq va matnni mujmal joylariga tushuntirish berib ketishi lozim. Bu tushuntirishlar iloji boricha qisqa va aniq bo'lishi kerak. Hatto hikoyani ham izohlab ketish mumkin. Ammo bunga maslahat bermagan bo'lar edik. Chunki bu qo'shimchalar hikoyani maromini va undan olingan taassurotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'zi hikoya qilayotgan bo'lsa ham, kitobdan foydalanmasdan erkin va bir maromda, ammo aniq jonli va his-tuyg'uli aytib berishi lozim. O'quvchilarni ortiqcha sanalar bilan yuklamaslik kerak. Agar hikoya katta hajmda bo'lsa, uni boblarga bo'lib gapirish lozim, kichkina yoshdagilarga yosh ekanligini hisobga olib, bir necha bor qaytarib gapirish shart. Bayon tugagandan keyin o'quvchilarni mavzuni asosiy mazmunini topishga yo'naltirish kerak. Tushuntirish mobaynida, biz nafaqat hikoya bizga nima beryapti deb emas, balki aytilgan va yozilgan hodisalarini sabablarini, asoslarini turki bo'lgan ruhiy kuchlarni, ma'naviy va ta'limiylaridan aytilgan va yozilgan taraflarini ahamiyatini bilib olishimiz kerak. Hikoyada ko'rgazmali qurol qilib rasmlarni qo'llash mumkin.

3-§. O'qitish san'ati

Tasvirlash san'ati. Tasvirlash asosan geografiya va tabiiy fanlar darsida ko'proq qo'llaniladi. Eng avvalo, darsni asosiy muammolaridan biri bu biz o'rganayotgan jism yoki hodisani qanday holatdaligidur. Bu yerda biz o'rganayotgan ob'yekt bus-butun jism, hodisa va hokazolar bo'lib, uning bo'laklarini har taraflama izohlashimiz lozim. Bunda o'qituvchi bo'limni izohlashda uni o'z nuqtai nazaridan tasvirlashi yoki hayolan fikrlashi mumkin va o'zini fikrlash yo'llarini o'quvchilarga tushuntirib ketmog'i lozim. Agar o'qituvchi evristik uslubni qo'llashni ma'qul ko'rgan bo'lsa o'quvchi o'rganilayotagan jism yoki holatni tarkibiy qismalarini topishi kerak. Bunda u o'qituvchini ko'rsatmalaridan, dunyoqarashidan yoki aqlan o'qituvchini savollariga tayanib ish ko'rmog'i kerak. Bu holatda o'quvchi aniq rejaga asoslanishi kerak. O'quvchi hodisani bo'limlarini aniq ajratishi, nomlashi, to'g'ri joylashtirishi, ya'ni to'gri turkumlashi kerak. Bunga asoslanib o'qituvchi ham hodisani xususiyatlariga oid yoki aniqlovchi, yo'l ko'rsatuvchi savollar bermo'gi kerak. Zarur bo'lsa, doskada savollarga javob berilishi uchun ma'qul ko'rsatmalar yoki javob rejasi yozilishi lozim. Tasvirlanayotgan jism o'quvchilar qo'llarida yoki yonlarida turishi kerak. Bunday ta'limda hodisa, yoki jismni o'rganishga yetarlicha vaqt ajratmoq lozim. O'qituvchi tez fursatda bir qismdan ikkinchi qismga sakrab o'tib ketishi xatodir. Bunda o'quvchilar hodisa yoki jismni barcha o'ziga xos xususiyatlarini tez fahmlay olishmaydilar. Iloji boricha eng zarur ahamiyatga loyiq xususiyatlarni ikkinchi darajali xususiyatlardan ajratib olishi kerak. Agar o'quvchi barcha tushuntirishlarni to'g'ri anglab, tushungan bo'lsa, unda boshqa holat, hodisa va jismalarni xususiyati hamda o'ziga xosligini

o'rganayotgan hodisa, jism bilan taqqaoslashi mumkin. Demak, xususiyatlarni batafsil o'rganish, zarur xususiyatlarni ajratib olish fanga qiziqishni orttiradi. Agar bunday holat kuzatilmasa, o'qituvchilar o'z fanini va uslubini tarkibiy qismlarini yangitdan ko'rib chiqishi kerak. O'quvchilar o'z faniga qiziqishi qay darajadaligini bilish uchun o'qituvchi e'tiborini o'quvchilarga (faqat o'z faniga emas) qaratishi lozim.

Tasvirlashni asosiy qiyinchiligi tasvirlanayotgan jismni ro'yoda yo'qligi va o'quvchilar uni ko'rolmasligidadir. Bu yerda asosan o'quvchi va o'qituvchini dunyoqarashi mos kelishi kerak. Kitob o'qiganda esa muallif va o'quvchini fikri (nuqtai-nazari) to'g'ri kelishi, bir nuqtada kesishmog'i lozim. Jismni to'g'ridan-to'g'ri ko'rish mumkin bo'lmasa u holda bu kamchilikni tushuntirish, rasm, eskiz, chizma bilan almashtirish orqali tuzatish mumkin. Ya'ni kitob va boshqa sun'iy ko'rgazmalar tomonidan kelib chiqadigan taassurot va xulosa, ro'yoviy jismni ko'rib, bilib chiqarilgan taassurotdan iloji boricha farqlamasligi lozim. Bu vaziyatda, avval o'tmishta olingen taassurotlar kelib chiqayotgan va endi-endi vujudga kelishi kerak bo'lgan taassurotlar bilan uyg'unlashib ketishi kerak. Qo'shimcha ko'rgazmali qurollar jismdan olingen aniq nusxa bo'limog'i lozim. O'quvchilar ularni to'g'ri nazorat va kuzatishga o'rganishlari, hajmlarni to'g'ri aniqlashlari shart. Misol uchun botanika fanida biz o'simliklar haqida suhbat olib borayotgan bo'lsak, o'quvchi o'simlikni urug'dan rivojlanib chiqishini boshidan gapirib berishi lozim. Zoologiya fanida ham hayvonlarga nisbatan xuddi shunday tasvirlash usulni qo'llamoq lozim. Hattoki oddiy minerallarga (madanlarga) ham xuddi shu taraflama yondashish shart.

Umumiy xossalarni tasvirlash. Umumiy xossalarni tasvirlash va izohlash uchun deduktiv uslubdan voz kechmoq va induktiv, ya'ni tarkibiy qismlarni o'rganib, mayda xossalardan umum bir xulosa chiqarish uslubidan foydalanmoq lozim. Induktiv uslubdan foydalanish davrida tajriba va voqealarni kuzatish, analiz qilish, ulardan kelib chiqqan mantiqiy xulosalarini isbotlamoq kerak. Misol uchun, metal issiqqlikdan eriy boshlaydi, demak, metal yuqori daraja ostida eriydi, suv yuqori darajada bug'lanadi, demak barcha suyuqliklar bug'lanish xususiyatiga ega. Yoki tarixni davrlarini o'rganishda har bir xalqni rivojlanishi va xodisalarini o'rganib, bularni o'z xalqimizning bosib o'tgan davrlariga qiyoslashimiz va umumiy xulosalar chiqarish mumkin. Geometrik figuralardagi kvadrat shaklini xossalarni olsak, bunda kvadrat tomonlari teng, burchaklari 90° li to'g'ri to'rburchakdir. Bu xususiyatlar kvadrat shakldagi to'rburchakni tasvirlab beradi, demak shu umumiy xususiyatlarga ega shaklni to'g'ri to'rburchak deb ataymiz.

Tushuntirish san'ati. Bu san'at ta'limi barcha xossalariiga ta'llugli. O'qituvchining ushbu san'atidan tasvirlash kelib chiqadi. O'qituvchi kerakli tushuntirishlarni belgilashdan avval nimani tushuntirish kerakligini aniq bilishi kerak, buning uchun o'qituvchi o'zi belgilagan mavzuni aniq, obdon bilishi va ko'pincha qo'yiladigan hatolardan asranmog'i kerak. Tushuntirish tayyorlov tushuntirishlardan boshlanmog'i lozim. Bu uslub tushuncha va munosabatlari hajmi haddan tashqari ko'p bo'lganda va o'quvchini tushunishi qiyin bo'lgan mavzularda qo'llaniladi. Tushuntirishlar katta hajmda bo'lmasa, tayyorlov tushuntirishlarni bermasa ham bo'ladi. Haddan tashqari uzun tushuntirishlar o'quvchini birdaniga ko'p narsalarni tushunishga majbur qiladi. Ayrim o'ziga xos

xususiyatlarni tushuntirish, aniq bir mavzuda faqat qo'shimchalar rolini o'ynashi mumkin. Bunda bir nechta hatolardan asranmoq lozim:

- 1). Tushuntirishni o'zga tushunchalar bilan tushuntirish.
- 2). Umumiy qoidalalar o'zlashtirilib, bu qoidalarni kelib chiqaruvchi qonuniyatlarni nazardan chetda qo'ladirish.
- 3). Tushuntirishni bir taraflama bo'lishi: o'qituvchi o'quvchi bilan aloqa o'rnatish o'miga haddan tashqari ko'p gapiradi, ammo so'zlarni ta'sir doirasi chegaralanib qoladi.

Har qanday tushuntirishlarda sinfdagi ichki faoliyat, yani o'quvchini o'zini faoliyati katta ahamiyatga ega. Bunda o'zaro va qo'shimcha savollar va musobaqa ruhi sinfda boshchilik qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchisi tushuntirib berishi mumkin bo'lgan narsani tushuntirmasligi lozim. Chunki o'quvchi kerakli mavzuni tengdoshlariga mos qilib tushuntirib beradi.

Eng avvalo, o'rganilishi kerak bo'lgan materialni o'rganish va tushunish, tushuntirib berish esa faqat qo'shimcha, yordainchi qo'llanma bo'lib qolishi kerak.

Tushuntirish ikki yo'nalishga ega: formal(rasmiy) tushuntirish va real (ro'yoviy) tushuntirish.

Formal (rasmiy) tushuntirishni asosiy maqsadlari bu noamiq va eski so'z va iboralarni yangi qabul qilingan so'z va iboralar bilan almashtirish; chet el so'zlarini bizni tilidagi so'zlar bilan almashtirish; haddan tashqari adabiy so'zlarni tushunarliroq oddiy tilga o'tkazish.

Real (ro'yoviy) tushuntirishning asosiy maqsadi: barcha aloqa, munosabatlar va jismiarni chambarchas bog'liq taraflarini ko'rsatish. Jismni tushuntirish uchun barcha ko'rgazmali qurollardan foydalilanladi.

Bundan tashqari o'qituvchi o'z mavzusini maqsadiga muvofiq uni boshqa mavzular bilan qarama-qarshiligi va o'xhash taraslarini qayd etib ketmog'i lozim. Bunday qarama-qarshiliklar va umumiy xususiyatlarni tushunib yetmoqlik, o'quvchida butun bir mavzuni tushunib yetishga olib keladi.

Umumiy xususiyatlarni va sabab omillarni tushuntirish davrida biz ularni o'zaro munosabati va ichki ahamiyatini aniqlashimiz kerak. Bu munosabat va ahamiyatni o'qituvchi o'quvchilarini chuqur o'zlashtirishiga va o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lashiga olib kelishi lozim.

Yuqori sinflarda o'qituvchi o'quvchilarida umumiy xossalarni aniq va mustahkam tushunchalarini gumon ostiga olishni o'rgatishi lozim. Bunda ehtiyyot bo'lish, fahm-farosat bilan ish tutmoq kerak, bunday gumonsirashlarni kelib chiqarishdan avval o'qituvchi shu savolga obdon tayyorlangan va iloji boricha o'quvchilarini fikrlarini oldindan ko'rib bilib tasarruflarga tayyor bo'lishi lozim. Shu bilan birga tushuntirilib borilayotgan xususiyatlardan chetga chiqmaslik kerak. O'qituvchi o'quvchilarga ishonishi kerak va kelajakka ham ayrim xususiyatlarni asrab qolsihi zarur, chunki bir martada barcha narsa va xususiyatlarni aniq tushunib yetish murakkab ish. Ko'pincha o'quvchilarida kerakli tushuncha: mulohzalarni, taassurotlarni uyg'otib, ularni keyingi bolalarni aqliy yetishish vaqtiga qo'yib berish lozim. Barcha alohida tushuntirishlarni ko'rib chiqqanimizdan so'ng, biz o'tilgan mavzularni bo'lib, uni asosiy xossalarni ko'rib chiqishimiz kerak. Bunda ham me'yorni saqlash lozim: haddan tashqari mayda bo'linishini oldini olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tushuntirishning foydasi va natijasi o'quvchilarini o'tilgan mavzuni samarali o'zlashtirishlaridadir. Agarda o'quvchini mulohazalarida

~~kan~~chilik mavjud bo'lsa bunda o'qituvchi aybini o'zidan izlashi lozim, o'quvchilarni tushunmaslikda ayblashni keragi yo'q.

Tarjima san'ati. Tarjima san'atining ahamiyati shundaki, biror mavzuni o'rganishda chet tilida yozilgan adabiyotlarda foydalanishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari chet tili fanlarida matnlarni tarjima qilish vazifalari qo'yilgan bo'ladi.

Tarjima tushuntirish bilan bo'gliq. Eng yaxshi, sara tarjimalar bu tarjimonning aniq tushuntirishlaridir.

Tarjuna~~ga~~ turlicha yondashish mu'mkin: bunda o'quvchilarni bitta tarjimani qaytarishidan ehtiyoj bo'lmoq kerak. Har qanday tarjima grammatika, etika, estetika va har bir xalqning alohida psixologiyasi bilan bog'liq. Avvaliga oddiy, barchaga bir xil tushunarli bo'lgan usul bilan tarjima qilish darkor. Yuqori sinflarda tarjima qilishda ularga ozroq erkinlik ber-mog'i lozim.

Tarjimada quyidagilarni esda saqlash lozim, yani tillarni qonuniyati, iboralarni ma'nosi tarjimada o'zgarib boradi va o'zini ona tilidagi asl sayqalni, ma'noni yo'qotadi. Tarjimon qanchalik so'z ustasi bo'lmasin bu xususiyatlardan oslib o'tib ketolmaydi.

Tarjimada oddiy, tushunish oson bo'lgan tildan foydalananmoq maqsadga muvofiq. Shu bilan birga soddalashtirishda ham xavf mavjud. Sodda til oxir oqibat ongsiz, o'yulamasdan qilingan bema'no tarjimaga olib kelishi mumkin. Bu chigalliklarga aniq javobni topish uchun eng avvalo tarjimani aniq va tushunarli anglagan holda, o'ziga xos ma'naviy va aqliy g'oyalarni asrab qolgan holda bajartish lozim. Eng asl tarjima bu eng tabiiy tarjimadir. Buning uchun biz tarjima ~~so'zida~~ tarjimonni nuqtai nazaridan atorf-muhit va xodisalarga qaramog'imiz kerak.

Tarjimada alohida qiyinchilik, so'zni asl ma'nosini topishdadir. O'qituvchi iloji boricha so'zni ~~bar~~cha lug'aviy ma'nolarini bilishi kerak, o'quvchi esa so'z asl ma'nsoi mu~~ass~~sam bo'lgan bir so'zni bilishi yetarli.

Agar o'quvchilar so'zni asl ma'nosiga qarab ish tutishganida tarjima alohida ma'nodorlikni egallagan bo'lar edi. Mumtoz adabiyotlarda, o'z ichiga o'sha davrni g'oyalarini olgancha kitob va matnlarni tarjimasida, so'zni asl ma'nosini saqlash lozim.

Tarjimada iloji boricha asl ma'noga yaqin bo'lishga harakat qilish lozim, iloji boricha asl ma'noni saqlab qolish kerak. Agar bu har safar ham qo'ldan kelavermasa, biz o'z ona tilimizdagagi kerakli ibora, asotirlarni topishimiz shart.

Ko'pincha kerakli ma'no, ifodani ko'rsatib berish uchun tarjimon umumiy, birlashtiruvchi bir tilni(misol uchun ingliz tilini) bilishi kerak.

Matn o'quvchilarning yoshiga tayangan holda tanlanadi. Maktab tarjimalari aniq bo'lishi, shu bilan birga ikkala tilning xususiyatlarini yaqqol ko'rsatib beradigan bo'lishi kerak. Zarur va iloji boricha (imkoniyat darajasidagini) tenglashtirish uchun ayrim hollarda tarjimani tekshirish mumkin. "Haddan tashqari erkin tarjimaga yo'l qo'ymadikmikan" degan ikkilanishni qaytadan chet tiliga tarjima qilib bilib olish mumkin. Agarda bunda biz asl nusxadagi ibora va so'zlarни qo'llay olmasak, unda qaytadan ishga qo'l urishimiz kerak.

4-§. Savol berish san'ati

Kimki aniq va qulay savollar bera olsa, demak u kerakli uslubiyotni biladi deb xulosa chiqarish mumkin. Savolni maktab hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Savollar orqali o'qituvchi o'z o'quvchilarini salohiyatini,

bilimlarini tekshirib olishi mumkin. Induktiv savollar yangi tushunchalarni o'rgatish va hosil qilish uchun kerak. Induksiya qismlarni o'rganib, butun bir miasalaning yechimini topishni o'z ichiga olgani uchun, biz induktiv savollar orqali hodisa, masala va boshqa holatlarni umumiy tushunilishiga erishamiz. Induktiv savolga analitik savol kiradi, uning yordamida biz to'plagan ma'lumotlardan bir xulosa chiqaramiz. Takrorlash uchun berilgan savollar esa nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki avvalgi bilinilarni bugungi bilimlar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Agar savollar imtihon yoki baholash uchun beriladigan bo'lsa, ularni amaliy ta'siri kuchli bo'ladi. O'zini alohida ahamiyatiga qarab bu savollar katta natijalarni beradi va bizni bilimimiz, talabalarga javobimizning natijasini va saviyasini ko'rsatadi. Ko'pincha bir narsani e'tirof etishimiz kerakki, aynan aqli, ziyoli insonlar savollarni alohida kasb etuvchi ahamiyatiga e'tibor bermaydilar. Agar kimki o'zini ham nazorat qiladigan bo'lsa, ko'pincha noo'rin va noto'g'ri savollarni berishini anglaydi va qanchalik o'z ishiga ustasi farang bo'lmasin pedagogik xatolarga yo'l qo'yishdan xoli emasligini tushunib yetadi. Demak, yaxshi savol orqali biz o'qituvchining mohirligini, o'quv materialini bilishini, ya'ni bilim saviyasini tekshirib olishimiz mumkin.

Ziyoli insonlarga qo'yiladigan talablarga aniq va tushunarli gapirish talabi qo'yiladi. Demak, savollar ham aniq va tushunarli bo'lishi uchun barakat qilish, buning uchun esa o'quvchilarni bilim saviyasini qaydarajadaligini e'tiborga olish lozim. Shunday qilib, savollar berishda noma'lum, noaniq, kamyob tushunchalardan foydalanmaslik kerak va savolni soddalashtirish maqsadga muvosiq. Savollar o'z ichiga bir necha xossalarni, ikkilamchi ma'no va tushunchalarni olmasligi kerak. Va hattoki

savol berishda biz o'zinizni talaffuzimizga, urg'uga, ohangimizga alohida e'tibor bermog'imiz darkor. Chunki urg'u orqali savolga har xil ma'no berish mumkin. Savollar tuzishda haddan tashqari ko'p so'z ishlatmaslik kerak, iloji boricha savol mazmuni aniq bo'lib, ikkilamchi g'oyalarni mujassamlashtirmasligi lozim. Sodda savollarni o'quvchi bemalol qaytaraversa bu savolni to'gri berilganligini anglatadi.

Savol tuzishda tilshunoslik qonun-qoidalariga e'tirbor berish kerak. Til iloji boricha ravon, to'g'ri bo'lishi shart. Kishilik olmoshlari aniq qo'yilgan va ishlatilgan savollar yaxshi, ijobiy natijalarga olib keladi.

Savol mantiqiy jihatdan ham to'g'ri bo'lishi kerak. Shuning uchun savolni asosiy ma'noga ega qismi aniq bo'lishi lozim. Mantiqiy savollar didaktik uslubda bo'lishi kerak. Bunday savollar o'tgan mavzuni tekshirishda yoki takrorlashda qo'l keladi.

Savollar o'quvchini ma'naviy va ruhiy salohiyatiga, bilim saviyasiga ta'sir ko'rsatishi, uning bilimini oshirishi va ongini, tafakkurini mukammallashtirishi kerak. Shuning uchun o'quvchi ongiga kam ta'sir, yoki umuman ta'sir ko'rsatmaydigan, o'z ichiga yashirin javobni olgan savollarni bermaslik lozim.

Savollarning quyidagi turlari mavjud:

O'tilgan mavzularni takrorlash uchun berilgan savollar va o'quvchilarning bilim saviyasini aniqlovchi savollar. Bunday savollar o'tilgan mavzu va tushunchalarini umumlashtiradi. Eng murakkab turdag'i savollar sarasiga analitik va induktiv savollar kiradi. Induktiv savollar orqali biz ma'lumotlar, xulosalarni tarkibiy qismlariga qarab, o'rGANIB bir xulosa yasaymiz. Analitik savollar yordamida esa tushuncha, xulosa, fikrimizni, qonun-qoidani o'ziga xos xususiyatlarini topib beramiz.

Savollar orasida mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi kerak. Savollar o‘z-o‘zidan bir-biridan chiqib kelishi zarur. O‘qituvchi qanday javob olishni istasa, o‘sha javobni aniq tasavvur etishi lozim. Yosh o‘qituvchi har bir mavzuga oid mukammal induktiv va analitik savollarni tuzib qo‘yishi kerak. Buning asosiy maqsadi umumiy bilimlar, noaniq tushunchalardan aniq bir tushuncha va malakalarga erishishdir. Bunday savollar ruhiy, ma’naviy insho mavzularini, tushunchalarni takomillashtirishda qo‘l keladi.

Savol berishda quruq sana, sifat va sabab shaklidagi (pedantizm) savollar har qachon ham to‘g‘ri kelavermaydi. Qachon?, qanday?, nimaga? qabilidagi savollarning ma’nosи chiqib kelayotgan bo‘lsa berilishi maqsadga muvofiq. Alternativ savollar ham o‘z o‘rnida berilsa ajoyib natijalarga olib kelishi mumkin Hatto Suqrot ham bunday savollarni ishlatgan va har bir olgan javobini asoslab berishlarini talab etgan.

Avvaliga savol butun bir sinfga beriladi, so‘ng alohida o‘quvchiga uning ismi-sharifini aytib beriladi, so‘ngra o‘zga o‘quvchilarни ham so‘roqqa tutish lozim. Dangasa, o‘qimaydigan bolalarga ko‘proq savol berish lozim, aqli, a’lochi o‘quvchilarни xatolarni tuzatishda ishlatish kerak. Savollar qat’iy, ammo xushmuomalalik bilan berilishi shart. O‘quvchilarga o‘ylab olish uchun vaqt berilishi, qo‘llar kam ko‘tarilsa savolni yanada soddarоq qilib kerakli natija chiqquncha qaytarish lozim.

Javob. Javoblarni berishda aniqlik, qat’iylik, ohangdorlikka intilish kerak. Baqirib chaqirishlarga, oylab ko‘rmasdan tezkorlik bilan ko‘tarilgan gaplarga, ohista pichirlab gapirishga qarshi kurashish lozim.

Agar sizning savolningizga birov javob bermasa aybni o‘zingizdan izlang. Javob olo‘maslikning bir necha sabablari mavjud: 1) savolni tushunarsiz bo‘lgani; 2) o‘qituvchini do‘q-po‘pisasidan qo‘rqish; 3)

hijolatpaszlik; 4) bilimsizlik, yoki savolga e'tibor bermaslik, 5) o'quvchini javob berishda kerakli so'z va iboralarni topib o'z fikrini ifodalay olmasligi, bunda o'qituvchi javob berishga yordam berishi kerak; 6) shoshqaloqlik, bunda sabr bilan savolni qaytargizib, javobni bir ozdan so'ng so'rab olish kerak. Agar o'quvchi o'shanda ham o'z odatini tashlamasa uni sukut saqlashga undash, yoki javobini biron-bir varaqqa yozdirish kerak. Agar javob sinfda kulguga sabab bo'lsa, o'quvchilarga qo'shilib kulmaslik kerak, unda xotirjamlik bilan savolni tushuntirib berish lozim. Agar javob haqiqatga yaqin bo'lsa, ammo to'liq bo'limasa o'quvchini o'qituvchini to'xtatib, to'g'ri va noto'g'ri xulosalarni ko'rsatib o'tishi lozim.

Kichik sinflarda to'liq javob berishni o'rgatish lozim, bunda o'quvchilar so'zlashishga, o'z fikrini ifodalashga o'rganadilar, faqat keyinchalik qisqa, ammo aniq javob berishga o'rgatish lozim.

Javob berishda aniqlikga intilish lozim, ammo qisqa javoblar ham xulosa bilan mustahkamlanmog'i shart. O'quvchini tili rivojlanishi, ammo oddiy aniq javob berishi o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi o'z javobini hayolda tutib, o'quvchilar bergan, ammo to'g'ri, faqat noto'g'ri ifodalangan javobni inkor etmasligi kerak. Bunda o'quvchini javobi to'g'rilinga rozi bo'lib, o'qituvchi o'z javobini ham keltirishi kerak.

To'g'ri javoblarga yo'l-yo'lakay: yaxshi, ajoyib deya uzuq-yuluq maqtovlar berish, o'quvchini o'qituvchining maqtoviga nisbatan hurmatini, e'tiborini susaytiradi.

Demak, savol va javob berishda o'qituvchi o'ziga va o'quvchilariga asosli talablar qo'yishi shart.

Darsda ta'rif va javoblarni munosabati.

Ta'rif va savollar bir-birini kamchiliklarini to'ldirgan holda, biz ajoyib, ijobiy natijalarga erishamiz. Faqat o'qituvchi haddan tashqari ko'p ma'lumot berishdan o'zini tiyishi lozim. Chunki ko'p, ortiqcha ma'lumotlar bir-biri bilan mujassamlashib o'quvchini yo'ldan uradi va adashtiradi. Savol orqali biz javoblarga tushunchalarga aniqlik kiritishimiz, ta'riflash orqali biz o'quvchilarga xulosa chiqarish uchun manba beramiz. Ta'riflashda ham savollarni qo'llash mumkin, bunda biz keltirgan xulosa, manbalar va tushunchalarni maqsadga yetib bormayotganligining sabablarini tushunib yetamiz. O'quvchi to'liq ta'riflay oladigan vaqtida unga imkon berish kerak. O'shanda ham o'qituvchi savollar bilan o'quvchiga halaqit bermasligi lolzim. O'quvchini savollar bilan to'xtatib turish oxir-oqibatda o'quvchida "menden nimani istaysiz?" degan savol tug'ilishiga olib keladi. Oxir-oqibat o'quvchi o'ziga-o'zi ishonmay qoladi, bu esa, keyinchalik fikrlashni, tuyg'ularni, o'quvchini talpinishini so'ndiradi.

Yodlash. Xotirani rivojlantirib, doimo takomillashtirish lozim.

Xotira mexanik bo'lishi mumkin. Bunday mexanik yodlash qulog orqali olinadi. Yoshlarda mexanik yodlash ongli yoki mantiqiy xotiradan kuchliroqdir.

Ohangdor, baland ovozda, bir maromda o'qish, doskada yozish, mexanik yodlashda qo'l keladi va o'quvchilar xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Keyinchalik bu ma'lumotlardan ta'lim berish uchun, to'ldirib, o'quvchilarni bilim boyligini oshirish uchun qo'llasa bo'ladi.

Yodlanish qiyin bo'lgan hollarda, sinfni bir ovozdan ma'lumot yoki ibora, so'zlarni qaytarishga undash lozim. Yodlashni mustahkamligini

oshirish uchun biz o'quvchilarni xotirasiga ta'sir o'tkazishimiz lozim. Ta'sir o'tkazishga rasm, surat, chizma, jism namunasini ko'rsatish orqali erishiladi.

O'quvchilar kerakli ma'lumotlarni yodlab olishganlaridan so'ng, bu ma'lumotlarni tartibini o'zgartirib so'roqqa tutish lozim. Bunda bilimlarni mustahkamlgi oshadi. Mexanik yodlashdan so'ng taqqoslash, ong va hayollar yordamida yodlash kirib keladi. Bunday yodlashlar ruhiy kuchlarni bog'lovchi va biriktiruvchi kuch sifatida katta ahamiyatga ega. Ongli yodlash davrida biz yodlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni tushuntirib berishimiz darkor. Bu ko'rsatmalarga asoslanib o'quvchi keyingi davrda yaxshi natijalarga erishadi. O'quvchini hayolidan jismlar va ularni xossalari, sabab va ularni yechimlari o'tishi kerak. Taqqoslab yodlashda yakkalikdan umumiyligga intilish kerak. Ayrim xulosalardan umumiyl xulosa chiqarishni yodlab olish, keyingi t'alim davrida bolani ongini rivojlantirib, tafakkurini takomillashtiradi. Taqqoslashda jismlar holati, xususiyati bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lishlari kerak, o'shandagina o'quvchi xayolan taqqoslab yodlashda chekka tushunchalar tomon o'tib ketmaydi. Yangi materialni o'tish ta'lim ma'lumotlari bilan bog'lab ketilishi lozim, ana shunda o'quvchilarda taassurot, yodlash jarayoni ijobjiy natijalarni beradi. Jarayon va o'tmish ma'lumotlarga chuqurroq va ko'proq murojat qilish kerak. Yodlab, eslab qolishni yana bir turi mavjud, bu tuyg'ularga asoslanib eslab qolish qobiliyatidir. Bu xotira turi simpatik xotira deb ataladi. Bu xotirani xususiyati quyidagicha: inson o'ziga yaqin, yoqimli va yoqimsiz narsalarni tez eslab qoladi. Demak hissiyotlarni ham inson ongiga ta'siri kuchli ekan.

Yodlash uchun bir necha ko'rsatmalar: chet el so'zlarini yodlashda avvalioga yodlash lozim, keyin esa aksincha; she'r yodlashda satrma-satr yodlash kerak. Yodlanayotgan narsalarni yozib borish maqsadga muvofiqdir. Ovoz chiqarib o'qish, qismlarga bo'lib yodlash, so'ngra ularni birlashtirib umumiy yodlash. Shoshmaslik kerak, boshida asta-sekinlik bilan yodlash lozim. Sinfni nazorat qilishda barcha o'quvchilarni tekshirish kerak.

Inson doimo o'z bilimini ko'rsatishga intiladi. Intilmaganni esa qaytadan yodlash jarayoniga qaytarish lozim.

Takrorlash. Takrorlashni ahamiyati katta, chunki o'tmilgan mavzular atrofida yangi mavzular aylanib bog'lanadi. Takrorlashni iloji boricha tez-tez o'tkazish kerak, chunki ahyon-ahyon va katta miqysodagi takrorlashlar o'quvchini garangsitadi. Takrorlashlarni hajmi va soni sinf ko'rsatkichiga moslanishi kerak. O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsa shunchalik tez va ko'p bo'lishi lozim O'quvchilar katta va mustaqil bo'lishgan sari ulardan keng ko'lamli takrorlashni talab qilish mumkin. Ammo takrorlash biz uchun qo'rinchli bo'lmasligi uchun takrorlash yo'lma-yo'laki, tez-tez va ko'p narsalarni esdan chiqarmasdan avval o'tkazilishi lozim. Bir qonuniyat bor: takrorlash qilishga ehtiyoj tug'ilsa demakki ko'p narsani unutib bo'libmiz. Takrorlash rangli va jo'shqin o'tishi lozim. O'quvchilar o'zlar o'qigan mavzulariga yangicha nazar tashlashlari kerak. Zerikarli ma'lumotlarni qaytarishdan hech qanday yangi ma'no chiqmaydi. Misol uchun tarixda biz nafaqat sanalarni, balkim alohida tarix bo'limining ko'zga ko'ringan namoyondalarini, lashkarboshilarini hayotini taqqoslashlari lozim. Ana shunda ta'llim jarayoni tezroq o'tadi. Bu ijobjiy natijalarga olib keladi.

Shunday qilib biz qayerda takrorlashga ro'baro kelsak, mavzuni o'tkan vaqtimizdagi xayratga takrorlashdagi bo'lgan yangi xayratni, yangicha yondashishni qo'shish kerak. Bir so'z bilan aytganda o'quvchi nafaqat olgan bilimlaridan, balki o'zini takomillashuvidan xursand bo'ladi.

Rasmiy bosqichlarni amaliy qo'llanishi.

Rasmiy pog'onalar tayyorgarlikning aniq bir turi(shakl)dir. Biz bu shaklga har qanday ta'lim va tadqiqotlarda tayanishimiz lozim. Bundan tashqari psixologik shakllar mavjud, ular ta'lim va o'qishni ruhiy kalitini o'rghanadilar. Faqat shu shakllarga ko'r-ko'rona berilmaslik lozim. Ayniqsa muallimlikni endi boshlagan insonlar o'zini ta'lim berishga tayyorgarligini rasmiy pog'onalar bilan yaqin aloqada olib borishi kerak. Agar u maktab uchun va maktabda ishlagan bo'lsa u rasmiy pog'onalarini ob'ektiv o'z ishiga bo'lgan tanqid hisoblashi kerak va bunga asoslanib xatolarini tuzatmog'i shart. Kimki birinchi novbatda amaliy maqsadlarni ko'zlasa u amaliy qo'llashda va ifodalashda ko'rsatilgan sistema(tizim)dan chetga chiqadi.

Ta'limdagagi rasmiy pog'onalar haqida ta'limot quyidagi xolatlarni nazarda tutadi, ya'ni o'quv materiallarini alohida-alohida qismlarga bo'lib, bu qismlarni ko'rib, o'r ganib chiqish osonroq bo'ladi. Bunda biz "uslubiy o'Ichovini" topishimiz kerak. "uslubiy o'Ichov" yetuklikga ega bo'lib, bir yoki bir necha ta'lim soatlariga ajralgan. Bu uslubiy birliklar ham ta'limda bosqichma-bosqich o'z maqsadlarimizga yetishimiz uchun alohida tugallangan qismlarga bo'linmog'i lozim.

Birinchi rasmiy pog'ona bu tayyorlov pog'onasi va tahlil. Bunda barcha yangi mavzular o'tgan mavzular bilan bog'liqligini nazarda tutadi.

Demak, yangi mavzu materiallarini o'tilgan mavzu materialarga bog'lab o'tish kerak.

Agarda o'qituvchi o'quvchilarni xotirasiga, bilimlariga ishonsa u to'g'ridan-to'g'ri ishga o'tishi mumkin. Unda tayyorgarlikni o'tkazishni keragi ham yo'q. Har bir darsda biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadga intilishimiz kerak, aynan shundagina yangi mavzu berishda biz me'yordan chiqib ketmaymiz.

Ta'lif jarayonida eski mavzuni qisman bo'lsa ham takrorlab, yangi mavzuga doim kiritavermaslik lozim, bunda o'quvchilarning yangi mavzuga bo'lgan qiziqishlari susayadi, xayoli bo'linib haddan tashqari ko'p tarkibiy qismlardan qay biriga alohida, katta e'tibor berishni bilmay qoladilar.

Ikkinchi rasmiy bosqich (pog'ona) bu bayon va yangi materialdan xususiy bilimlarni olish (sintez).

Bunda bayon ob'ektiv bilimlar bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi.

Agar qisqa bayonda katta xususiyat va tushunchalar berilsa, o'quvchi tushunishga qiynalib qoladi. Bu holda katta hajmdagi bayon va mavzudan birinchi darajali bilimlarni ajratib olib, ta'lif bosqichini soddalashtirishimiz maqsadga muvofiq. Bu jarayonni ham o'ziga xos kamchiliklari mavjud. Bo'linib o'qitilayotganda bizga tegishli mavzuning qismlari rango-rang, bir-biridan farqi keskin bo'ladi.

O'quv materialini yangi xossalarni ko'rib chiqib, ularni ikkilamchi xossalardan ajratib olish ijobiy natijalarga olib keladi. O'quvchining fikrlash qobiliyatি hisobga olinib, o'quv materiali o'qitilishi lozim. Bu holda, o'quv materialining asosiy qismlarini taftish qilish, nazorat qilish

oxir oqibat yangi materialni qaytarishga va o'quvchi ongiga singishiga olib keladi. O'quvchi berilgan darsni qanchalik o'zlashtirib olganini uni bu dars mavzusini asosiy xossalari va mazkur mavzuni shaxsiy tushunishini bayon qilib berishidan ilg'ab olsak bo'ladi.

O'qituvchini o'z o'quvchisida ish va o'qishga qiziqtirish uyg'otish san'ati (jalb qilish san'ati). Pedagoglar ko'p hollarda faqat o'quvchiga talablar qo'yib, o'z ma'suliylariga e'tibor bermaydilar. O'qishga va ishga o'quvchilarni jalb qilish, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchining mahorati qanchalik yuksak bo'lsa, o'quvchilariga ta'siri shunchalik yuksak bo'ladi. Ishga bo'lgan muhabbat va qunt o'z ichiga umid va omadni olgan qat'iy ishonch bilan chambarchas bog'liq. Qunt mana shu ishonchni ko'rsatkichidir. O'qituvchining birinchi vazifasi o'quvchini o'ziga be'lgan ishonchini tarbiyalashidadir. Agar o'qituvchi o'quvchida o'zining yutuqlari va omadiga ishonish tuyg'usini tarbiyalay olsa, u o'z maqsadiga erishishda yarim yo'lni bosib o'tgan bo'ladi. Iqtidorli va harakat qiluvchi oquvchilarda o'z yutug'iga ishonish tuyg'usi bor. Iqtidorli o'quvchilarni o'ziga ishonchi o'qituvchilarsiz ham yetarli. O'ziga ishonch tuyg'usi kam yoki umuman rivojlanmagan o'quvchilarga o'qituvchi o'zining ta'sirini kuchaytirishi kerak. Agar o'qituvchining talablari o'quvchilarning imkoniyatlari bilan tenglashmasa, haddan tashqari katta talablar mehnatga bo'lgan layoqatini susaytirib, yomon kayfiyat va zimmasiga yuklangan ishga ongsiz yondashishga olib keladi. Bunday yondashish salbiy oqibatga olib kelib, o'quvchining tafakkuriga yomon ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'qituvchilar ish yoqmas bo'lib, o'zları yaxshi tayyorlanib kelmaydilar. Mavzularni o'quvchilarning zimmasiga yuklab, berilgan vazifalarni uyda oilasi bilan yoki repititor yordamida bajaradi. Aslida bu vazifani yechimini topish

o'qituvchilarning zimmasida bo'lmog'i lozim. Darslar qanchalik mexanik tarzda berilgan bo'lsa, aynan shu tarzda so'rab olinadi.

Talablar me'yoriy darajada bo'lsa, o'quvchini o'ziga bo'lgan ishonchi ortishi bilan u oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Agar biz ishimizni boshida zaif o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab tursak, ularning harakatiga e'tibor berilsa, tez orada biz yaxshi natijalarga erishamiz. Shu bilan birga iqtidorli o'quvchilar, qoloq o'quvchilar saviyasiga haddan tashqari tenglashib ketmasligi lozim, chunki bu sinfni o'qishga bo'lgan ishtiyoqini susaytiradi. Ayniqsa kichik sinflarda, biz aniq vazifa va savollar berib bu vazifalarni yechish yo'llarini ko'rsatib o'tishimiz kerak. Bundan so'ng uy vazifasi mustaqil bajarilganiga ishonishimiz mumkin.

O'quvchilarni yoshiga qarab, ularga beriladigan uy vazifasini hajmi aniqlanadi. Sinf yuqorilab borishi bilan, o'quvchilarga ko'proq mustaqillik berish kerak, shu bilan birga uy vazifasini berayotib uni bajarish uchun qancha vaqt ketishini chمالаб ko'rmog'imiz shart. Bizning kasbdoshlar ham bu o'quvchilarga aniq vaqtga belgilangan vazifalar berishlarini esda tutmog'imiz lozim. Shunday qilib biz quyidagi xulosaga keldik: O'quvchilarga talablar qo'yilganda ehtiyyatkorlik lozim, ammo me'yoriy talablar qo'yib bo'lingach ularni bajarilishida qat'iyatlik kerak. Eng avvalo, biz bergan vazifa ijobjiy bajarilishiga e'tibor berishimiz lozim. O'nta qiyinchiliklarga to'la yaxshi bajarilmagan vazifadan, bitta to'g'ri yechim topgan soddarroq vazifa ko'proq natija va foyda beradi. Agar qoniqarsiz javoblarni soni ko'p bo'lsa, o'qituvchi buni o'z ta'lim uslubidan qidirishi kerak.

Ta'lim jarayonida erishiladigan natijalarni ijobiliigi oshishi uchun o'qituvchi o'quvchilar uchun murakkab bo'lgan barcha unsurlarni olib

tashlashi, yoki ularning yechimini topib berishi kerak. Misol uchun, grammatik qoidalarni ular tushunarli bo'lgandagina yodlatish zarur.

Agar eski va yangi mavzular orasida tafovut mavjud bo'lib, eski mavzu a'lo darajada o'zlashtirtilmagan, yangisi esa hali yetarlicha aniqlanmagan bo'lsa, biz ko'zlagan maqsadlarga erishish ancha mushkul. Ya'ni bunday ish tutish shoshqaloqlik bo'lib, o'quvchini ishlashga bo'lgan ishtiyoqini susaytiradi. Yangi mavzuda noaniqlik eski aniq tushunchalardan ustun kelgan holda, biz noaniqliklarning kamaytirib astasekin o'quvchilarga mustaqillik berishimiz mumkin. Ko'p hollarda o'quvchilarga bir necha yengilgina ko'rsatmalar berib o'tsak kifoya. Agar biz bunday qilmasak o'quvchilar mustaqillikni paydo bo'lishini kitob orqali chegaralaydilar. Ayniqsa, insho yozish borasida bundan ehtiyyot bo'lish lozim. Biz qo'ygan yuqori talablar o'quvchilar uchun murakkab bo'lib, ularni qondirish uchun o'quvchilar o'z ishlarida birovni fikrini va yozish uslubini qo'llaydilar (kitoblardan foydalanadi).

Talablarni me'yorda qo'yish kerak. Chegaradan chiqmasdan yordam berish lozim. Talablarni bajarishda qobiliyatli, odil, talabchan bo'lish kerak. Agar biz o'quvchilarga qo'yilgan talablarni aniq bajarishni o'rgatsak, ko'p narsalarga erishishimiz mumkin. O'quv yilida kerakli soatlar berilgan bo'lib, bu muddat ichi biz talablar qo'yib, ularni bajarilishini nazorat qilsak bo'ladi.

Yozma ishlarni tekshirishda xatolarni iloji boricha haqqoniy tarzda, tez tekshirmoq lozim. O'quvchilar ongida yozma ish haqida taassurot qolganligidan foydalaniб, uni tuzatib borish foydadan holi emas. Shu bilan birga biz har bir o'quvchiga xos xatolarni topib borib, bu xatoni qilish uchun o'quvchiga nima ta'sir ko'rsatganini ham anglab yetishimiz, har bir

o'qituvchiga alohida yondashib uni ichki kechinmalaridan, ruhiy va ma'naviy olamidan boxabar bo'lib turishimiz kerak. Bunday e'tibor o'quvchida o'qishga va o'z ustida ishlashga qiziqishini uyg'otadi. Agar ko'pchilik o'quvchilarni xatosi bir xil tarzda bo'lsa, o'qituvchi aybni o'zidan izlashi kerak.

Kamchiligi bo'lgan, ammc vijdonan bajarilgan ishlarni yuqori baholamagan holda ham, ularni maqtab o'tish lozim. O'quvchini fandan, o'qituvchidan va o'qishdan xafsalasi pir bo'lishdan yomonroq hodisa yo'q. Oxir-oqibat o'quvchilarda o'qishga nisbatan qiziqishini uyg'onishi ularni maktab rejasidagi majburiy fanlardan tashqariga qiziqish bilan qarashga undaydi. Bunda o'quvchilarni nafaqat bilim saviyasi, balki dunyoqarashlarini hajmi ham yuqorilashib boradi.

Agarda bizni harakatlarimizga qaramay o'qishga, ishga bo'lgan qunt va qiziqish bo'lmasa, bunga sababchi bo'lgan omillarni izlash lozim. Agar o'quvchilarda bir fanni o'zlashtirish yuqori, ikkinchisi esa past darajada bo'lsa, biz o'tkan barcha mavzularimizni tekshirib dangasalik va tushunmovchilikka sabab bo'lgan omillarni topishimiz darkor. Agar biz dangasalikni ayrim hollarda yakka tarzda uchratsak, bu o'quvchida fikrlash qobiliyatini pastligini yoki fikrlash tezligi past darajaligini avvalgi asosiy bilimlar chuqur o'zlashtilimaganligini, o'quvchi dasrga yuzaki oqibat qilayotganiga guvohlik beradi. Demak, biz bu dangasalik sabablariga alohida yondoshmog'imiz darkor. Avvalambor o'quvchini o'qishga sa'lbiy yondashishi haqida ota-onha bilishi kerak, agar ular iqtidori past "o'quvchini" nima bo'lmasin oldinga olib chiqishmoqchi bo'lsalar uy sharotida bolaga alohida, ko'proq e'tibor berishib, u bilan shug'ullanishsin. Fikrlash qobiliyatini past bo'lgan o'quvchilar ikki sababdan

o'zlashtirishda qolib ketadilar: 1) jismoniy; 2) ma'naviy sabab. Jismoniy sabablar bo'lsa o'qituvchi o'quvchini ayashi, unga qo'yiladigan talablarni chamalashi kerak. Agar ma'naviy sabab duch kelsa, bu yerda o'zlashtirish va o'qishga bo'lган qiziqish yuzakiligini, yoki o'quvchi taltayib, intizomdan yiroqlashganini bildiradi. Bu holda sababni uydan izlash kerak, chunki bolasiga haddan tashqari ko'p yordam ko'rsatadigan ota-onalar uni yalqovlikga yetaklaydilar desak xato qilmaymiz. Bunday o'quvchilar mustaqil fikrlay olmaydilar.

Yana bir omilni esda tutishimiz kerak: Ayrim o'quvchilar gapirishdan, darslarda qo'l ko'tarib javob berishdan hijolat bo'ladilar. Ana shu ham o'quvchidagi qiziqishni belgilangan salbiy chegaradan chiqmaslikka olib keladi.

Har bir bola o'ziga yarasha qiziqishlariga ega bo'lib, biz shu qiziqishini o'zagini topib olsak bu bizni yutug'imiz. Ammo biz yuzakilik, yalqovlikga duch kelganimizda ish rejamizga, talablarimizga me'yor qo'yib ularni izchil tarzda amalga oshirishimiz va talab qilishimiz mumkin. Bunday o'quvchilarga to'xtovsiz savollar, talablar bilan ta'sir o'tkazish lozim. Agar o'quvchi dangasaligi unga ko'p muammolar tuig'dirayotganini ko'rsa, u mehnatkashlik yalqovlikdan ko'ra foydaliroqligini tushunib yetadi. Bolalar yalqovlikdan har doim ham rohatlanavermaydi, ayrim hollarda ular o'zgalarga xush yoqish uchun ham harakat qilib qo'yishadi. Agar o'qituvchi shunday namoyishkorlikdan foydalaniб shu harakatni ushlab qolsa, u dangasa o'quvchiga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi.

Hech qanday vaziyatda jazolashga o'tmang, chunki yalqov o'quvchi jazosini olib, mehnatdan qutulganiga mamnun holda qoladi. Shu bilan

birga taqdirlashdan ham qochish loz̄ın. Agar taqdirlash faqat undov sifatida qo'llanilsa u tez fursatda o'zini yoqimli hislatlarini yo'qotadi va bundan keyin taqdirlashni ko'paytirish, hajmini oshirishni talab qiladi. Agar o'quvchi o'qishdagi qiyinchiliklarni o'zini irodasi bilan yengib chiqsa buni, qo'llab-quvvatlash lozim. Hayron qoldirishga va yuzaki ajralib turishga ruju qo'ygan o'quvchilarga ham sovuqqon bo'lish kerak. To'g'ri ular o'z mehnatlari uchun yetarli taqdirlanishlari shart, ammo bu harakatlarni ko'z-ko'zlashga, ajralib turish uchun bajarilgani, o'quvchilarda ijobjiy ruhiy hislatlarni yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun bunday manmansirashlikni mакtabda ibrat sifatida ishlatmaslik lozim. Oxir-oqibat bu mensimaslik va takabburlikka olib keladi. Bundan ko'ra o'quvchilarda kamtarona g'urur tushunchalari hosil bo'lishiga erishib, ularni o'qituvchi, ota-onalar va boshqa maktabdoshlarga hurmatni o'rgatish shart. Oxir-oqibat bola o'zini ham hurmat qila boshlaydi, ya'ni o'z yutuqlarining saviyasini tushurib yubormaslik uchun yana ham ko'proq mehnatga kirishadi. Har bir ishda, xoh u o'qish bo'lsin, xoh dars tayyorlash, quntni o'zi kerakli maqsadga erishish uchun yetarli emas. Buning uchun, eng avvalo jo'shqinlik, tetiklik va chuqur qiziqish bo'lishi kerak. O'qituvchi bergen ta'lidan rohatlanishi, o'zini va o'zgalarni yutuqlariga xayrixoh bo'lishi, har qanday vaqtida yordam qo'lini cho'zishga tayyor bo'lishi kerak. Shu shartlar amalga oshganida sinf va o'qituvchi orasida bog'liqlik paydo bo'ladi. Shunda qunt oxir-oqibat ijobjiy odatga aylanib boradi va natijada o'z-o'zidan kelib chiqadigan bo'ladi.

E'tibor. Amaliy pedagogika qunt va e'tiborni o'zaro bog'liqligini e'tiborga olib ko'rsatib berishi kerak. Diqqat-e'tibor va uni kelib chiqaradigan omillar haqida ko'plab gapirish mumkin.

O'quvchidan diqqat e'tiborni talab qilib, biz uni oldiga quyidagi talablarni qo'yamiz: o'z aqlini, anglash qobiliyatini yangi materilani o'zlashtirishga yo'naltirish; tushunchalar, qoyidalarni, yoki eski bilimlarni eslashga va ularni qo'llashga tayyor bo'lish va hokazo. Biz biron-bir jismga, hodisaga diqqat qilsak, bu narsa irodaga bog'liq bo'lmay, hissiyot, qiziqish olamiga o'tib ketadi. Biron narsaga e'tibor berishga har xil motivlar, sabablar bo'lishi mumkin. Bular qiziqsinish, burch hissi, ayrim hollarda o'qituvchini ta'siri yoki jazodan qo'rquv, taqdirlanishga intilish va boshqalar.

Ko'p hollarda o'qituvchi o'quvchilardan yoshligidanoq diqqat-e'tiborni talab qilib oladi, aslida ular hali diqqat-e'tibor qilish uchun yetarli irodaga ega bo'lmasligi mumkin. Ba'zan o'quvchilarni ruhiy holatini ko'zdan qochiramiz. Atrofdagi kuzatsa bo'ladigan ruhiy kechinmalmalni hayotniy voqealarni o'quvchilarga xos emas deb fikrlash noto'g'ri. Bolalardan e'tiborni yuqori darajada talab qilib, ulardagi mayjud xohish-ihтиори so'ndirib qo'yamiz. Aslida bunday talabni hattoki o'zimizga, yoki boshqa katta yoshdag'i insonlarga qo'yish ham, yuqori darajada zo'riqishni hosil qilishini kuzatsa bo'ladi.

Diqqat-e'tibor bu keyinchalik rohat bag'ishlaydigan, o'z istaklarini qondirish niyatidan kelib chiqadigan psixologik xodisadir. Misol uchun bola diqqat-e'tiborini qo'g'irchoq teatriga qaratsa, u qo'g'irchoqlarni o'yinidan zavqlanadi, yoki zavqlanish uchun diqqat-e'tiborini qo'g'irchoq teatriga qaratadi. Havoyi insonlar ko'pincha biron-bir masalaga uzoq muddat jiddiy e'tibor berisholmadilar, ammo agar ularni qiziqishini uyg'otsangiz ular bajonidil irodasini to'plab, siz ularni tassarufuga topshirgan narsaga e'tiborini qaratadilar. Demak bizning maqsadimiz

anglanmagan diqqat-e'tiborni vujudga keltirish, shuni shakllantirish, boshqarish va chuqurlashtirishdir.

Agar diqqat-e'tiborni o'zimizga jalb qilib, bolalarda zavqlanish tuyg'usini paydo qilsak, natija a'llo darajada bo'ladi, dars kam zo'riqish bilan o'tadi, aksincha diqqat-e'tibor uchun iroda va matonatni jalb qilsak natijada zo'riqish paydo bo'ladi va natijalarimiz ko'rsatkichi ham past darajaga tushib qoladi.

O'quvchilarni ham tushunmoq kerak, endi maktabga kirib kelgan o'quvchilarni hayoli ko'pincha ko'chada, o'yinlarda, o'zini do'stlarida bo'ladi. Maktab esa bu hayollarni chetga surib tashlashni taqoza etadi. O'qituvchini darsi uslubiy jihatidan to'g'ri bo'lsa ham, ammo bu o'quvchiga zerikarli, sun'iy ovoz bilan berilayotgan dasr kabi tuyulib, o'zlarini o'qituvchini qahrligiga qarab o'tirib quloq solayotgandek xis qiladilar. Ular xayolida ko'chada quyosh, o'yin, ko'lmaq, maydoncha ularni kutib turgandek. Shuday xayollar og'ushidan sug'urib olingen bolal o'zini to'rt devor orasiga tushib qolganday xis qilsa, har darsda o'zgarib turadigan fikr-mulohazalar, o'qituvchilarni dars mavzulari uning uchun oddiy kuzatishdan iborat bo'lsa, bu o'quvchini o'qishga bo'lgan ishtiyoqini susaytiradi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchini nafaqat ongiga ruhiyati, qalbiga ham ta'sir o'tkazishi kerak.

O'qituvchini o'quvchilar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib, so'ngra bu e'tiborni uzoq muddat qo'lida ushlab turishi bu san'atdir. Zaltsman aytganidek: "o'quvchilaringizni har bir sa'lbiy qilig'i va xususiyati sizning aybingiz, agar o'qituvchi o'ziga yetarli darajada tanqid ko'zi bilan qaray olsa demak u to'g'ri yo'lida va kelajakda yaxshi tarbiyachi bo'ladi". Xuddi shu qoyidani diqqat-e'tiborga ham qo'llasak bo'ladi:

1) o'qituvchi o'zi e'tiborini bir joyga jamlasni kerak;

2) o'z ishiga o'zini, borlig'ini berishi kerak.

Kerakli joyda o'z ishidan mammunligini, chuquer quvonechini yashirmsaligi kerak. Chunki o'quvchilar ko'proq kayfiyati ko'tarinki, yaxshi bo'lgan o'qituvchini bajonidil tinglashadi. O'qituvchi o'quv materialini qismlarga bo'lib, o'zaro bog'lashni bilishi kerak. Chala, ma'nosiz matnqan, bir-biriga bog'laninagan o'quv materialidan zerikarliroq, tushunarsizroq narsa yo'q. Bundan tashqari o'qituvchi ohangni tanlab olishi kerak, bir xil, ravon ohang uyquga chorlaydi. Ohang qattiq ammo baqirib emas, jonli ammo shoshilmasdan, xotirjam, ammo zerikarli bo'llmasin. Vaqtida qo'yilgan urg'u, ovozni mazmunga qarab ko'tarilishi va pasayishi, so'z va jumlalarni chertib-chertib ifodali aytib ketilishi, muddatli tanaffuslarni qisqarishi o'quv materialini o'zlashtirishda ijobiy natijalarga olib keladi. Kerakli fursatda ovozni balandlashtirib tanaffus qilish ham diqqat-e'tiborni o'ziga jalb qiladi. Diqqat-e'tibor o'quvchilarni joylashuviga ham bog'liq. Illoji boricha o'qituvchi aylanib yurishdan o'zini tiyishi lozim. O'qituvchi aniq bir joyni egallagach butun sinfni ko'rib chiqishi kerak. Agar o'qituvchi biron-bir o'quvchida e'tiborsizlikni bilib qolsa, unga ko'z qarash bilan diqqat-e'tiborini kerakli yo'nalishga tushirib qo'yishi mumkin. Agar nigohni o'zi yetarli bo'llmasa, qo'l bilan yengil harakat qilishning o'zi yetarli. O'qituvchi aniq bir o'quvchi bilan ish olib borib, sinfni ham ko'zdan qochirmsaligi kerak. Savol berishda eng avvalo, butun sinfga murojaat qilish lozim. Illoji boricha berilayotgan javobni kitobdan ko'rib ayttirmaslik zarur. Diqqat-e'tiborni bir joyga jamlash uchun o'quvchini tik turg'izish kerak. Agar sinf charchagan bo'lsa, diqqat-e'tiborni bir joyga jamlash uchun o'quvchilarni bir

necha bor turg'uzib otirg'izish qo'l keladi. Sinfga savoi tashlaganimizdan so'ng, javob beruvchilarning soni kam bo'lsa, "men sinfga savol berdim(sizlardan so'rayapman)!" deb aytib qo'yish yaxshi natija beradi. Javobdag'i kamchiliklarni o'quvchilar to'g'rinasin. Sinf doimo javobni to'g'ri berish uchun javobgarni, so'zlarini kuzatib turishi lozim. Iloji boricha o'quvchilarda izlanishga bo'lgan muhabbatni, qiziqishni uyg'otish lozim. O'quvchi o'zi tushunib olishi mumkin bo'lgan narsalarga, biz ishora qilib qo'ysak bas, o'zi izlab, topib, javob berishga qiziqqan o'quvchi tez orada o'quv materialini o'zlashtirib oladi. Dars jarayonida o'quvchilarni zo'riqtirib qo'ymaslik uchun tanaffus berish lozim.

O'qituvchining talablari o'quvchining kuchi yetadigan darajada bo'lishi kerak. O'quvchini o'z kuchi, ongiga ishonchi paydo bo'lgan joyda diqqat-e'tibor berish odati mukammalashadi. Agar o'qituvchi o'quvchiga barcha narsani tayyor holda bersa, u yerda mustaqillik, harakat so'nadi. Harakat yo'q joyda esa, qiziqish, qiziqish yo'q joyda esa, e'tibor yo'oqa chiqadi.

Haddan tashqari yuqori talablar o'quvchini e'tibor va qiziqishini uyg'otmaydi. Butun mavzuni to'liq berib qo'ygan o'qituvchi o'quvchilarni sustikashlikga chorlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. O'qituvchining uslubiyotga munosabati qanday bo'lishi kerak?
2. O'qituvchining darsga tayyorgarligini gapirib bering.
3. Darsdag'i kayfiyat qanday bo'lishi lozim?
4. O'qitish san'atining elementlari qaysilar?
5. Tasvirlash san'ati nima?
6. Tushuntirishga qo'yilgan talablarni sanang.
7. Savol berish va javoblarni eshitishda nimalarga etibor berish lozim?

3-bob. Maktabdagagi tarbiya jarayoni

1-§. Maktab intizomi

Bu fasida tarbiyani ta'limga ta'siri, ichki va tashqi intizom, yaxshi urf, qdatlar, intizomni individual tarbiyaga munosabati kabi masalalarni ko'rib o'tamiz..

Ta'lim orqali tarbiya berish mumkin. Chunki har qanday ta'limning maqsadi tarbiyadir. Chinakkam maktab intizomi tarbiyadan ajramaydi, to'g'riroq'i ta'limdagi barcha ma'naviy, tarbiyaviy ta'sir va iroda rivojlanishiiga qaratilgan barcha ta'limiy uslublar o'quvchilar bilimi va tarbiyasida ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun tarbiyachi maqsadni aniq qo'yib, yahshi ta'lim bersa, o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Maktabning tartiblari va intizom biz qayd etib o'tkan omilga nisbatan ikkinchi darajali va hizmatchi, qo'shimcha vazifani bajaradi. Lekin ularni o'ziga xos ahamiyatini ham chetga surmaslik lozim. Ma'lumki, maktabda ko'p sonli bolalar jamlangan bo'ladi. Natijada har xil temperamentlar, xarakterlar, erkaliklar va hatto intizomsizlik bu yerda bir-biri bilan to'qnash keladi. Bunday holda maktab tartiblari va intizom ta'lim bilan birqalikda barcha salbiyliklarni olib tashlashi kerak. Maktab jilovda bo'lishi lozim, ayniqsa qiziqqon o'g'il bolalarni maktab intizomi orqali chegaradan chiqib ketmasliklari uchun ushlab turish kerak. Suning uchun ham qattiq-choralardan qo'rqaşlik kerak. Qunt va intizom barcha ta'lim turlaridagi ijobji natijalarning asosidir. Bu ta'lim va intizom o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Ko'p holiarda qattiq intizom o'matilgan maktab, oldinga qo'yilgan qat'i maqsadlar o'quvchilarni individual tashabbusini bo'g'adi degan fikrda bo'linadi. Aslida individual tashabbus yo'q bo'lgani bilan, piz

balalarga yuksak odob va bilim beramiz. Intizomiga o'rgangan bola chegaradan chiqib ketmaydi, erkalab, yuzaki individualizinga ro'ju qo'ymarydi. Agar biz individualizmni har bir talabiga ko'nib yashasak, tez orada intizom chegarasidan chiqib ketib, tartibda tanazzulga yo'l qo'ygan bo'lamiz.

Maktab intizomi biron-bir shovqinsiz namoyon bo'lishi kerak: ko'zga tashlanmas odat va yaxshi urf-odatlar intizomni eng yaqin tayanchlari bo'lib, direktor va o'qituvchilarni o'zaro birligida namoyon bo'ladi. Direktor nafaqat "ma'muriyatchi" bo'lishi kerak, balki iloji boricha tartib va intizom o'rnatishda o'z lavizimidan va o'qituvchilik haq-huquqlaridan foydalanishi zarur. Rahbar nafaqat yozma buyruqlar bilan, balki yakkama-yakka suhbatlar, ishontirish va kelishuvlar bilan ish tutishi kerak. U o'z kasbdoshlari bilan nafaqat tashqi intizom haqida, balki ichki birdamlik, yakdillik haqida o'yashlari shart. Rahbar nimaiki qilmasin, ishning foydasi uchun qilinyapti degan fikri tasdiqlashi kerak. Intizom sinf rahbariga ham bog'liq. Sinf rahbari o'z ishida kasbdoshlari bilan birdamlikda, bamaslahat ish yuritishi zarur. Kerakli joyda o'z maqsadiga erishish uchun o'qituvchiga emas, o'quvchilarga yon bosmog'i ham shartdir. Har bir o'qituvchi o'z imkoniyatini sinfdagi intizom, demakki, ta'lim foydasi uchun sarflashi kerak. O'qituvchi sinfdagi yakdillik ruhini boshqarishi zarur. Bu ruh yaxshi odob va yaxshi urf-odatlarni keltirib chiqaradi. O'qituvchi o'zining kasbdoshi qo'llagan biron-bir chorani, so'z yoki boshqa ishora bilan tanqid qilmasligi kerak. Xuddi shu kabi o'qituvchi, o'z fanini boshqa fanlardan ustun qo'ymasligi lozim. Maktabda har bir fan o'z o'miga ega bo'lib, barchasi o'z hurmatiga ega bo'lishi shart. Bir o'qituvchi yo'lga qo'ygan narsani, ikkinchisi buzmasligi, o'z kasbdoshini yomon qilib ko'rsatmasligi lozim.

Iloji boricha o'zgalar haqida (ayniqsa ota-onalar, do'st haqida) kerakli darajada hurmat bilan gapirish lozim. To'g'ri, har kimni o'z oqibati, o'z o'yfikri bor, ammo maqtash mumkin bo'limgan joyda, hech bo'limganda bosiqlik bilan gapirmoq lozim. O'quvchilar ta'sirchan va sezgir bo'lganliklari uchun, bizni kichkinagina ishoramizdan juda katta ta'sirlanadilar va tez fursatda kerakli xulosa chiqarib olishadi. Yaxshi tartib va qonun-qoyidalar, urf-odatlar yozma nizomlarni natijasida kelib chiqmaydi. Shuning uchun yozma maktab nizomi ta'lim-tarbiyaga oid barcha shartlarni o'z ichiga olishi kerak: maktabga qabul, qilish chiqib ketish, tashrif buyurish, imtiyozlar, kasalliklarga oid qonun-qoidalar va hokazo. O'quvchilarni mayda chuyda talablar bilan cheklamslik kerak.

Xuddi shu kabi qonun-qoidalar, jazolar turi haqida ma'lumotlar ham yo'q bo'lishi kerak. Chunki o'qituvchi o'quvchiga qo'llaydigan jazo turi uni individual xususiyatlariiga bog'liq.

Maktab tartiblari qanchalik qattiqo'l bo'lmasin, biror o'quvchini o'ziga xos xususiyatlarini yomon hislat deb hisoblanmasligi kerak. Intizom o'quvchidagi salbiy, ya'ni ta'limga halaqit beradigan barcha qusurlarni olib tashlashi kerak, ammo o'quvchini o'ziga xosligiga tayangan holda, ta'lim borasida ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga intizom o'quvchilarda yo'q hisatlarni paydo qilishi mumkin. Ammo individual tarbiyada biz o'quvchini o'zidagi bor barcha yaxshi hisatlarni rivojlantirishga harakat qilishimiz kerak. Intizom o'quvchining erkini chegaralaydi, ammo uning vazifasi intizomga va ta'lim-tarbiyaga qarshilik qiluvehi unsurlarni yo'qotishdir. Bolani erki hali mustahkamlanmagan bo'ladi, shuning uchun u nazoratsizlik orqali turli oqimlarga, yoki ichki salbiy odat va hisatlarga berilib ketishi mumkin. Bu salbiy ta'sirlar bilan

kurashish lozim. Tashqi erkni chegaralab, chinakam o'zini idora qilishni hosil qilish va haqiqiy erkni qutqarib qolish kerak. Intizom o'quvchidagi ijobjiy hislatlarni mukammalashtirib, rivojlantirishi lozim.

Bo'y sunish(itoat). Qaysarlik. Bo'y sunmaslik. Odob va axloqqa oid mulohazalar. Tartib-qoidani va intizomni asosi bo'y sunishdir. Kimki bolani itoatgo'ylikka o'rgatib, buni uning ikkinchi odati qilib qo'ysa u har qanday natijalarga erishadi. Eslatib o'tish joizki, bolada mehr va itoatga bo'lgan ehtiyoj bo'ladi. Eng avvalo, intizom uchun kurashishda o'qituvchini o'zi namuna bo'lishi kerak. U iloji boricha o'ziga tanqidiy nazar bilan qarab, o'ziga katta talablar qo'yishi lozim, qo'l ostidagilarga esa yon bosmoqni, me'yoriy ta'ablar qo'yishni bilishi shart. O'qituvchi bergen buyruqlar aslida ishonchli va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi mакtab tartib-buyruqlarini ma'muriyatning "ermagi" deb qabul qilsa, u holda o'qituvchi o'quvchiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mакtab ma'muriyatini hurmat qilmaslikka, demak, itoat etmasligiga olib keladi.

Itoatda katta ahamiyat, berilgan buyruqning ohangi, shakliga qaratiladi. Agar o'qituvchi puxta o'ylab qo'ygan ish yoki vazifani buyursa, o'quvchi gap-so'zsiz itoat qilis'i kerak. Agar o'quvchi o'qituvchi bilan bahslashsa bu o'quvchi o'zini o'qituvchiga teng qo'yanligidan darak beradi. Itoat tanlash huquqini tan olmaydi. Yuqori sinflarda buyruqni do'stona nasihat (maslahat) shaklida berish mumkin va o'zimizni asos hamda isbotlairmizga piching (ishora) qilib qo'yishni o'zi yetarli. Ma'naviyat yoki tartib-qoida'lar haqida uzundan-uzun nasihat qilishni keragi yo'q.

O'quvchi o'qituvchining faqat aqlii va asosli buyruqlar berishini anglab tushunishi kerak. Har qanday intizom va ko'rsatmalar aynan shu ishonchga tayanadi. Aynan shulardan kelib chiqqan holda, o'qituvchi

ishonchga sazovor bo'lishi kerakligini isbotlashi kerak. Buning uchun o'qituvchi ayrim o'quvchilarga hayrixohlik qilayotganida, jazolayotganida, qaysarliliklarga chora ko'rayotganida ehtiyoj bo'lishi kerak. Ma'naviy barkamollikdan kelib chiqqan jiddiylik, mehr bilan uyg'unlashib, o'qituvchini xususiyati bo'lib qolsa u ishonch qozonadi. O'qituvchi aqliy va jismoniy zaif o'quvchilarga o'ylab, o'Ichab talablar qo'yishi kerak. Shu bilan birga, ayrim o'quvchilarga ularni kamchiliklarini tushunishimizni ta'kidlasak, bu bolalarda o'qituvchiga nisbatan ishonch benihoyat oshadi. Buyruq va ko'rsatmalarni ohangi jiddiy, xotirjam, bukilmas irodani ifodalab turishi kerak. Baqir-chaqirni keragi yo'q, chunki ovozni balandlashtirishi o'qituvchini o'ziga nisbatan ishonchi yo'qligini ko'rsatadi. Ovozda qo'pollik va vaysaqilik ohanglari bo'lmasligi kerak. Yoshlardagi sho'xliklarga nisbatan haddan tashqari qattiqqo'l bo'lmaslik lozim. Chunki, vaqt o'tishi bilan bu sho'xliklar ham o'tib ketadi. Jiddiy bo'limgan hollarda ma'qullash yoki ma'qullamaslik shaklida yoki nigoh, ishora bilan o'quvchi o'zini intizomga chaqirib olishi kerakligini tushunishi lozim. O'z buyruqlarini do'q-po'pisa (qo'rqtish) bilan bog'lamaslik kerak, chunki itoatgo'ylik bunda o'qituvchini buyurg'iga asoslanib emas, qo'rquv tuyg'usidan kelib chiqadi. Bundan tashqari jazodan qo'rqish yolg'on va o'z ishlarini yashirishga olib keladi. Chinakam pedagogik mahorat mayda-chuydaga e'tibor bermasdan haddan tashqari ko'p narsani talab qilmasligi lozim. Bizni qarshimizda yosh, hali o'z hatti-harakatlari uchun tayyor emas inson o'tiriganini esdan chiqarmaslik kerak. Ko'rsatma'lar berishda ularning sonini ko'paytirmaslik zarur. Chunki haddan tashqari kuzatishlar asosiy va ikkilamchi talablarni aralashtirib yuborib, o'quvchini chalg'itadi. Kam buyruq bergan insonlar

oxir-oqibat o'ziga qarama-qarshi gapirishdan qutulib qoladi. Bundan doim saqlanish kerak, hech qachon kechagi buyruqni bugun bilan, ertaga beriladigan buyruqni berayotib, bugunni esdan chiqarmaslik, yo'q qilmaslik lozim. Har bir buyruqni talabi uni bajarilishidir, shuning uchun buyruqni izchil tekshirib borish, uni bajarilishida qat'iy turish lozim. Ammo tekshirib borish mumkin bo'lmagan narsani talab qilinmagani ma'qul. Yaxshi, har taraflama chuqur o'ylab chiqilgan buyruqlar hech qachon bekor qilinmasligi kerak.

Itoatgo'ylik borasida har xil yoshda turlicha yondashish lozim. Kichik sinflarda qo'pol qarshilikni uchratish mumkin, bu yerda otalarcha munosabat ko'proq qo'l keladi. Ko'pincha kichik sinflarda qaysartlik uchrab turadi. Agar qaysarlik ochiq oydin bo'ysunmaslikga olib kelsa, bu holda eng keskin choralar qo'llash lozim. Chunki qaysarlik boshqa ko'pdan-ko'p salbiy odatlarga olib keladi. O'quvchi qaysarlik bilan hech narsaga erisholmasligi kerak. Bunga o'qituvchi ham yo'l qo'ymasligi zarur.

Ayniqsa, o'rta sinflarda intizomga qat'iy rioya qilish kerak. Aynan shu sinflarda o'qituvchini turish-turmushi tanqid qilinib, unga laqablar qo'yiladi. O'quvchi o'ziga qarab, tanqidga sabab bo'ladigan xatti-harakatdan saqlanishi lozim. Katta inson har bir itoatsizlikni qat'iy to'xtata olishi kerak. Yuqori sinf o'quvchilariga o'qituvchi iloji boricha muloyim, ammo talabchanlik bilan muomala qilishi kerak. Iloji boricha bunday muomalani ko'proq qo'llash darkor. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar bunday muomaladan mamnun bo'lishadi. Agar sinfda o'qituvchi hatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa, intizom yuqori saviyada bo'limasa, yoki burch tushunchasi rivojlanmagan bo'lsa, bularni barchasi yuqori sinf

o'quvchilarida mustaqillik va erkinlikga nisbatan noto'g'ri tushunchalarga olib keladi. O'qituvchi va o'quvchi orasida tushunmovchilik, itoatsizlik, qarshilik vujudga kelsa iloji boricha tez va qattiq choralar qo'llamasdan, o'z xatti-harakatlarida hato bo'lgan yoki bo'lmananini o'ylab ko'rish kerak. Agar xatolik bo'lgan bo'lsa, noto'g'ri xatti-harakatimizni to'g'rilashimiz lozim. Buning uchun asossiz talablarimizni buyruqdan olib tashlab, qolganini qat'iyatlik va xotirjamlik bilan buyursa bo'laveradi. Xato qilganimizni tan olishimiz foydadan holi emas. Agar o'quvchi o'z xatosini tan olib, ammo o'ylanib, yoki qarshilik ko'rsatib kechirim so'rasa, uni gapini bo'lib darsdan keyin holis suhbatlashganimiz ma'qul. Iloji boricha vaysaqilikdan, uzundan-uzun nasihatlardan, kinoya va piching, so'kishlardan saqlanish lozim. Bularning barchasi bolalarda qarshilikni keltirib chiqaradi, va oxir oqibat bu tashqariga ko'chib chiqadi. O'qituvchi xafagarchilikdan saqlanishi lozim. Xafagarchilik maktabni intizomiga va tartib qoidalariiga zid ravishda bo'ladi. Hech qachon bolani o'ylab qilinmagan harakatini, o'qituvchini o'ziga qarata ataylab qilingan harakat deb tushunmasligi kerak. O'zini sohta jasurligini sinfdoshlari oldida ko'rsataman degan o'quvchilar bilan, o'qituvchi iloji bo'lsa yolg'iz gaplashishi kerak. Sinf ichida uni intizomga chaqirish, unda bema'ni mardligini ko'rsatish istagini uyg'otadi. Ammo o'quvchiga yolg'iz gaplashib ham ta'sir ko'rsata olmasak, sinf, direktor va maktab kengashi, ota-on, jamoatchilik unga to'g'ri yo'lni ko'rsatib qo'yishi mumkin. Itoatsizlikning oldini olish, unga chora ko'rishdan ma'qulroq. Har qanday itoatsizlikni oldini odob va mulozamat bilan olish mumkin. Odob va mulozamatda chekinish darrov seziladi va o'quvchini to'g'ri yo'lga boshlaydi. Aqliy rivojlanishda va odobda hali murg'ak, yosh bo'lgan

o'quvezidan aqliroq bo'lganimiz uchun, biz unga muloyim munosabatda bo'lishimiz kerak.

Endi tartibga bo'lgan muhabbat, uning ahamiyati, sinf rahbarining burchi va vazifalari, sinf jurnali, ish rejasi, mакtabda, sinfda va darsdag'i tartib, darslar jadvali, o'qituvchilar tartibni saqlovchilar sifatida, tozalik, vaqtini taqsimlash kabi masalalarga to'xtalamiz.

Maktab, tartibga nisbatan muhabbat uyg'otib, saqlab, rivojlantirishi kerak. Tartib-intizom o'qituvchini, sinf va maktabni eng ijobiy hislati bo'lishi zarur. Tartbini saqlash uchun har bir mayda-chuydaga e'tibor berish lozim. Chunki mayda-chuydadan bir butun narsa tashkil topadi. Maktabda e'tiborga noloyiq mayda narsa yo'q, ammo o'ta maydakashlikdan saqlanish ham kerak. Har bir inson o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishi darkor. Agar director o'qituvchilarga aniq bir imtiyozlarni bergan bo'lsa, u o'zi bergan bu imtiyozlarga xalaqit bermasligi lozim. O'qituvchi ham chegaradan chiqib, imtiyozni suiiste'mol qilmasligi shart. Direktor sinf rahbarsiz biron-bir o'quvchiga chora-tadbir ko'rmasligi lozim. Ko'rilgan chora-tadbirlar o'qituvchini obro'siga ziyon etkazmasligi kerak.

Sinf rahbari ota-onalar, o'qituvchilar, direktorning talablarini hisobga olib ish yuritishi kerak. Kasbdoshlar ham tartibni o'yashlari, sinf rahbarni qo'li ostida ta'lif va tarbiyaviy masalani yechimini topish uchun harakat qilishlari zarur.

Sinf rahbari intizomni qo'lda tutib turolmaydigan o'qituvchiga qo'lidan kelgan yordamni ko'rsatib turishi kerak. Iloji boricha uni ko'maksiz va himoyasiz qoldirmasligi lozim.

O'qituvchi sinf jurnalida yutuq, topshiriq, vaqt taqsimlanishini va ish tartibini yozib borishi kerak. Jurnal o'qituvchilarни kuzatishlari va xulosalarini birlashtirib turib, sinf haqida aniq, ravshan ma'lumot beradigan shaklda yuritilgan hujjatdir. Jurnal qismlarga bo'lingan bo'lib, uning asosiy qismida dars jadvali, uy vazifalari, kech qolishlar, o'tilgan mavzular yozilgan bo'lib, ikkinchi qismiga o'quvchilarni o'zini tutishi, odob-axloq va diqqat-e'tibori, ota-onalar haqida ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Jurnalda o'quvchi haqidagi ma'lumotlar aniq bo'lishi shart. O'qituvchi aniq, asosli sabab va hodisalarini sanasini, mohiyatini yozishi kerak. Bir mayda tartibbuzarlikni kattakon muammo qilib, bo'rttirib o'quvchini yomonlar qatoriga qo'shib qo'ymaslik kerak. O'qituvchi ishni izchil olib borish uchun ish rejasini tuzib olishi kerak. O'quv yilini boshidayoq o'qituvchilar darslar sonini va soatini aniqlab, jurnalga kiritishlari shart. Sinf rahbar jurnalga kiritilgan fanlarni ro'yxatini ko'rib, o'quvchilarni zo'riqishidan, toliqib qolishidan, darslarni chegaralash yoki boshqa kunga o'tkazish kabi masalalar haqida qayg'urishi mumkin. Sinf rahbari o'quvchilarga dars daftarlарini tutishda tartibli bo'lishni o'rgatishi kerak, bu ishda tartib, intizom o'rnatilishiga yordam beradi. Noaniq yozilgan darslar va uy vazifalari oxir oqibat dangasalikka olib kelishi mumkin. O'qituvchi tartibga rioya qilishi uchun o'quvchilarga berilgan vazifalarni ro'yxatini aytib berib yozdirishi shartdir. Agar o'quvchilar orasida qoloqlari bo'lsa, unga sherigi yoki kuchliroq o'quvchi yordam berishi kerak.

Sinfxonalar ozoda bo'lishi, o'quvchilar sinfga kelishi bilan iqtidori bo'yicha, yoki sog'lig'iga (ko'rish qobiliyati past, qulog'i og'ir) nisbatan

inobatga olinib berilgan joylariga borib o'tirishlari lozim. Sinf o'qituvchini tik turgan holda kutib olishi, o'tirganda to'g'ri o'tirib, bir qatorda bo'lishlari shart. Oyoqlar chalkashtirilmasligi, ustma-ust qo'yilmasligi, qo'llar parta ostida bo'lmasligi lozim. Agar bularga amal qilinmasa, buyruq orqali tuzatishlar kiritish shart. Sinf va o'quvchini o'zi ozoda bo'lishi kerak. Sinf xonada stol va stullar toza, barcha narsa (qog'oz, ruchka va h.k.) o'z joyida bo'lishi kerak. Tanaffusga o'quvchilar o'zini tutish qonun qoidalari bo'yicha saf-saf bo'lib chiqishlari kerak. Buni kichik va o'rta sinflarda qo'llash mumkin. Sinfdag'i intizomni saqlash uchun navbatchi o'qituvchi sinfdan o'z o'mniga navbatchi o'quvchini saylashi mumkin. Bu o'quvchi sho'x bolalarni familiyalarini yozib olishi kerak bo'ladi. Navbatchi o'quvchini har kuni almashtirish lozim, toki sinfdoshlar uni sotqinlikda ayblashmasin. Navbatchi o'quvchi nafaqat qorovullik, balki ma'muriy vazifalarni ham bajarishi kerak. Chunki qorovullik vazifasi faqat kuzatishni va aybdorlarni jazolashni talab qilsa, ma'muriy javobgarlik turi shkaf, bo'r va boshqa anjomlarni asrashni taqozo etadi. O'qituvchi navbatchi o'quvchiga nisbatan hayrixoh va muloyim munosabatda bo'lishi kerak. Agar bu navbatchilikka yarasha qonun-qoida va me'yor saqlansa ular ijobiylarga olib keladi.

O'quvchilar darsga kechikmasdan kelishlari lozim. Bunda o'qituvchini o'zi ularga namuna bo'lishi shart. O'qituvchi kechga qoluvchilarni kutmasligi va ularuni darsiga halaqt berishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Ammo dars boshlanishidan ancha ilgari kelib, sinfda shovqin ko'tarilishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Kech qolgan o'quvchiga chora sifatida va o'zgalarga o'mak bo'lsin deb, uni sinf eshigi oldida ushlab turishi mumkin. Doim kech qoladigan o'quvchilarni har kuni darsdan o'n soniya

avval navbatchilar oldiga kelib, o'zini qayd etishlarini so'rashlari kerak. O'qituvchi, asossiz ravishda o'quvchilarni sog'lig'i uchun zarur bo'lgan tanaffuslarda ularni ushlab qolmaydi, bundan tashqari keyingi o'qituvchiga darsdan xorib charchagan o'quvchilarni qoldirish, o'qituvchiga nisbatan nohaqlikdir. Darsda iloji boricha vaqtini o'tkazmaslik kerak. O'quvchilar kitobni kerakli vaqtida ochishlari, zarur paytda yopishlari, savollarni uzuq-yuluq, tushunarsiz qilib bermasliklari, javoblarni berishda vaqtini yo'qotmaslikka e'tibor berishi kerak.

2-§. Rostgo'ylikni tarbiyalash

Rostgo'ylikni tarbiyalash. O'qituvchini rostgo'yligi, ishonch va ishonchsizlik. Ishonchsizlikka munosabat, yolg'on va majburiy yolg'on. Yolg'onlar, sohtalashtirish. Maktabdag'i qonun-qoidalarga zid harakatlarni o'rganish.

Maktabni vazifalaridan biri rostgo'ylikni tarbiyalashdir. Rostgo'ylik ma'naviyat ko'rsatkichidir.

Gyote aytib o'tkanidek, o'qituvchi sinfda oddiy, tabiiy va erkin ishlashi lozim. Erkin degani hech qanday xarakatsiz degani emas, chunki o'qituvchi doim o'zini-o'zi idora qilib, xatti-harakatlarini tahlil etib yurishi kerak. O'qituvchini har bir xatti-harakatida oddiylik va samimiylilik bo'lishi unga nisbatan o'quvchilarni ishonchini ortishiga olib keladi. O'qituvchi o'zini quyidagi xatolardan saqlashi kerak: birinchi galda bu o'quvchilarga nisbatan haddan tashqari qattiqqo'llik. Bular o'quvchilarda yolg'onchilik va riyokorlik paydo bo'lishiga olib keladi. Agar biron-bir o'quvchini nigohidan bizga tana (tanbeh) qilib qarayotganini ko'rib qolsak, uni darsdan keyin olib qolib, nima sababdan bunday ahvolga tushib

qolganligini so'rab ko'rish zarur. Natijada bu o'quvchida sizga nisbatan ishonch uyg'onadi. Qattiqo'llikga yaqin turadigan yana bir salbiy hislat bu qasoskorlikdir. Allaqaqachon unut bo'layozgan hodisa yoki qiliqni eslab, o'quvchini yolg'on gapirishgacha olib borish yaramaydi. Kimniki ko'p va qattiq jazolasak, u yolg'onchilikdan qaytmaydi, o'z makrini o'qituvchini aldash darajasida makr hiylagacha olib boradi.

O'qituvchini o'zini kamtarona xizmatidan o'z atrofida shov-shuv, ko'zga tashlanishdan, oldinga chiqib olishdan, har tekshiruvda ko'zbo'yamachilik qilib, ajoyib darslar berishga intilishi o'quvchilarda ham ikkiyuzlamachilik va tilyog'lamachilikka olib keladi. O'qituvchini o'quvchilarga nisbatan tabaqasiga qarab munosabatda bo'lisi ham o'quvchilarga slabiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir salbiylik, agar o'qituvchi o'z chora va tadbirlarida doimiy qarashlariga vafodor bo'imasdan, naychadek shamolda u yon bu yonga egilaversa, yaxshi kayfiyatda unday, yomon kayfiyatda esa bunday oqibat va muomala qiladigan bo'lsa, u o'quvchilarda riyokorlikning kelib chiqishiga, ikkilanishlar paydo bo'lismiga olib keladi. Haddan tashqari sodda, ishonuvchan o'qituvchilar ham o'zining aldashlariga ishonib o'tiravermasdan, oxir-oqibat uni aldayotganligini bilishi kerak. Buning aksi sifatida ishonchsizlik ham o'quvchilarning o'qituvchiga nisbatan ishonchliroq, kattaroq yolg'on va sabablar ishlatishiga olib keladi. Kimki hech bir narsaga ishonmas va har bir harakatdan qing'irlik izlar ekan u o'quvchida qiziqishni so'ndiradi. Aytib o'tganimizday sinfga navbatchi tayinlashda ham ehtiyyotkorlik darkor, o'quvchi o'qituvchining ayg'oqchisi bo'lib qolmasligi kerak. O'quvchilardan biriga boshqa o'quvchining otanasiiga berib qo'ysh uchun xat va kundalikdag'i yozuvlarni bermaslik

kerak, chunki ular ma'naviy jihatdan hali mustahkam emas. Natijada xat egasiga etib bormasligi mumkin. Shuning uchun bunday xolat, javob qani deb so'talganda yolg'onga olib keladi. O'qituvchi iloji boricha o'z tarafiga ko'proq o'quvchilarni og'dirib olishi kerak. Shunda sinf birligi, uning yakdilligi va samimiyligi saqlanib qoladi.

Agar o'qituvchi ayrim hollarda kerakli ma'lumotlarni esdan chiqarib qo'ysa, yoki bilmasa u buni tan olishi kerak. Bunday rostgo'ylik o'qituvchi va o'quvchi orasida kerakli, samimiy munosabatlarga olib keladi.

Yolg'onni har turli ko'rinishini ham qoralanishga loyiq. Ammo bolalarni yosh xususiyatlarni ham e'tiborga olish kerak. Kichik yoshdagи bolalarda yolg'on ko'pincha ziyrak, xayolparast bolalarda fantaziya (xayoili) sababchi bo'lib kelib chiqadi. Ular aldashni istamaydilar, ammo xayoli ularni bunga yo'naltirib turgan bo'lsa ham, bu xayol doim ro'yo bilan bog'liq bo'ladi. Maktab bunday yolg'onlarni kechirmasligi, shu bilan birga ularga nisbatan qattiq choralar ko'rmasligi ham kerak. Ammo agar bu xayollar uni taltaytirib yuborsa, ko'z bo'yamachilik, maqtanchoqlik illatlariga olib kelsa, buning ildizi bilan yo,q qilmog'i lozim.

Maktab hayotida bor haqiqatni bo'rttirib ko'rsatish hollari uchrab turadi. Ayniqsa, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rgan choratadbirlarni yolg'on qo'shib "dahshatli" qilib ko'rsatish, ota-onaning mehr-muhabbati bilan birlashib kutilmagan natija larga olib kelishi mumkin. O'quvchi qaysarlik bilan o'zi "haqiqatida" oyoq tirab turib olsa qiyin, bu holda o'qituvchi ishini joyida va uzil-kesil hal qilishi kerak.

Majburiy yolg'onlar ham maktabda ko'p uchraydi. Bularning paydo bo'lishiga sabab qo'rquv, vijdoni pok emasligi, biron bir hodisada o'zini aybdor his qilishidir. Eng achinarlisi bu yolg'onning sababini izlab so'roq

o'tkazayotgan vaqtimizda, aslida samimiy bo'lgan o'quvchi ham "bilmayman"ga o'tib oladi. Jinoyatni sodir etuvchilar ommaviy javobgarlikdan qochish uchun foydalanib oqlanib qoladilar. Rostgo'y bo'laman degan insonlar esa, soxta tushunchalar orqali qo'rqaq va sotqinga chiqariladilar. Agar so'roq-savol mahalida o'qituvchi ehtiyyot bo'lib, tiliga zeb beravermasa, bu ishni haqqoniy hal etish mumkin, ammo baqir-chaqirlar bolani haqiqatga teskari qilib qo'yishi mumkin. Har bir gumanoni tashqariga chiqarishdan oldin isbotlamoq darkor. Riyokorlik, xiyla, yolg'onchilik jazosiz qolmasligi lozim, agar o'qituvchi surishtiruv ishlarini olib borarkan u iloji boricha aybdor deb hisoblangan, amno tan olmagan o'quvchilar bilan yakkama-yakka, yuzma-yuz gaplashishi maqsadga muvofiq. Izlanishlarni boshlashdan avval baqirish, do'q-po'pisa qilish, aybdorlarda c'z ishidan mammuniyatni, zaharhandalikni, piching va kulguni ham olib keladi. Aybdorga qo'shib butun sinfni ham jazolash haqqoniylikka to'g'ri kelmaydi. Undan ko'ra sinfga ishonmay qo'yaningizni ochiq-oydin gapirib qo'yaningiz ma'qul.

Izlanishlarda qo'lingizga kelib tushgan chaqimchilik ma'lumotlari uchun taqdirlashdan tiyiling, chunki bunday qo'llab-quvvatlash oxir oqibatda ikkiyuzlamachilikga olib keladi. Bundan tashqari chaqimchilar keyinchalik o'zini "dushmanim" deb hisoblagan har bir sinfdoshini qoralab tashlashga intiladilar. Ammo katta ishlar sodir bo'lganda aybdorning ismi aniq aytilishi kerakligiga qattiq turing. Rost gapni eshitganingizdan so'ng esa, bu gapni tasdiqlab, isbotlashga untilmang. Agar siz o'z c'quvchilariningizni oddiy "ha" so'zini samimiy gapirishga o'rgatgen bo'lsangiz, u holda, marra sizniki.

Taqdirlashning ahamiyati. Maqtov va ma'qullah

Aslida barcha o'quv fanlari o'zlarining ichki saviyasi, asosi bilan o'quvchilarga izlanishda rohat, o'qishda ham lazzat totish darajasida bo'lishi lozim. Albatta, bu darajaga yetib borish qiyin masala. Taqdirlash va bir o'quvchini boshqalardan ajratish oxir-oqibat uning manmansirashiga olib keladi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Ammo o'quvchini taqdirlashning boshqa usullari ham bor, bular ma'qullah, ya'ni o'qituvchi o'zini yaxshi kayfiyati, o'quvchiga nisbatan munosabati bilan ifodalanishi mumkin. Bular alohida o'quvchida, sinfda va hattoki butun bir mакtabda quvonch, mehnatsevarlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Har qanday maqtovda ham inson me'yorni bilishi kerak. Ammo bu umumani maqtamang degani emas. Maqtovlar berishda ham biz xatolar qilishimiz inumkin, misol uchun bir o'quvchini yutuqlari uchun maqtab bo'lganimizdan so'ng u darsga diqqat-e'tibor ko'rsatmay qo'yadi yoki ikki yuzlamachini maqtaganimizda u bu soatda maqtovdan mamnun bo'lib, ikkinchi holda yana o'zini avvalgi holatiga qaytadi.

Eng yaxshisi o'quvchi shunga mos bo'lsa, uni maqtash lozim. Har bir yutugi, ijobjiy natijasi uchun o'quvchi ma'qullanib kelishi, buning uchun o'qituvchi har qanday yo'lni tanlashi mumkin.

Maqtov qayd etish emas, o'ylab ko'rib natijaga yarasha se'z orqali maqtovni ifodalashdir.

Jazolash. Jazolashning maqsadi va uning turlari

Jazolashdan maqsad qilingan salbiy xatti-harakatlarni boshqa qaytarilmasligi uchun ogohlantirish, qo'rqitish, chora ko'rishdir va jazoni qo'llashdir. Demak, jazolashning maqsadlari insonni noto'g'ri xatti-

Harakatdan va ularni amalga oshirishdan muhofaza qilish, bu harakatlarni qaytarmasligining oldini olish va o'quvchini to'g'ri yo'lga solishdan, intizom va tartibni har qanday salbiy ta'sirdan muhofaza qilishdadir.

Jazolashda ham taqdirlashdagiday biz birinchi o'rinda adolatli bo'lishimiz shart. Jazolash har bir salbiy harakatga qo'llanib u na oilaviy sharoitga va na oila mavqeiga bog'liq. Jazolash vaqtida ham birinchi galda me'yorni saqlashimiz, tartibga rioya qilishimiz shart. Haqqoni bo'limgan jazolashlar ham o'quvchida ichki g'azabni paydo bo'lishiga olib kelib, o'quvchini diqqat e'tiborini susaytiradi va hattoki o'quvchida o'qituvchiga nisbatan adovat paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Agar jazolanuvchi o'z xatti-harakatlarini biron bir usul bilan oqlashga intilsa, yoki uning aybi to'liq isbotlanmagan bo'lsa, u holda, qattiq chora-tadbirni qo'llamaslik zarur. Jazolashning qattiqligi icki g'ururga a'ya uyatga ta'sir ko'rsatadi. Yoki har holda bu tuyg'ułarni zaiflashtirib, kamaytiradi.

O'qituvchi o'quvchiga uning xatolarini eslatib turmasligi kerak. G'ururi yo'q inson tuzalishga, oqlanishga harakat qilmay qo'yadi. Bu holda har qanday jazolash ham o'z natijasini bermaydi.

Jazolashni uzoq muddatga qoldirib bo'lmaydi. Jazolagandan so'ng o'ziga adovat tuyg'usini qaratmaslik uchun, o'qituvchi o'quvchini tinch qo'yishi kerak, ammo bu unga e'tibor bermaslik kerak degani emas.

Jazolashni ikki guruhg'a bo'lish mumkin: O'quvchini g'ururiga ta'sir etuvchi jazolar va uni erkini chegaralovchi jazolar. Har qanday jazolash g'ururni rivojlantirishga uni qo'llab quvvatlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Agar jazo bu maqsadni ko'zlamagan bo'lsa bu jazolanuvchi va jazolovchi uchun qiyonoqni bir turi bo'lib qoladi. So'zsiz nigoh bilan tanbeh berish ham, o'qituvchini amaliy quroliga aylanib qolishi mumkin. Sho'x,

parishonxotir o'quvchilarni jiddiy, qoralovchi nigoh bilan tartibga chaqirib qo'yish mumkin. Darsda tartib va e'tiborni susayganini ko'rsak, to'xtab, o'quvchilarga xotirjam, ammo ichki kuch va qat'iy ishonch bilan nigoh tashlashimiz etarli.

O'qituvchi so'zsiz qo'lni, boshni yengil qimirlatishi bilan, o'quvhiga yengil qo'lini tekkizishi bilan tinchlantirishi mumkin. Yesh o'qituvchi bu chora-tadbirlar kuchini oxirigacha chuqur anglab yetib, qo'llamaydilar. So'zsiz tanbeh berish bilan birga, so'z bilan tanbeh berish usuli ham mavjud. Har turli ohanglarga turlanuvchi va surli tuyg'ularni ifodalovchi ovoz ham o'quvchilarni intizomda saqlab turishiga yordam beradi. Ko'pincha o'qituvchilar ovozlarini balandlatib, buyruq ovozda gapirishga intiladilar, bu noto'g'ri yo'l, chunki bunda o'quvchi o'zini yo'qtib qo'yib, o'qituvchi nima sababdan baqirganini anglamay qoladi. Yuqori ohangni tanlagan o'qituvchi uni yana o'sha darajaga ko'tara olmasa jazolash turiga o'ta boshlaydi. Shunday qilib, ohang past bo'lsa, keyinchalik uni yuqorilatib, kerakli natijalarga erishishimiz mumkin. Agar bu usullar natijasiz qolsa, unda qoralash, e'tirof etish usullarini qo'llash mumkin. Bunda biz kerakli ohang bilan birga, kerakli ibora va jumtlarini tanlashimiz lozim. Doimo va har qanday sharoitda qo'pol hamda ko'cha so'z va iboralarни qo'llamaslik asosiy shartlardan biridir. Bunday so'z g'ururni ezib tashlab, uni zaiflashuviga, o'qituvchiga nisbatan adovat va hurmat pasayib ketishiga olib keladi va xattoki o'qituvchini kulgili ko'rsatib qo'yishi mumkin.

Ba'zan piching hamda kinoyani ham ishlatish mumkin, ammo pichinglar insonni ustidan kulishga aylanib ketmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi quvnoq, o'quvchilarni sevib, ularga hayrixon

munosabatda bo‘lishi kerak. Kinoyani takabbur, o‘z bilimlarini o‘ta yuqori darajada deb baholaydigan insonlarga qollanishi yaxshi natija beradi. Biz bu bilan uni takabburlikka chorlagan soxta bilimlar sarob ekanligini ko‘rsatib berishimiz mumkin. Ammo hech qanday holatda zaif, iqtidorsiz o‘quvchilarga bunday piching va kinoyalar bilan murojat qilmaslik lozim.

Uzundan –uzun nasihatlardan ham saqlanish lozim. Ko‘p hollarda o‘quvchilarni ismini aytsak unga yetarli bo‘ladi. Bunda biz kuchli va ishonarli qilib o‘quvchining qalbiga o‘qday qadaladigan so‘zlarni aytsak kifoya. Uzundan – uzun nasihatdan so‘ng o‘quvchiga zinhor va bazinhor aybinga iqrormisan deb savol bermaslik kerak. Agar o‘quvchi bunga javoban “ha” desa, unda biz nima sababdan, qo‘rqqanidanmi yoki chindan ham o‘z aybiga iqrorligidanmi tushuna olmaymiz. Ammo agar o‘quvchi “yo‘q” degan javobni bersa, yoki o‘zining qaysarligi oqibatida boshqa javob qaytarsa, o‘qituvchi yana nasihat qilishga o‘tishi kerak, ammo bular kerakli natijalarga olib kelavermaydi.

Har qanday holatda ham yig‘loqi, rahm – shavqatni chorlaydigan so‘zlarni gapirmaslik lozim. O‘qituvchi o‘zining o‘quvchidan ma’naviy va ruhiy ho‘latda ustunligini ko‘rsatib turishi lozim. Yuqori sinflarda do‘stona munosabatda gaplashish lozim, ammo bunda ham chek – chegara bor, do‘stonalik oxir – oqibat “tili qisiqlilikka ” olib kelmasligi shart. Ammo oliyjanob, chinakkam qahrni qo‘llashdan qo‘rmaslik kerak, o‘qituvchini qahrini ko‘rmagan o‘quvchilar bu hollarda ancha intizomga kirib qoladi. Iloji boricha qo‘rqitishdan saqlanishimiz lozim. Chunki qo‘rqituvchi gaplarni jahli ustida aytgan bo‘lsak va zarur paytda uni amalga oshira olmasligimiz mumkin. Qo‘rqitish boshqa chora – tadbirlar ta’sir qilmagan fursatda aytilishi mumkin. Iloji boricha sind rahbar va direktorga arz bilan

kamroq murojat qilish kerak. G'ururi baland o'quvchilarini sinf oldida so'kish va ogohlantirish har qanday natijalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun "suhbat" uslubini tanlab olish, o'qituvchining o'ziga bog'liq. Aybdorni butun maktab o'quvchilarini oldida so'kish, yoki tanbeh berish usulini faqat maktabni intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hollardagina qo'llash mumkin. Bunda aybdorni ismini aytmasdan gapirish ham mumkin, gap o'z egasini topib oladi. Bundan tashqari o'quvchilarini ko'pchiligi kimni nazarda tutib gapirganimizni bilishadi, shuning o'zi kifoya.

Yozish, qayd etish ham jazolashni ta'sirini kuchaytirish omillari qatoriga kiradi. Kerakli, tanlangan jumlalar va iboralar majmuasi sinf jurnaliga yozilishi mumkin, ammo bu yozuvlar ko'payib ketmasligiga e'tibor berishimiz kerak. O'quvchi og'zaki va yozma ravishda qanchalik ko'p tanbeh olsa, shunchalik uning ichki dunyosi, diydasi qattiqlashib boradi.

Yaxshi o'quvchilarini jurnalda "salbiy" qayd etish, ularni intiluvchanligini, o'qishga qiziqishini susaytiradi. Chunki biz ularni hurmat saviyasini yuqoriga ko'tarib qo'yganmiz, uni yerga urish boshqa o'quvchilar oldida "sharmanda" qilishday gap.

Jurnalga ayrim hollarni aniq yoritib yozmasdan, u haqida umumiylar xulosa chiqarish ham yaramaydi. Chunki xulosa bir qator salbiy xatti – harakatlardan keyingina chiqariladi. Jurnalga faqat faktlarni kiritishimiz lozim. Shundan keyingina sinf rahbari bu ma'lumotlarni to'plab, o'quvchi haqida xulosa chiqarishi mumkin. Ko'rildigan chora o'quvchilarini qilgan qiliqlarini soniga qarab emas, ahamiyatiga qarab ko'rishi kerak. Xulosani uyga xabar qilishda ham ehtiyyot bo'lish shart. Chunki har qanday

ma'lumotimiz o'quvchilar ota-onasi tarasidan katta e'tiborga olinib, ular tomonidan qo'shimcha kuchli ta'sir vositalarni qo'llashga olib kelishi mumkin. Agar ota-onalarga har safar mayda tafsilotlar bilan birga bolasini har bir harakatini etkazadigan bo'lsak, oxir-oqibat ularni bu tafsilotlarga ahamiyat bermaslikka olib keladi. Barcha xatti-harakatlar haqida ota-onaga etkizish maktab va o'qituvchini o'ziga ishonmasligidan dalolatdir. Agar ota-onalar maktab bilan hamkorlikda bolalarini kamchiligiga qarshi ijobjiy chora-tadbir ko'ra olsagina, ota-onalar bilan birga chora ko'rildigan sabablar bo'lsagina, ota-onaga ma'lumot berish lozim.

O'quvchiga alohida joyni ko'rsatib jazolash usuli ham bor. Ammo bu usul o'quvchini g'ururiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Profilaktika maqsadlarini ko'zda tutib dangasa, sho'x, gapdon bolalalarni oldi qatorga o'tkazish foydadan holi emas. Chunki uni joyida kuzatishimiz mumkin bo'ladi. O'quvchidagi ijobjiy o'zgarish orqali uni o'z joyiga qaytarish mumkin.

Diqqat-e'tbiori sust o'quvchilarini tik turg'izib qo'yish mumkin emas, chunki uzoq tik turgan bola tez aqliy charchaydi, jismonan toliqadi. Aynan shu hodisaning oldini olish bizni niyatimiz bo'lishi kerak.

Sinfdan chiqarib yuborish usuluni ikki holdagini qo'llash mumkin:

- 1). Agar o'quvchi gapga kirmaydigan darajada qaysar, betga chopar va uni sinfda qolishi dars va intizomga katta salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa.
- 2). O'quvchi yoki o'qituvchi qizishib o'z xatti-harakatiga javob berolmay qolishdan qo'rqa. Boshqa hollarda o'quvchini sinfdan chiqarib yuborishga haq-huquqimiz yo'q. Bundan tashqari, tarbiyasiz va havoyiroq o'quvchilar sinfdan chiqarib yuborishdan havotirlanishmaydi, aksincha, hursand bo'lishadi.

Sinfdan chiqarib yuborib, uni ortidan yana ham keskinroq chora kerak bo'lgandagina o'quvchini sinfdan chiqarib yuborish mumkin. Boshqa chora-tadbirlar sirasiga, erkinlikni chegarlash usullari kiradi. Bu jazoni eng yengil turi o'quvchiga bo'sh vaqt bermaslikdir, bunda o'quvchiga maxsus ish, vazifa beriladi. Masalan, yaxshi yozilmagan yozma ishlarni yangidan puhta, ozoda yozib chiqishni talab qilish mumkin. Ammo bu holda, o'quvchini ko'p vaqtini olib, haddan tashqari yuqori talablarni qo'yishdan asranmog'imiz kerak, chunki bu o'zga fanlarga vaqt qoldirmaslik va ularga nisbatan loqaydlik bo'lib hisoblanadi. O'quvchi nimaiki ishni qo'l uchida qilgan yoki aksincha, bajarmagan bo'lsa, uni o'sha ishni bajarishga buyurishimiz lozim. Jazolash turlaridan yana biri bu darsdan keyin o'quvchilarni aniq muddatga olib qolishdir. Iloji boricha o'quvchini o'z holiga qo'yib qo'yish lozim, ana shundagina tarbiya chorasi ko'zlagan maqsadlarga olib keladi. Har qanday jazoni o'z vaqtida berish lozim. Berilayotgan jazoni susaytirish ham mumkin. Agar o'quvchi jazodan yaxshi tarafga o'zgarayotgan bo'lsa, unda uni jazodan ozod qilishimiz shart.

O'quvchini jazolash muddati bo'lib, bu jazo ba'zi sabablarga ko'ta to'la olinmasligi mumkin. Bunda jazoni ta'siri sust bo'ladi. Masalan, jazo muddati vaqtida jazoni helgilagan o'qituvchini o'rniqa boshqa o'qituvchini bo'lishi, o'quvchilarni jazo muddatini sermazmun, xushvaqt o'tishini ta'minlashi mumkin. Yoki kuzatuvchini qo'lidan intizomni ushlab turish kelmagan hollarda, o'quvchilar o'z jazo muddatlarini istagancha o'tkazishlari muunkin.

Agar o'qituvchi ta'sir ko'rsatish choralarini barchasini qo'llagan bo'lsa, u holda, oxirgi chora sifatida ota-onas bilan ittifoqda o'quvchini

tarbiyalashga harakat qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchini o'z oldida olib qolib, yakkama-yakka shug'ullanishi kerak. Bunda o'quvchi zo'r berib o'qituvchi tomonidan berilgan vazifani bajarishi shart. Bu usulda o'quvchi o'qituvchini doimiy kuzatuvi ostida bo'ladi va o'z ustida ishlashga majbur bo'ladi. Albatta, bu usul o'qituvchiga ham noqulayliklarni olib keladi, ammo o'quvchini yosh qalbini tarbiyalash uchun o'qituvchi o'z vaqtini ayab o'tirishi lozimmi? Agar barcha qo'llanilgan choralar o'quvchini ahloqiga tas'ir ko'rsatib, uni tuzatmasa bunda maktab rahbari va o'qituvchilar kengashida bolani taqdiri masalasi ko'rib chiqilishi kerak.

Agar o'quvchi o'zgarsa, ammo bu hol jazodan qo'rqqani uchun bo'lsa, u holda, o'quvchini yana bir xatosi uchun yana ham qattiqroq jazo kutayotganini ta'kidlab, uqtirib o'tish kerak.

Agarda o'quvchi yuragida ma'naviy to'ntarilish ro'y bergan bo'lsa, u holda, uni ochiq oydin kechirmoq va bu haqida uni o'ziga aytish lozim.

Shunday qilib har bir jazolashda ehtiyojkorlik kerak. Shu bilan birga jazolash faqat aybdor shaxslarga nisbatan qo'llanishi lozim. Intizom jazolash orqali egallanilmaydi. Jazolarni maktabda ko'p qo'llanilishi ichki nufuzni zaifligini bildiradi.

O'quvchilar javobini baholash, og'zaki baho. Yozma javoblarni yozma baholash. O'quv yilini yirik qismalarida oraliq baholash. O'quvchilarini odob-axloqi, qunti, diqqati va javoblarini baholash. Javoblarni yutuqlarga mutanosibligi. Javoblarni baholashda jumlalarni tanlash.

Ko'p hollarda o'qituvchini og'zaki boholashi, uning su'bektiv holatiga, ya'ni salbiy kayfiyatiga va taassurotlariga bog'liq bo'lib qoladi. Shu qabilidagi baholashlarda, gohida o'quvchini eslab qolish qbiliyatini

tezligi, ibora va so'z tanlash qobiliyatini boshqalarga qaraganda yuqoriroq bo'lishi, fanlardan o'zalshtirish saviyasi turli bo'lishi foyda berishi yoki inobatga olinmay qolinadi. Bunday baholashda, ko'proq haqqoniylig bilan baholash, o'zini xulosasini asoslab, yana bir bora o'ylab chiqish lozim.

Yozma ishlarni yozma baholashda nafaqat xatolarning umumiy hisobini, balki mazmunni, ijodiylikni va h.k.larni hisobga olib, umumiy baho qo'yilsa maqsadga myvofiq. Buning uchun oddiy ibora va atamalardan foydalanish mumkin. Mustaqil bajarilgan ishlarda, qat'iy belgilangan iboralar(atamalar) yetarli bo'lavermaydi, shunda ishning bajarilishi yuqori yoki past darajada bo'lganligini ko'rsatib, qo'yilgan baho asoslab berilishi kerak. Yozma ish yaxshi bajarilmagan bo'lsa ham, biz qunt va sabotni hisobga olib, yuqori baholaganimizni ko'rsatib o'tishimiz kerak. Baholashdan tashqari, o'quvchi o'z maqsadiga erishishi uchun nimalarga ahamiyat berish kerakligini qisqacha yozma ravishda ko'rsatib o'tish foydadan holi emas. Yozma ishlар topshirilgandan so'ng, ulami orasidan namunaviy bir ishni o'qib berilishi kerak, toki bularning birisi boshqa o'quvchilar uchun namuna bo'lib qolsin. O'quvchi bunda manmansiramasligi uchun, o'qib beradigan o'quvchilarni almashtirib turish lizim. Ko'pchilik o'qituvchilarning kamchiligi, ular atamalarni ishlatishda ehtiyyotkorlik qilishadi. Misol uchun, "juda yaxshi" iborasida birinchi so'zni tashlab ketib "yaxshi" so'zini qoldirishadi va bunday yozishda hech qanday xato yo'q deb e'tirof etishadi. Agar yozma ishning mazmuni qoniqarli, yozilish uslubi esa yuqori darajada bo'lsa, hech ikkilanmasdan "yaxshi" iborasini ishlatish mumkin, ammo yozma ish har tomonlama yuqori saviyada bajarilgan bo'lsa, "juda yaxshi" iborasini qo'rqlay ishlatish mumkin. Tilga oid yozma ishlarda 1 yoki 2 ta xato

uchun biz “yaxshi” iborasini qo’llashimiz mumkin. Ammo xatosi yo’q, biz nazarda tutgan fan yo‘nalishi bo‘yicha xatolar bo‘lmasa, mazmunan to‘g‘ri shakllanib ketilgan bo‘lsa, biz yozma ishni hajmiga, yozma ishda uchrab turgan qiyinchiliklar soniga, o‘tgan mavzumizga bog‘liqligiga qarab baho qo‘yamiz. Yilning boshida biz o‘quvchilarni o‘tgan yilgi talablarga nisbatan baholaymiz. Bunda o‘quvchilarga ozroq yonbosish kerak. Tanlangan mavzu yengil bo‘lishi, keyin asta-sekin murakkablashib borishi lozim. Uy vazifalarini baholashda, eng asosiy e’tiborni vazifani mustaqil bajarilganmi yoki yo‘qligiga e’tibor berish lozim. O‘quvchi mavzuni qanday o‘zlashtirganligini bilish darkor. Tanqid qilishda biz qo‘pol so‘zlarni ishlatmasligimiz kerak. Odob, qunt, diqqat-e’tibor va yutuqlar uchun qoyiladigan baholar hammaga zarur bo‘lib, ota-onasiga e’tibor berish kerakligini biladi. O‘z bolalarining bilim saviyasini, kamchiliklari va xatolari bilan tanishib chiqadilar. O‘quvchilar o‘zlarining javoblarini esga olgan xolda, o‘zlarini baholashlari mumkin. O‘qituvchilar esa yil oxirida qo‘lga kiritgan yutuqlarini va yana nimalarga intilishlari lozimligini aniqlab olishadi. Buning uchun baholash asta-sekin har kuni, har chorakda qo‘yib borilishi kerak. Agar biz o‘quvchini baholashda faqat so‘nggi javoblarga tayanadigan bo‘lsak, biz o‘quvchilarning iqtidori, bilim saviyasini xato belgilagan bo‘lamiz. Baholashda har doim keyinchalik oila va maktab orasida yaxshi munosabatlar saqlanib qolishi kerakligini o‘ylash lozim. Baholash aniq, qisqa va lo‘nda yozilishi lozim. Bunda iloji boricha qo‘pol, keskin so‘zlardan qochishimiz kerak. Bularning barchasi har bir o‘qituvchi tarafidan yozib chiqilgandan so‘ng, o‘qituvchilar kengashiga ko‘rib chiqilishi kerak, kengash ayrim qarama-qarshiliklarning yechimini topib, har bir o‘quvchi haqida xulosa chiqaradi. Birinchi galda xulq-atvor

haqida xulosa chiqariladi. O'quvchi maktab qonun-qoidalariga, ma'naviyat talablariga nisbatan qanday munosabat bildirganligini bilishi kerak. Agar o'quvchi biron-bir xatti-harakati bilan intizom va odob qoidalariga rioya qilmagan bo'lsa, bularni ko'rsatib o'tish kerak.

Agar bu jismonan zaiflik, yoki asab kasalligidan kelib chiqqan bo'lsa, unda o'quvchiga yon bosish lozim. Umumiy baholashda, ayniqsa yolg'onchilik, betgachoparlik, doimiy kechga qolishlarini yozib qo'yishlari kerak. Shuning uchun xulqni baholash ancha murakkab ish. "Xulqi yaxshi" deb yozilganda biz har tomonlama ijobjiy xislatlarni nazarda tutamiz. "Yaxshi" bahosi nafaqat ma'naviy qonun-qoidalar buzilmagan hollarda, balki butun xatti-harakatlari yaxshilikka chorlagan holda qo'yiladi.

"Qoniqalri" deb baholash, bolani yomon hislatlari bilan birga yaxshi hislatlari borligini ham bildiradi.

Xulq-atvor, qunt va diqqat-e'tiborni baholashda ularni yozuvlarda mujassamlashtirib, oxir oqibat bir to'xtamga kelib, o'quvchi haqida biron bir xulosa chiqarishimiz mumkin.

O'qishdagi yutuqlarni baholashda, o'qituvchi aniq bir xulosa va ko'rsatmalardan kelib chiqib baho qo'yadi. Ammo xulq, qunt va diqqat-e'tiborni baholashda biz biron-bir aniq ko'rsatmadan foydalana olmaymiz, chunki har bir o'qituvchining o'ziga yarasha dunyoqarashi, baholashda talabari dor.

Ko'pincha sinfdan-sinfga o'tishda ota-onalar bolalarini hulqi, qunti va diqqatiga e'tibor bermay baholarga qarashadi, bu o'qituvchi va ota-onalar orasida ziddiyatlarga ham olib kelishi mumkin. Aslida o'quvchini yutuqlari uy vazifasiga, yozma ishlariga qarab belgilanadi, bular esa o'z

yo‘lida uyda kattalar yordamida bajarilgan bo‘lishi mumkin. Katta sinflarda (ko‘p sonli sinflarda) ham ob‘yektiv baholash ancha murakkab ish, chunki darsda biz har bir o‘quvchini savol-javob qilishga ulgurmaymiz, bu esa javoblar oralig‘idagi vaqtini ancha uzaytiradi, natijada baho qo‘yish mahali bizni qo‘limizda o‘quvchini bilimini belgilash uchun juda kam ma’lumotlar to‘planadi. Yozma ishlar, yoki faqat og‘zaki javob orqali baholash, o‘quvchilarни tushunchasini emas, yodaki javoblariga nisbatan baholash ham xatodir. Shuning uchun yakuniy baholashlarda, barcha xulosalarni yana qaytadan tekshirib chiqib baholash lozim.

Javoblar va yutuqlar ham har safar bir-biriga mutanosib emasligini qayd etishimiz kerak. Baholash va keyingi sinfga o‘tkazishda javoblarga e’tibor berishimiz kerak. Baholarni to‘plab, biz yakuniy baholash natijalarini chiqaramiz. Ammo o‘quvchi yuqori tushuncha, ya’ni yutuqlarga ega bo‘lib har safar ham kerakli baholarni ololmay qolishi mumkin. Bu xolda o‘quvchini yutuqlarini ko‘rsatib o‘tib, to‘plagan baholariga yarasha yakuniy baholash kerak. Biz o‘quvchini qo‘yilgan maqsad, yoki o‘tishi kerak bo‘lgan fanni qanday o‘zlashtirganiga qarab baholashimiz shart.

Yakyniy baholash va uning ahamiyati. Qoidalar. Bir fandan olingan yaxshi baholar boshqa fandan olingan salbiy baholarni oqlaydimi?

Yakyniy baholash qanchalik oqilona bo‘lsa shuncha ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Aslida yakyniy baholashni o‘tkazishda o‘quvchini fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga asosiy e’tibor qaratilishi lozim. Ya’ni fan o‘zlashtirib bo‘lgandagina, o‘quvchi berilgan o‘quv rejasini bajara olgandagina unga ijobiy baho qo‘yish kerak. Yuqori sinf o‘quvchilariga yuqori talablar qo‘yishimiz mumkin, kichik sinflardagi o‘quvchilarga esa

talablar ularni yoshiga mos xolda qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchiini temperamentidan kelib chiqib talablar qo'yichi kerak. Misol uchun flegmatik turdag'i o'quvchini salbiy baholash, uning flegmasini oshiradi xolos. Sangviniklarga katta talablar qo'yadigan bo'lsak, uni yuzaki jo'shqinligi oxir-oqibat bu o'quvchini salbiylikga yetaklaydi. Shunday qilib, o'quvchini yutuqlarini baholashda biz uni individual xislatlarini boshlang'ich nuqta qilib olib yakyniy baholash mumkin.

O'quvchining umumiy bahosi, uning hamma fanlardan olgan qoniqarli baholari bilan belgilanadi. Hattoki o'quvchi qattiq zo'riqish bilan o'qigan bo'lsa ham, fanlar bo'yicha qoniqarli baholangan bo'lsa, umumiy ham qoniqarli bo'lishi shart. O'qituvchi yil davomida o'quvchini nazorat qilib borishi kerak. Fanlarni sodda va murakkablarga, ong va xotirani talab qiladiganlarga, birinchi darajali va ikkinchi darajaliklarga bo'lish xatodir. O'quvchining biror fan bo'yicha bilimini baholashda, ushbu fanni keyingi sinf fanlariga asos bo'lishligiga ham e'tibor berishimiz kerak.

Ona tili fani eng asosiy fanlar turiga kiradi, chunki u barcha fanlarni asosida yotadi. O'rta sinflarda asosan orfografik, punktasiya, grammatikaga katta e'tibor qaratish lozim. Yuqori sinflarda mazmunni aniq va tushunarligiga, tashqi shaklning mazmunga mos bo'lishini talab qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. VI-IX sinf oraligi, o'quvchilarni o'zgarish, ikkilanish, uyatchanlik, qo'pollik vaqtlaridir. Shularni hisobga olib, ularni baholashda aniq javoblarga nisbatan o'ylab-fikrlashni talab qilishimiz, ko'p gapirib mazmunga yaqin kelinmasligiga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Agar o'quvchi har bir fanda qunt va sabotislilik xislatlarini namoyon eigan bo'lsa, baholashda biz unga yon bosishimiz

kerak, ammo aksincha bo'lib chiqsa, u xolda hech qanday yon bosmasdan uning bilimini aniq, to'g'ri baholash zarur.

Agar biz bitta fandan olingen ijobiy baholar boshqa fandan olingen past baholarini qoplaydimi degan fikrga kelsak, u xolda quyidagi mantiqiy xulosalarga asolangan bo'lamiz: 1) O'quvchi fanlardan ijobiy natijalar ko'rsatolmasa ham, uning qunti, bilim egallahsga saboti bor deb hisoblash mumkin. 2) O'quvchi aniq bir fanlardan tayyorgartlik ko'rib, asosiy vaqtini shu fanlarga sarflagan bo'lishi mumkin.

Yakyniy baholashdagi salbiy bahoni ma'naviy jazo yoki chora sifatida qarasak u xolda biz xato qilgan bo'lamiz. Ma'naviy kamchiliklar bilan yuqori aqliy rivojlanish birday bo'lishligi kam uchraydigan xolat. O'quvchini yoshi, sinfi, ota-onasining moliyaviy xolati, saviyasi o'quvchining aqliy rivojlanishi bilan hech qanday bog'lanmasligi shart.

Yakuniy baholash yani imtihonlar iloji boricha og'zaki va yozma bo'lishi, ular o'quvchini qunti, onggi haqida yetarli xulosa chiqarish uchun asos bo'lishlari shart. Imtihonlar barcha o'quvchilarni ishtirokida o'tishi lozim. Ammo bu usul ko'p vaqtini talab qiladi. Ayrimlar shu usulda o'quvchilar yana bir bor barcha o'tilgan mavzularini qaytarib oladi deb hisoblasalar, boshqalar aqlii ammo dangasa o'quvchilar bu xolatda o'zlarini oxirgi imtihonlarga tayyorlashib oladi va ular imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib ketishlari mumkin deb ta'kidlashadilar.

Agar sinf rahbari va fan o'qituvchilari diqqat bilan o'z o'quvchilarini kuzatib borishgan bo'lsalar, unda yil oxirida ular o'quvchilarni bermalol 2 guruhga bo'lishlari mumkin: 1) ularga asosiy e'tibor qaratilishi kerak bo'lganlar; 2) o'z maqsadlariga shunday ham erisha oladiganlarga.

O'quvchi etarli bilimlarga ega emas degan guman paydo bo'lsa, u xolda o'quvchini imtihonda kuzatib, tekshirib olish mumkin. Yil davomida kuzatishlar va o'quvchilar bilan ishslash, ularni guman ostiga olishdan yoki boshqa talablar qo'yishdan saqlab qoladi. Agar o'quvchi biron-bir fandan yetarli bilimlarni olmagan bo'lsa yanagi siftda u bu bilimlarni egallashi lozim, aks xolda uning keyingi bilimlarni egallashi yana ham qiyinlashadi.

3-§. Individuallik va o'quvchining tabiiy intilishlari

Individuallikni (yakkaxonlik, o'ziga xoslik) haq-huquqlari. Aqlsizlikni kuzatish va unga bo'lgan munosabat. O'quvchilarning tabiiy talablari, intilishlarini tushunish. O'quvchiga tavsif va uning ahamiyati.

Maktab har bir o'quvchini individual (o'ziga xos) xislat va xususiyatlarni o'r ganib chiqib, ularni tarbiyalagan holda yetuklikka, shaxs yaratishga intilishi shart. Shu bilan birga har bir o'quvchi maktabning umumiy qonun-qoidalariiga, talab va ehtiyojiga, intizomiga o'zining shaxsiyati orqali amal qilib, xissa qo'shishi kerak.

Ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarda shaxsni emas, bilim va o'qish uchun yaratilgan manbani ko'rishadi. Aslida esa o'qovchini insonn sifatida sevib, ardoqlash kerak. Uni kuzatib yaxshi xislatlarini rivojlantirish, yomon xislatlarini esa o'zgartirish, rivojlantirmaslik kerak.

Oquvchilarni chuqurroq o'r ganish lozim, son va quruq javob, salbiy xatti-harakatlarni baholash orqali biz o'quvchini tushuna olmaymiz. Ularga ko'proq e'tibor qaratib, chuqurroq anglab, ularni tushunishimiz kerak. Shu holda bizning ishimiz oldinga siljib, biz har bir o'quvchining ichki dunyosini, istaklarini tushuna boshlaymiz. Tushunishimiz qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan yakkama-yakka gaplashib olish lozim. Bu

vaqtida jiddiylik niqobini olib tashlab, o'quvchining nomini aytib, unga do'stona gapirish, oxir-oqibat oquvchini sizga o'qituvchi sifatida emas, do'st sifatida ichidan "yorilishiga" erismoq zarur. O'shanda o'quvchini aybi deb hisoblagan xislatlarimiz, uy tarbiyasidan kelib chiqqanini, fanlardan qolib ketish iroda yo'qligidanligini(va aksincha) yoki o'quvchini u yashirgan jismoniy nuqsonlarini, dangasalik vaqtidan qay tarzda foydalanishini, o'yinlarga berilishini, aqliy rivojlanishini, temperamentini bilib olamiz.

Aqlsizlik (yoki ahmoqlik) bilan kurashishda bu jismoniy tug'ma kamchilikmikan degan fikrni tekshirib chiqish kerak va zaruriy choralar ko'rish kerak.

O'qituvchi qalb ko'zgusi bo'lgan, ko'zdan ifoda o'qib olishni bilishi kerak. Shu bilan birga o'quvchini maqtov va tanbehma munosabatini bilishi o'rganishi kerak. Bog', hiyobonlarga sayohatlarda ham o'quvchilarni o'rganib borish lozim. Bolalarni psixik holatini ularni so'z ifodasidan, turishidan, hatti-harakatidan bilish mumkin. Ammo bu yerda xulosa chiqarishga ehtiyyotlik kerak.

To'g'ri kuzatgan insonlar iloji boricha ularga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozim. Eng avvalo yoshlardan ularni yoshiga noxos bo'lgan xususiyatlarni talab qilmasdan, yoshlarga xos xususiyatlarni qadrlashni o'rganish kerak.

O'quvchini tabiiy intilishlarini bosib-yanchimaslik kerak. O'quvchini o'ziga xos tabiiy intilishlari va ehtiyojlari bor. Bola jo'shqin, tirik jonzot uni vaqtidan avval qarilikga tortmaslik kerak, axir bu ularni tabiiy harakatlariku. Dam olib kelgandan so'ng, o'quvchidan o'tkan darslarni

so'rab turib "nahotki bularni bilmasang? Biz bularni o'tkanmizku?" deb hayron bo'lishini keragi yo'q.

Har holda o'qituvchi o'quvchilarga yon bosishi kerak. Biz o'quvchilarga qiladigan munosabatni bizga qilishsa, biz o'zimizni qanday sezar edik. O'qituvchi o'quvchiga suyanchiq va ishonchli inson bo'lishi kerak. Maktabda, engiltabiyatli o'quvchilarni bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak va kurash olib borish zarur. Eng avvalo hayoli bunday yo'llarga intilgan o'quvchilarni o'qishga jalb qilish, ma'nosiz kitob va videofilmlardan asrash lozim. Agar biz ma'naviy sof o'quvchini tergab qoladigan bo'lsak, biz nogaxon uni bu ishlarga qiziqishini uyg'otib qo'yishimiz mumkin. Chinakkam pedagog o'z tarbiyaviy ishlarida bolani temperamentini e'tiborga olib ish ko'radi.

Flegmatik o'quvchilarni xususiyatlari-anglashni tezligi yoki pastligida. Eng yaxshi holatda — u qat'iyatli, chidamli va xotirjam, eng yomon holatda — u dangasa, ishdan qo'rqadi va sinfda xotirjamgina o'tirishni yoqtiradi. Tarbiya ushbu teleperimentni ijobjiy hislatlarini qo'llab rivojlantirishi kerak. Yomon tomonlari bilan kurashishi lozim, ammo kerakli darajada. Bunday temperamentga ega insonlarni tabiiy qiziqishi, huzur tuyg'usi yoki xotirjamligini tinch qo'ymasdan, uni o'zimizga itoat qildirishimiz kerak. Buning uchun qadam-baqadam, xotirjam va qat'iyatlik bilan o'z talab va maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi harakat qilishi lozim. Flegmatiklarga yaxshi so'zlar, maqtov, taqdirlashlar ham yoqib tushadi, aynan shu yo'llar bilan ularni boshqarish mumkin. Agar flegmatikga jazolar bilan ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishsa, uni kam, ammo kuchli ta'sir ko'rsatigan qilib jazolash kerak.

Melanxalik biron-bir ahdga asta-sekinlik bilan kirishadi, ammo anglash qobiliyati kuchli va chuqurdur. Ular o'z ichki dunyosi va tasavvuriga tayanib, o'zlarining ichki dunyosiga kirib ketishadi. U hech qachon "tez tayyor" bo'lolmaydi, ammo u vafodor va ishonchilidir. Flegmatikdan uni ajratib turadigan xususiyat, u o'zidan rozi bo'lmay, o'z ahvoldidan, o'z yaqinlaridan, butun dunyodan tez norozi bo'ladi. Agar uni kayfiyati yo'q bo'lsa u gumonsirash va ishonchiszlikga tushib qoladi. Uni nazarida har qaysi o'qituvchi ungaadolatsizlik qilayotganday bo'laveradi. Ular bilan yaqin munosabatda bo'lish uchun ko'proq erkalash, mehr va dunyoqarashi noto'g'rilingini ko'rsatish lozim. U o'quvchilarni yolg'izlik va odamovilikdan asrash lozim. Ota-onalari ularga doim biron-bir do'st topib bersa yaxshi bo'ladi. Illoji boricha ularga qattiq va mazax qilib gapitmaslik kerak.

Xaleriklar melanxoliklarni butunlay qarama qashisi. Ularga xos xususiyatlar - tez va kuchli intilish, anglash qobiliyatdir. Bu xususiyatlarni ijobjiy tarafga yo'llash zarur. O'qishda bilimga intilish, tez va jo'shqin anglash ularga xosdir. Qayerdaki unga taalluqli ish bo'lsa, u yerda u faol harakatda bo'ladi. Xususiyatlar salbiy tarafga yo'llansa, intizomsiz, sho'xlik, ko'p tentakliklar qiladigan o'quvchini uchratamiz. Agar bu oddiy sho'xlik bo'lsa, ularni yoshlikga yo'yish mumkin, ammo agar u ma'naviy qoloqlikdan dalolat bersa, bu holda mакtab qat'iy va tez harakatga tushushi lozim. Bu holatlarda ko'pincha biz ota-onalarni ko'magisiz qolamiz. Xoleriklar qat'iy talablarga bosh egishadi, ammo aynan talablarni o'z maqsadiga yo'naltirish uchun o'qituvchi haddidan oshmasligi kerak. Adolatsizlik va rahm-shafqatsizlik bilan ish tutmasdan, adolatli, har taraflama o'ylab taslangan qadam maqsadga muvofiq. Aks holda biz uni

betgachopar va pismiq qilib qo'yamiz. Xolerikni sindirmasdan egish kerak. Xoleriklar tez xulosa chiqarib olishlaridan foydalanib, ularga choralarimizni yoqimsiz taraflari kuchliligni ko'rsatsak u keyinchalik bularga asoslanib egiluvchan bo'ladi.

Sangviniklar temperimenti tez, ammo yuzaki anglash qobiliyati bilan ajralib turadi. Sangvinik qiziqqan narsasiga tez kirishadi, xulosa, ahd qilishda unga bir soniya yetarli, ammo bu bolalarda sabr va qunt rivojlanmagan, bu hislatlar unda suhandonlik, parishonxotirlik, yuzakilikni tarbiyalaydi.

Bunday bolalarni mакtabda, ayniqsa shahar mакtablarida ko'p uchratsa bo'ladi. Zamonaviy, jo'shqin hayot kechirayotgan bunday bolalarga ko'p duch kelaimiz. Chunki hayotni jo'shqin, qo'nimsizligi ularda aks etadi. Bu bolalar kichik intizomsilik (gunoh) qilishlari mumkin. Ularni vaqtдан avval maqtamaslik lozim, chunki ular tez qabul qilib, shundayligicha olgan bilimlarini tez unutuvchandirlar. Bu bolalarни yaxshi niyatları ham ko'p, ammo bu niyatlar o'zgaruvchan, shuning uchun ham ularga yaxshi niyatlarini doimo eslatib turish lozim, shundagina ularni doimiylikga o'rgatamiz. Sangviniklarni xotirjam tinglab, o'ylab gapishiga undash lozim. Qat'iy, jiddiy chora va jazolarni qo'llamaslik lozim. ular bilan bosiqlik va sabr-matonat bilan ishlash lozim. Chunki doimiylikga intilmaydigan sangvinik o'zini qiziqqonligi bilan haftalab yig'ilgan natijalarni chippakka chiqarish mumkin. Ma'naviy tarbiyalashda bu bolalarni tez junbushga kelisidan (qo'zg'aluvchanligidan) foydalanish mumkin, ammo bu xususiyat beboslikga, yuzakilikga aylanib ketmasligi lozim.

Sangvinik bolalarda diqqat-e'tiborini rivojlanтирish ancha murakkab ish. Shuning uchun o'qituvchini darsi qiziq va aniq ma'lumotlardan tashkil topishi lozim. Aniq, mazmunga boy o'quv materiali sangvinikni jiddiy mehnatga o'rgatishda qo'l keladi.

Shunday qilib biz maktabda temperamentni o'ziga xos xususiyatlardan foydalanib, o'z maqsadlarimizga erishish uchun vositasifatia foydalanishimiz mumkin. Temperament bu harakter kamchiligi emas, tabiiy holdir. Temperamentga biz ma'naviy emas, talimiylar o'chovlarda yondoshishimiz zarur. Agar o'qituvchi o'quvchiga boshqa bir temperamentni singdirishga harakat qilsa, u holda, bu harakat shaxsni buzadi.

Shuning uchun o'qituvchi har qanday temperamentga teng muomila qilishi, o'quvchilarni teng huquqli ko'rishi kerak. Agar ular o'z temperamenti chegarasida qunt, sabot va chinakam qiziqish intilishlarga ega bo'lishsa, biz ularni sevib, ardoqlamog'imiz shart.

O'quvchiga tavsifnomasi tuzishda biz uni doimiy kuzatuvimizda olib yurishimiz, tavsifni uni ma'naviy dunyoqarashi, hulqi, intilishini hisobga olib, o'zaro bog'lab yozish mumkin. Tavsifda bolani dunyoqarashi, intilishlari, odatlari va hatto jismoniy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari yaqqol aks etishi mumkin.

Tavsifnomasi tuzishda o'quvchini barcha ijobjiy va salbiy taraflari yoritilishi zarur. Bunda biz o'quvchi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lamiz. Uni o'zgarishlarini anglab, kerakli xulosa va xotima yasashimiz mumkin. To'g'ri tuzilgan tavsifnomasi sinfni endi qabul qilib olgan o'qituvchiga ham, ota-onalarni bolalari haqida to'g'ri xulosa chiqarib, keyinchalik ularga mutaxassislik tanlashda ham yordam beradi. Tavsifda

, berilgan jismoniy kamchiliklarni ko'rsatib o'tish ham, ularga bo'lgan munosabatni yo'nalishini belgilab beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Tarbiya jarayonida intizomning roli qanday?
2. Tartib axamiyatini gapirib bering.
3. Sinf raxbarini burchi va vazifasi nima?
4. Taqdirlash axamiyatini tushuntiring.
5. Jazolash kerakmi yoki yo'qmi?

4-bob. Maktab va oila

1-§. Maktab va oila munosabatlari

Ota-onalardan o‘z bolasini yutuqlari, kamchiliklari haqida ma’lumot olib turishi kerak. O‘qituvchini asosiy maqsadi bolaga ta’sir ko‘rsatib, uni ma’naviy va ta’limiy yetuklikka yetaklashdir. Bu yo’llarda bolani ota-onasi o‘qituvchi bilan hamfikr bo‘lib, maktab qonun-qoidalari va intizomni mustahkamlashiga katta e’tibor berishi lozim. Agar oilada ta’lim va tarbiya ishlari to‘g‘ri yo‘lga solingan bo‘lsa, u holda ota-onalardan maktabga ko‘makdosh bo‘ladi. Uydagagi tarbiyasi yaxshi bo‘lgan o‘quvchini maktab tarbiyalamasdan, bu tarbiya mahsulidan foydalilaniladi. Bu oilalar va o‘qituvchilar orasida uzviy bog‘liqlik paydo bo‘lib, o‘quvchini o‘zi ham bundan foya ko‘radi. Ta’lim va tarbiyasi yomon bo‘lgan oilalarda ota-onalar o‘qituvchi bilan kam aloqada bo‘lishadi. Bu erda oila aloqasi maxfiy, yoki ochiq qarshilikga aylanib ketadi. Agar fikr almashish bo‘lsa ham u bir taraflama, yuzaki bo‘ladi. Ota tarbiya ishida ishtirok etishi mumkin. Ammo ona ishtirok etsa, aytilganiarni barchasi maishiy hayot yugur-yuguri, tashvishlardan esdan chiqib ketaishi mumkin. Ba’zan, ota-onalar o‘zini maktabdan yuqori olib, yuzaki munosabatlar qilishadi, o‘zlarini jon kuydirishayotganday ko‘rsatishadi. Aslida buni aksi bo‘ladi, ular faqat bolasining hujjatlari va shahodatnomasi haqida o‘ylaydi. Bunday oilalarda bolani tarbiyasi tartibsiz nazorat qilinadi, yoki ular bolani asossiz gaplariga quløq solishib, o‘qituvchi va maktab ma’muriyatini chetga surib qo‘yishadi. Ular bolani oqlashib, yonini olishadi, jazo va chora ko‘rishlardan o‘zlarini olib qochishib, bolani tarbiyasini izdan chiqaradilar. O‘qituvchi hätti inson va har qanday inson sifatida u xato qilishga haqqi

bor, ammo bolalarini yonini olib, o'qituvchilarni nohaq qoralaydigan otanalar bu xatoni sal bo'lmasa eng sara gunoh qatoriga kiritishadi. Bunday xolatlar ko'pincha ota-onalardan bolasini ayaganidan, xaddan tashqari suyganidan kelib chiqadi, bunday o'quvchilarni tafakkuri va ongi maktab qo'yadigan talablarni engib o'ta olmaydigan darajada nozik bo'ladi. Ota-onalardan o'zlarini bola tarafdan avrashga yo'l qo'yishadi va o'qituvchilarni yuz-xatir qilmasdan bolalarini oldida yomonlashga tushishadi. Ayniqsa bolalarni salbiy baholash bunday oila vakillariga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Ular o'zlarini xaqoratlanganday xis qilishadi. Ammo o'qituvechi ~~ham~~ bekordan-bekor bunday chora ko'rganini o'ylab ko'rismaydi.

Munosabatlarni yaxshilash uchun nimalar qilishimiz lozim? Eng avvalo maktab barcha usullar bilan ta'lim saviyasini ko'tarishga harakat qilishi kerak. Bunga o'z ishini sidqidildan bajarish, o'z ishiga berilish bilan yetishsa bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchi hech qanday bahs ta'sirida oilaviy ishlarga aralashmasligi, o'z hukmini oilaga o'tkazishni, oila vaziyatni o'zgartirishga harakat qilmasligi kerak. Oilaga nisbatan hech qanday adovatni ko'rsatmaslik shart. Maktab oiladagi noto'g'ri yo'naltirilgan tarbiyaga qarshi kurasha olmasligi mumkin. Maktab faqat o'z yordam qo'lini ota-onalarga cho'zishi mumkin. Kerakli vaqtda biz o'quvchini salbiy hatti-harakatini uydagilariga yetkazishimiz kerak. Agar ota-onalar bizdan maslahat so'rashadigan bo'lilha, iloji boricha, ularga ko'mak qolini cho'zishimiz kerak. Agar biz ozgina bo'lsa ham qarshilikga yoki bepisandlikga duch kelsak, u holda biz harakatimizni to'xtatishimiz kerak, va jamoatchilikni qilishimiz zarur. Maktabda o'quvchiga nisbatan intiuzom choralarini ko'rish joyiz. Iloji boricha ota-onalar bilan to'qnashuvgacha bormaslik kerak, chunki o'quvchini ota-onasining hatti-

harakatiga aybdor emas. Ota-onalar ko'pincha maktab talablari bilan chiqishmaydigan tarbiyaviy prinsiplariga egadirlar. Bunday paytda o'z uslubi, bilimi bor o'qituvchi ulardan ya'ni mutaxassis bo'limgan kishilardan hafa bo'lmasligi lozim. Axir vrachlar o'z kasalidan ularni tibbiy bilimlarini kamligidan ranjishmaydi-ku. Shu bilan birga o'qituvchi o'zini yuqori olmasligi va o'z huquqlari haqida jar solmasligi kerak. Chunki ular o'ziga yarasha haq-huquq, ta'sir kuchi va uslubga egadirlar. Shuning uchun oila ularga baribir bosh egadi. O'qituvchi bolani uyidagi munosabatlariga nazar tashlab, muloyimlik va odob qoidalariga amal qilib, ularga ta'sir o'tkazishi lozim. Asosan o'z ishiga xayrixohlik bilan, ota-onaga keskin javob qaytarmaslik, o'quvchi haqida yomonlab kamsitmaslik kerak. Shu usullar bilan bizga qarshi bo'lgan ota-onani ham o'z tarafimizga og'dirib olamiz. O'quvchi ota-onasi oldiga bizga qarshi biron-bir ayb bilan borsa, buni xotirjamlik bilan qabul qilib, o'tkan ishni fosh qilishimiz, asosli dalillar bilan zimmamizga yuklangan aybni inkor etishimiz kerak. Chunki bolalar ko'pincha o'qituvchini ayblastash yo'li bilan o'z ayblarini yashirishadi, ikkilamchi tafsilotlarga berilib, birlamchi asosiy tafsilotlarni unutadilar.

Xotirjam va muloyim muomala bilan ishni ko'rib chiqib, ota-onaga "Nahotki, siz ham bolangizni tarbiyalashda biron-bir ayb qilmasangiz? Axir o'qituvchi I emas 30-40 bolaga qarashi kerakku", deb savol berish lozim. Ota-onsa uy va maktab talablari orasida ancha tafovut borligini tushunishlari kerak. Agar o'shanda ham ota-onalar o'zlarini qo'lga olmasalar, ularga qat'iyatlik bilan chegaradan chiqib ketmaslikni maslahat berish lozim. Shunday qilib, maktab va ota-onalar birdamlikda harakat qilsa, buz ta'lim va tarbiyada ajoyib natijalarga erishamiz. Maktab va oila

har xil yo'llar bilan bir maqsadga intilishi kerak. Maktab uydagi yaxshi tarbiyani mustahkamlaydigan omil sifatida ish olib borishi shart.

Nazorat uchun savollar

1. Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati nimada?
2. Oilaning mакtabga ko'magi qanday bo'lishi kerak?
3. Bola tarbiyasida oilaning tutgan o'mi qanday?
4. Oilaviy tarbiyaning vazifalari nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asrga intilmoxda". Toshkent.1997 yil.
2. I.A.Karimov. "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz". T., "O'zbekiston". 2000 yil.
3. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent. 1999 yil.
4. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". Toshkent.1997 yil.
5. M.Ochilov. "Muallim qalb me'mori". Toshkent. "O'qituvchi".2001 yil.
6. O.Roziqov, S.Og'ayev, B.Adizov. Didaktika. T., "Fan". 1997 yil.
7. N.Saidahmedov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnonlogiya. T., 2003 yil.
8. R.Ashurov va boshqalar. Pedagogik amaliyot. T., "Fan va texnologiya". 2005 yil.
9. M.Xaydarov, O.Xasanboyeva. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. Toshkent. 2003 yil.

Mundarija

Kirish	3
1-bob. Amaliy pedagogika fani predmeti va o‘qituvchining shaxsi.....	4
1-§. Amaliy pedagogika fani predmeti.....	4
2-§. O‘qituvchining shaxsi.....	5
2-bob. O‘quv materillarini ishlab chiqish.....	27
1-§. O‘qituvchining uslubiyatga nisbatan munosabati... .	27
2-§. Darslarga tayyorgarlik va dars.....	31
3-§. O‘qitish san’ati.....	39
4-§. Savol berish san’ati.....	45
3-bob. Maktabdagi tarbiya jarayoni.....	65
1-§. Maktab intizomi.....	65
2-§. Rostgo‘ylikni tarbiyalash.....	75
3-§. Individuallik va o‘quvchining tabiiy intilishlari.....	93
4-bob. Maktab va oila.....	100
1-§. Maktab va oila munosabatlari.....	100
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	104

N.ERKABOYEVA, D.ISMOILOVA, O'.YO'LDOSH EV

AMALIY PEDAGOGIKA

(O'quv qo'llanma)

Muharrir: *Mirzahmad Mirkomilov*

Texnik muharrir: *Adham Moydinov*

Musahhih: *Matluba Tojiboyeva*

Bosihsga ruxsat etildi 10.06.2005 yil. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.

“Times New Roman” harfida terildi. Bosma tabog‘i 7,2.

Nashriyot hisob tabog‘i 6,5.

Adadi 1000 . Buyurtma . Bahosi shartnoma asosida.

“Fan va texnologiya” nashriyoti.

700000, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

Shartnoma №24-05.

“Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi”da chop etildi.

Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

